

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ  
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**«AGROKIMYO VA TUPROQSHUNOSLIK»  
kafedrasi**

*“O'simliklarni ximoya qilishva meva-sabzavotchilik” fakulteti talabalari uchun*

**«DEHQONCHILIK ILMIY IZLANISH ASOSLARI BILAN»  
fanidan tajriba va amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun**

## **Uslubiy ko'rsatma**



*Andijon-2016 yil.*

***TUZUVCHILAR:******Dotsent:******G.Urunbayeva******Assistent:******X.Jo'rayeva******TAQRIZCHILAR:***

***S.Baxromov*** - Andijon qishloq xo'jaligi instituti «Genetika, qishloq xo'jaligi ekinlari selektsiyasi va urug'chiligi» kafedrasi dotsent, q.x.f.n.

***T.Uraimov*** - Andijon qishloq xo'jaligi instituti «Agrokimyo va tuproqshunoslik» kafedrasi dotsent, q.x.f.n

*Ma'ruza matni Andijon qishloq xo'jaligi instituti «Agrokimyo va tuproqshunoslik» kafedrasi majlisida muhokama etilgan (№ majlis bayoni, 2016 yil – Agronomiya fakulteti o'quv-uslubiy komissiyasida (№ majlis bayoni, 2016 yil – \_\_\_\_\_) va institut ilmiy kengashida (№ majlis bayoni, 30 avgust 2016 yil – \_\_\_\_\_) ko'rib chiqilib chop etishga tavsiya etilgan.*

Uslubiy kommissiya raisi

V.Ataxodjayev.

## KI R I SH

Dehqonchilik fani agronomiya fanlari orasida eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. U tabiiy va ilmiy fanlarni amaliy agronomiya bilan bog'lovchi soha hisoblanadi. Dehqonchilik – amaliy fanlardan biri bo'lib, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, yerdan oqilona foydalanish, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va barqaror hamda sifatlari mahsulot yetishtitish yo'llarini o'rgatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin yer va suvgaga bo'lgan munosobat tubdan isloh qilina boshlandi. yer va suv manbalaridan oqilona, samarali foydalanish uchun Respublikamizda qator qonunlar: "Er kodeksi", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Selektsiya yutuqlari to'g'risida"(1998 y), 1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturi va qator qarorlar qabul qilindi.

YUqorida ko'rsatilgan qonun va qarorlarni qishloq xo'jaligiga tadbiq etilishi natijasida, O'zbekiston Respublikasida yangi agrar islohatlarni amalga oshirilishi munosobati bilan qishloq xo'jaligini yildan-yilga yangi texnika, mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilib, keng miqqyosda irrigatsiya va melioratsiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Keyingi 50 yil davomida sug'oriladigan yerlar maydoni 2,46 mln getktardan 4,28 mln getktarga yetkazildi. Faqat 1975-1985 yillar mobaynida 1 mln getktarga yaqin yer o'zlashtirilib, 1990 yilda yer maydoni 1985 yilga nisbatan 1,5 barobar ortdi. Ana shu yer maydonlarining qariyb 50 foizini meliorativ holati yomon va shu bilan bir qatorda 1999 yilga kelib sug'oriladigan yerlarning 75 foiziga paxta ekilishi tuproq unumdorligini keskin pasayishiga olib keldi.

SHuning uchun ham, aholini o'sib boayotgan ehtiyojini dehqonchilik mahsulotlari bilan yetarlicha qondirish uchun sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlardan oqilona foydalanish, ekinlar hosildorligini va sifatini oshirish talab etiladi.

Ana shu maqsadda dehqonchilik fanining asosiy vazifasi talabalarni dehqonchilikda qo'llanilayotgan nazariy asoslar va ishlab chiqarishdagi jarayonlar bilan tanishtirishdan iborat.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish maqsadida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar hayotga izchil tadbiq qilinib, ular o'z samarasini bermoqda.

Respublikamiz agrar soha Oliy o'quv yurtlari uchun yangi o'quv ta'lim standartlari joriy qilindi. O'qitiladigan barcha fanlar uchun namunaviy o'quv dasturlari ishlab chiqildi va shunga muvofiq darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar yaratilmoqda.

Dehqonchilik fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy qo'llanma yangi Davlat ta'lim standartiga asosan "Dehqonchilik" fani bo'yicha qabul qilingan namunaviy o'quv dasturlar asosida hamda shu fanlarni o'qitish bo'yicha to'plangan tajribalar, shuningdek, qishloq xo'jaligi mutaxassislari oldiga qo'yilgan dolzarb masalalarni hisobga olgan holda tayyorlangan bo'lib, qishloq xo'jalik oliygoohlari: 5620100-agrokimyo va agrotaproqshunoslik, 5620200-agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha), 5620400-qishloq xo'jalik ekinlari urug'chiligi va selektsiyasi, 5620300- o'simliklar himoyasi va karantini, 5620900-ipakchilik, 5140900-kasbiy ta'lim (5620200-agronomiya), 5630100- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, 5620500 qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish, saklash va ularni dastlabki qayta ishslash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalichlari talabalarining shu sohada olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgandir.

Dehqonchilik fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan ushbu ushbu uslubiy qo'llanmada: tuproq strukturasi, tuproq qattiq qismining haqiqiy solishtirma hajmiy massalarini aniqlash, haydalma qatlama tuzilishini va tuproqni suv xossalalarini o'rganish, tuproqning texnologik xossalalarini aniqlash, begona o'tlar va ularning dehqonchilikdagi zarari hamda ularni hisobga olish usullari va qarshi kurashish tadbirlari, gerbitsidlardan foydalanish, ekinlarni almashlab va navbatlab ekish, dehqonchilik tizimi bilan bog'liq masalalar o'rinni olgan. SHuningdek, talabalarni mustaqil ishslashlari uchun tegishli topshiriqlar, vazifalar va nazorat savollari ham berilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanmadan aspirantlar, ilmiy xodimlar, magistrler va soha mutaxassislarini ham foydalanishlari mumkin.

## 1-mashg'ulot. Tuproq agregatlarini suvga chidamliligini N.I.Savinov usulida aniqlash

**Ishning maqsadi va mazmuni:** Tuproq o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lган озиқ мoddalar va suv manbai hisoblanadi. Uning strukturaviy holati unumdorligiga ta'sir etadigan muhim omillardan biridir.

Tuproqning mexanikaviy elementlari bir-biri bilan yopishib, har xil kattalikdagi va shakldagi kesakchalar (agregatlar) hosil qiladi. Uning mexanikaviy elementlardan agregatlar hosil qilish xossasi **struktura hosil qilish xususiyati** deb ataladi. Agrotuproqshunoslikda **tuproqning strukturasi** deyilganda, uning har xil shakl va kattalikdagi tuproq agregatlariga (kesakchalariga) ajralib ketish xususiyati tushuniladi. Agronomiya nuqtai nazaridan qaraganda esa, suvda yuvilib ketmaydigan, ya'ni mustahkam bo'lган kesakchalargina eng yaxshi hisoblanadi. Bunday kesakchalar suvga chidamli, ulardan tashkil topgan tuproq esa **mustahkam strukturali tuproq** deyiladi. Strukturasiz tuproqlar suv ta'sirida oson uvalanib ketadigan kesakchalardan tuzilgan bo'ladi.

Tuproq kesakchalarining yirik-maydaligiga qarab, quyidagi turlarga:

- diametri 10 mm dan katta kesakchalar – palaxsa-palaxsa strukturali;
- diametri 0,25 dan 10 mm gacha bo'lган kesakchalar makrostrukturali;
- diametri 0,01 dan 0,25 mm gacha bo'lган kesakchalar dag'al mikrostrukturali;
- diametri 0,01 mm dan kichik kesakchalar – nozik mikrostrukturali tuproqqa bo'linadi.

O'lchami 1 dan 3 mm gacha bo'lган kesakchalar agronomiya jihatdan suvga chidamli eng yaxshi kesakcha deb qabul qilingan.

Mustahkam strukturali tuproqda nokapillyar kovaklar hajmi katta bo'lганligidan yog'in-sochin va sug'orish suvlarining hammasi singib ketadi hamda yaxshi saqlanadi, mayda zarrachali tuproqqa qaraganda unda havo almashinuvi ancha yaxshi boradi. SHuning uchun strukturali tuproqda suv va havo yetarli bo'lishi tufayli mikroorganizmlarning yashashi uchun qulay sharoit vujudga keladi, natijada tuproqda o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lган озиқ moddalar to'planadi.

Tuproqda mustahkam struktura doimiy bo'lmaydi. U quyidagi omillar ta'sirida:

- a) mexanikaviy omillar – dalalarda traktorlar, odamlar va hayvonlar yurishi, ishslash qurollarining ish organlari ta'sirida;
- b) fizik-kimyoiy omillar – yog'in-sochin suvlari va ular tarkibidagi ammoniy va vodorod ionlari ta'sirida chirindi singdirib olgan kaltsiy va magniyning siqib chiqarilishi va tuproq strukturasining mustahkamligini pasayishi; suvni oqizib quyish va ayniqsa, bostirib sug'orishda suv siqib chiqargan havo ta'sirida tuproq kesakchalarining uvalanishi tufayli;
- v) biologik omillar - aerob bakteriyalar ta'sirida tuproq kesakchalarini yopishtirib turuvchi chirindilarning parchalanishi natijasida tuproq mayda zarrachalarga ajralishi ta'sirida buzilishi mumkin.

Tuproq strukturasini tiklash uchun al mashlab ekishda bir yillik va ko'p yillik o'tlar ekiladi, shuningdek, yerga organik o'g'itlar solinadi. Strukturali kesakchalar hosil qilish va ularni mustahkamlash uchun chirindi zapasi yangilanadi.

### Topshiriqlar:

1. Tuproq strukturasini N.A.Savvinov usulida aniqlashni o'qib, o'zlashtirib yozib oling.
2. Tuproq strukturaviy holatini o'rganish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha tajribani bajaring va olingan ma'lumotlarni berilgan jadvalga yozing hamda tuproq strukturaviy holatiga baho bering.

### Ishni bajarish tartibi:

- a) tekshiriladigan maydonдан tuproq namunasi olinib, havoda quritiladi. So'ngra undan 500 gramm tarozida tortib olinib, har xil ko'zli elaklardan o'tkaziladi va quyidagi 9 ta: 10 mm dan

yirikroq; 10-7; 7-5; 5-3; 3-2; 2-1; 1-0,5; 0,5-0,25 va 0,25 mm dan maydaroq fraktsiyaga ajratiladi. Elaklarning past tomoniga changsimon zarrachalar to'planadigan taglik qo'yiladi, elanayotgan vaqtida tuproq zarrachalari to'zg'ib ketmasligi uchun ustki tomoni qopqoq bilan berkitiladi;

b) elab bo'lgandan so'ng har bir fraktsiya tarozida alohida tortiladi va foiz miqdorida hisoblab chiqiladi, bunda 500 gramm tuproq 100% deb qabul qilinadi va proporsiya yo'li bilan hisoblab chiqiladi;

v) og'irligi 50 g bo'lgan agregatlarning chidamlilik foizini aniqlash uchun o'rtacha namuna olinadi. Buning uchun har bir elakdan grammlarda ifodalangan fraktsiya foizining yarmiga teng miqdorda tuproq tortib olinadi. Pastki elakning teshiklari to'lib qolmasligi uchun o'rtacha namunani diametri 0,25 mm dan kichik bo'lgan fraktsiyadan olmaslik mumkin (garchi o'rtacha namuna hisoblanayotganda, u hisobga olinsa-da). O'rtacha namuna ikki marta olinadi;

g) olingan o'rtacha namuna suv to'ldirilgan 1 l li tsilindrغا solinadi va 10 minut tinch qoldiriladi. Bu ish keyingi operatsiyalarda kesakchalarni mexanikaviy holatini buzadigan havo chiqib ketishi uchun qilinadi.

1-2 minutdan keyin garchi tuproqdan havoning ko'p qismi chiqib ketgan bo'lsa ham, oz qismi yirik bo'shlidlarda pufakcha shaklida saqlanib qoladi, qolgan havo chiqarib yuboriladi. Buning uchun tsilindrning yuqori qismigacha suv quyiladi va ustini oyna bilan berkitib tezda gorizontal holatga keltiriladi, so'ngra yana vertikal holatga qaytariladi. SHundan keyin havo tuproq ichidan mayda pufakchalar holida ajralib chiqqa boshlaydi;

d) tuproq namunasi tsilindrغا solingandan keyin 10 minut o'tgach, tsilindr ustini oyna bilan yopib tezda to'nnkariladi va tuproqning yirik zarrachalari pastga tushib ketmaguncha shu holatda bir necha sekund ushlab turiladi. So'ngra tsilindr o'z holiga keltirilib, tuproq uning tubiga cho'kishi kutiladi. Bu ish 10 marta takrorlanadi.

TSilindr to'nnkarilganda mustahkam bo'limgan agregatlar va diametri 10 mm dan kattaroq bo'lgan kesakchalar tarkibiy qismlarga ajraladi;

e) diametri 20 sm, balandligi 3 sm va teshiklari 0,25; 1; 2; 3; 5 mm diametrli 5 ta elak ustma-ust qo'yilgan holda suv to'ldirilgan tsilindrsimon vannaga tushiriladi. Suv sathi yuqorigi elak chetidan 5-6 sm yuqorida bo'lishi kerak;

j) tsilindr o'n marta to'nnkarilgandan keyin elaklar ustiga olib kelinadi. TSilindr to'ntariladi va suv ostida oyna ochiladi. TSilindrda tuproq massasi yuqorigi elakka tushadi. Tuproq tekis taqsimlanishi uchun tsilindrni suvdan chiqarmasdan turib, elak ustida aylantiriladi. Asosiy massa (0,25 mm dan yirikroq) elak yuzasiga tushgandan keyin 40—50 sekund o'tgach tsilindr og'zi suv ostida yana oyna bilan berkitiladi va suvdan chiqarib olinadi;

z) elakka tushirilgan tuproq massasi elanadi: buning uchun elaklarni suvdan chiqarmasdan turib, elaklarning hammasi 5—6 sm yuqoriga ko'tariladi va tezda yana suvgaga botiriladi. Kesakchalar qaytadan elakka tushmaguncha ular ana shu holatda 2-3 sekund tutib turiladi. So'ngra elaklar to'plami sekin-asta ko'tariladi va tezda yana botiriladi. YUqorigi (5, 3 va 2 mm li) elaklar o'n marta silkitilgandan keyin olinadi, pastkisi esa qo'shimcha ravishda yana besh marta silkitiladi va suvdan chiqarib olinadi;

i) elaklardagi kesakchalar suv yuvuvchi qurilmaning suv oqimi bilan katta chinni kosachaga yuvib olinadi, ortiqcha suv chiqarib yuborilgandan keyin ular avval tortib qo'yilgan va raqamlangan kichik chinni kosachalarga solinadi;

k) kosachalar avval suv hammomiga qo'yiladi va tuproq yaxshi quriganidan keyin har qaysisi alohida-alohida tortiladi.

Fraktsiyalardagi mustahkam kesakchalarning foizdagi miqdori grammlar sonini 2 ga ko'paytirish bilan aniqlanadi. 0,25 mm dan kichik bo'lgan tuproq zarrachalarining foizi ancha yirik fraktsiyalar foizi yig'indisini 100 dan ayirib topiladi. Olingan ma'lumotlar 1-jadvalga yozib boriladi.

**Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.**

**Zarur jihozlar:** tuproq namunalari, taglik va qopqogi bo'lgan, teshiklari 10, 7, 5, 3, 2, 1, 0,5 va 0,25 mm diametrili elaklar, diametri 7 sm, bo'yi 45 sm li 1 l li tsilindr, chinni kosachalar, texnikaviy tarozilar va tarozi toshlari, suv boki

1.1-jadval

Tuproqning agregat holatini aniqlash

| Fraktsiyalar o'lchami | Quruq holda elakdan o'tkazish |              |   | Suvda elaklash     |                                       |
|-----------------------|-------------------------------|--------------|---|--------------------|---------------------------------------|
|                       | Fraktsiya og'irligi           | Foiz miqdori | Ekish uchun olingan tuproq og'irligi, g | Kosachaning raqami | Mustahkam agregat-laming og'irligi, g |
| 10 dan katta          |                               |              |   |                    |                                       |
| 10 - 7                |                               |              |   |                    |                                       |
| 7 - 5                 |                               |              |   |                    |                                       |
| 5-3                   |                               |              |   |                    |                                       |
| 3-2                   |                               |              |   |                    |                                       |
| 2-1                   |                               |              |   |                    |                                       |
| 1-0,5                 |                               |              |   |                    |                                       |
| 0,5 - 0,25            |                               |              |   |                    |                                       |
| Yig'indisi:           |                               |              |   |                    |                                       |
| 10-0,25               |                               |              |   |                    |                                       |
| 0,25 mm dan kichik    |                               |              |   |                    |                                       |
| J a m i:              |                               |              |   |                    |                                       |

1.2-jadval

Tuproqning struktura holatini baholash

| Agregatlarning miqdori, % |             | Struktura holatining bahosi |
|---------------------------|-------------|-----------------------------|
| Quruq holda elash         | Suvda elash |                             |
| > 80                      | >70         | A'lo                        |
| 80-60                     | 70-55       | YAxshi                      |
| 60-40                     | 55-40       | Qoniqarli                   |
| 40-20                     | 40-20       | YOmon                       |
| <20                       | < 20        | Juda yomon                  |

### Nazorat uchun savollar.

1. Tuproq strukturasi nima va uning dehqonchilikdagi ahamiyati qanday?
2. Tuproq strukturasini buzilish sabablarini aytib bering?
3. Tuproq strukturasini yaxshilash yo'llarini tushuntiring?
4. Tuproq strukturasini aniqlash usullari qanday?
5. Tuproq strukturasini N.I.Savvinov usulida aniqlash qanday amalga oshiriladi?

### 2-mashg'ulot. Egat olib (infiltratsiya usuli) va bostirib sug'orishda struktura elementlarining chidamliligiga tuproq havosining ta'sirini aniqlash

**Ishning maqsadi va mazmuni:** Dalalarni infiltratsiya usulida sug'orishda egatlarga kichik oqim bilan bir tekis oqiziladigan suv tuproq zarrachalarini asta-sekin pastdan yuqoriga tomon

namlab boradi. Ular namlangan sari kesakchalar orasidagi havoni siqib chiqara boshlaydi. Bunda strukturali kesakcha uvalanib ketmaydi. Infiltrotsiya usulida sug'orish chopiq qilinadigan barcha ekinlar: g'o'za, makkajo'xori, sabzavot, poliz ekinlari va hokazolarga ishlov berishda qo'llaniladi.

Bostirib sug'orishda tuproq kesakchalari suvli muhitga cho'kkandek bo'ladi va bu kesakchalar ichidagi havo suv bosimi ta'sirida ularni yorib yuboradi hamda suv yuziga pufakchalar holida ajralib chiqsa boshlaydi. Quruq va kapillyar ho'l kesakchaning buzilish darajasini quyidagi tajribada kuzatish mumkin.

Suvli shisha tsilindrning biriga quruq tuproq kesakchasi solinadi, ikkinchisiga tuproqning kapillyar ho'l, ya'ni teshikchalarida havo bo'limgan kesakchalari olinadi. Quruq kesakcha suvgaga solinganda havo ajratib, tezda buziladi va avvalgi shaklini yo'qotadi. Kapillyar ho'l kesakchadan havo ajralmaydi va ular buzilmaydi, ya'ni o'zining avvalgi holatini saqlaydi.

2.1 jadval

| Namuna olingan tuproqlar | Tuproqning holati  | Tuproq fraktsiyalari           |
|--------------------------|--------------------|--------------------------------|
| 1. Bo'z tuproq           | Quruq<br>Namlangan | 2 – 1 mm<br>2 – 1 mm           |
| 2. O'tloqi – bo'z tuproq | Quruq<br>Namlangan | 0,5 – 0,25 mm<br>0,5 – 0,25 mm |

### Topshiriqlar:

1. Laboratoriya da kapillyar ho'l va ho'llanmagan tuproqlar bilan tajriba o'tkaziladi.
2. Bunday tuproqlar shisha naylarga solinadi, keyin ular orqali suv o'tkaziladi. So'ngra tuproq hajmining o'zgarishi aniqlanadi.

### Ishni bajarish tartibi:

- a) balandligi 20 sm, diametri 2,5-3 sm bo'lgan ikkita bir xil shisha nay (bo'z tuproq va o'tloqi-bo'z tuproq uchun) olinadi. Ularning pastki uchi doira shakldagi filtr qog'oz va doka bilan bog'langan bo'ladi;
- b) ularga bir xil tuproq solinadi, sekingina bir xilda zichlantiriladi. Tuproqli birinchi nay tajriba boshlanguncha (tuproq havosini to'la chiqarib yuborish uchun) kapillyar namlanadi;
- v) tajriba boshlanguncha naydagi tuproqning balandligi (h) va nayning ichki diametri (d) o'lchanadi;
- g) ikkala (bittasi quruq, ikkinchisi ho'l tuproqli) nay shtativga mahkamlangan voronkaga o'rnatiladi;
- d) quyidagi formula bilan nay ko'ndalang kesimining kattaligi hisoblab chiqiladi:

$$S = \frac{\pi \cdot d^2}{4}$$

Bunda: S – nay ko'ndalang kesimining kattaligi,  $sm^2$ ;  $\pi$  - aylananing diametriga nisbati, 3,14 ga teng; d – nayning ichki diametri, sm;

- e) quyidagi formulaga muvofiq naydagi tuproqning tajribagacha bo'lgan hajmi hisoblab chiqariladi:

$$V = S \cdot h$$

Bunda: V – naydagi tuproqning hajmi,  $sm^3$ ; S – nay ko'ndalang kesimining kattaligi,  $sm^2$ ; h – naydagi tuproqning tajribagacha bo'lgan balandligi, sm;

- j) kolbaga suv quyib, usti qog'oz bilan bekitiladi va u tuproqli nay ustida to'ntariladi. To'ntarilayotgan kolba uchidan naydagi tuproq yuzasigacha bo'lgan oraliq 2-3 sm ni tashkil qiladi. Tajriba boshlangan vaqt belgilab qo'yiladi;

z) voronkaning pastki uchida birinchi tomchi paydo bo'lgan vaqt belgilab qo'yiladi;

i) 15 minut ichida filtrlangan suv (Q) miqdori o'lchanadi;

k) quyidagi formula bilan filtratsiya tezligi hisoblab chiqiladi:

$$W = \frac{Q}{S \cdot t}$$

l) naydagi tuproqning tajribadan keyingi balandligi ( $h_1$ ) o'lchanadi,  $sm$ ;

m) quyidagi formula bilan tuproqning tajribadan keyingi hajmi ( $V_1$ ) hisoblab chiqariladi;

$$V_1 = S \cdot h_1$$

n) quyidagi proportsiyadan foydalanib, tuproqning tajribadan keyingi hajmi tajribadan oldingi hajmidan hisoblab, foizlarda aniqlanadi:

$$V - 100$$

bundan:

$$V_1 - x$$

$$V_1 \cdot 100$$

$$x = \frac{V}{V_1}$$

Tuproqning zichlangan hajmi foizini aniqlash (100% - x)

o) olingan ma'lumotlarni taqqoslash uchun yig'ma jadval tuziladi (2-jadvalga qarang).

**Har bir kichik guruuhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.**

**Zarur jihozlar:** shisha naylor, tuproq, kolbalar, doka, filtr qog'oz, shtativlar, soat, suv, o'lchov tsilindr.

2.2 jadval

Har xil sug'orish usullarining tuproqning suv – fizikaviy xossalariiga ta'siri

| Tuproqning nomi      | Tuproqning holati | Fraktsiyasining yirikligi, maydaligi, mm | Tuproq-ning kalin-ligi |                         | Filtirlangan suv miqdori Q, sm <sup>3</sup> | Nay kundalang kesimining yuzasi (S) sm <sup>2</sup> | Filtratsiya tezligi, sm/sek yoki sm/min | Tuproqning hajmi                                |   |
|----------------------|-------------------|--|------------------------|-------------------------|---|---|---|---|---|
|                      |                   |  | Tajribagacha (h) sm    | Tajribadan keyin (h) sm |   |   |   | Tajribagacha (V <sub>1</sub> ), sm <sup>3</sup> | Tajribadan keyin (V <sub>1</sub> ), sm <sup>3</sup> |
| Bo'z tuproq          | Quruq Nam         | 2-1<br>2-1                               |                        |                         |   |   |   |   |   |
| O'tloqi– bo'z tuproq | Quruq Nam         | 0,5-0,25<br>0,5-0,25                     |                        |                         |   |   |   |   |   |

### Nazorat uchun savollar

- Egat olib va bostirib sug'orish tuproq strukturasiga qanday ta'sir etadi?
- Tuproq strukturasi buzilishga undagi havo qanday ta'sir ko'rsatadi?
- Quruq va nam tuproqlar strukturasiga tuproq havosi qanday ta'sir etadi?
- Tuproq strukturasi elementlarining chidamliligiga tuproq havosining ta'siri qanday aniqlanadi?
- Har xil sug'orish usullarini tuproqning suv-fizikaviy xossalariiga ta'siri qanday bo'ladi?

### **3-mashg'ulot. Haydalma qatlama tuzilishini aniqlash**

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Tuproq qattiq qismi hajmining, kapillyar va nokapillyar kovaklikning buzilmagan holatda olingan tuproq namunasining hajm birligiga nisbatli *haydalma qatlama tuzilishi* deyiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi va rivojlanishi uchun bir qator sharoit, jumladan, haydalma qatlama tuzilishiga bog'liq bo'lgan unumdorlik darajasi muhim ahamiyatga ega. **Unumdorlik deganda**, tuproqda bir vaqtning o'zida o'simliklar uchun maksimal miqdorda zarur bo'lgan suv, havo va oziq moddalar bo'lishi tushuniladi. Agar tabiiy tuzilishi buzilmagan holatdagi tuproqdan namuna olinsa, hajmnинг bir qismi tuproq, qolgan qismi suv bilan, tuproq va suvdan bo'sh qismi esa havo bilan to'lган bo'ladi.

SHunday qilib, tuproq 3 qismga: qattiq, suyuq va gazsimon qismga bo'linadi. Tuproqning gazsimon, suyuq va qattiq qismlari hajmining nisbatli doimo o'zgarib turadi. Bu nisbat kesakchalarining yirik-maydaligiga qarab o'zgarib turadi. Bu nisbat kesakchalarining yirik-maydaligi va shakliga, ularning o'zaro joylashishi va tuproqda chang zarrachalarining bo'lishiga, bundan tashqari, unga namlik va harorat ta'sir etishiga bog'liq.

Tuproq zarrachalarining bir-biriga zich taqalib turmasligi natijasida bo'shliqlar, ya'ni kovakliklar deb ataladigan turli kattalikdagi oraliqlar yoki teshiklar hosil bo'ladi. Kesakchalar orasidagi va ichidagi barcha eng mayda (qilsimon) bo'shliqlar **kapillyar kovakliklar** deyiladi. Kesakchalar orasidagi barcha yirik bo'shliqlar **nokapillyar kovakliklar** deyiladi.

Kapillyar va nokapillyar kovakliklarning jami hajmi **umumi kovaklik** deyiladi. Kapillyar oraliqlar suv bilan, nokapillyar oraliqlar esa ko'pincha havo bilan, qisman suv bilan to'lgan bo'ladi.

Tuproqning kovakligi ko'proq uning suv xossalari belgilaydi. Masalan, suv singdirish, nam sig'imi, suvning kapillyar ko'tarilishi, bug'lanish va boshqalar tuproqda boradigan fizik – mexanikaviy, shuningdek biokimyoiy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. CHunki tuproq qatlaming aeratsiya darajasi unga bog'liq bo'ladi. Aeratsiya darajasi mikrobiologik jarayonlarning jadal borishiga, eruvchanlikka, mineral va organik moddalarining oksidlanishiga sabab bo'ladi.

Haydalma qatlama tuzilishi tuproqning suv, havo va oziq rejimini belgilaydi. Yerni ishlash yo'li bilan bu qatlama tuzilishini o'zgartirish mumkin. Agar haydalma qatlama mustahkam kesakchali strukturaga ega bo'lmasa, tuproqning tuzilishini yaxshilash choralar qo'llanganda ham u yog'ingarchilik yoki sug'orish vaqtida tez buziladi. Ikkinchidan, uzoq vaqtadan beri ishlov berilmagan strukturali tuproqlar juda zichlashib qoladi va binobarin tuzilishi yomonlashadi. Strukturali tuproqlarda ishlov berish tufayli hosil qilingan yaxshi tuzilish uzoq vaqtgacha saqlanadi. SHuning uchun tuproqning strukturasi va tuzilishi bir-birini to'ldiradi. Ko'p yillik va bir yillik ekinlar ekib tuproqning struktura holati yaxshilanadi. Yerga ishlov berish bilan esa uning tuzilishi yaxshilanadi.

Haydalma qatlama tuzilishi quyidagi usullar bilan aniqlanadi:

1. Patronlardagi tuproq namunasini suv bilan to'yintirish usuli. Bu usul asosiy hisoblanadi.
2. Eng tez, lekin kamroq aniqlikda bo'lgan piknometr usuli.
3. Dala sharoitida umumi kovak faqat tuproqning hajmi va solishtirma og'irligiga qarab belgilanadi. Umumi kovaklik quyidagi formulaga muvofiq foiz hisobida aniqlanadi:

$$R = \left( 1 - \frac{V_1}{S} \right) \cdot 100, \%$$

Bunda: R - umumi kovaklik, %

V<sub>1</sub> - tuproqning hajmi og'irligi, g/sm<sup>3</sup>

S - tuproqning solishtirma og'irligi, g/sm<sup>3</sup>

1. Haydalma
2. Haydalma  
berilgan tartib bo'yic

1-rasm. Namlikr

Ilmiy tekshirisl o'rganiladi. Holati bi bilan olish mumkin. har xil (100, 250, 500 : Namunalar 0-10, Namuna olishdan olko'rsatiladi.

Namuna olish uc Burg'u tuproqqa verti chiqurlikkakacha (pa tuproq namunasini pastki qatlamdan ajratib olish uchun u bir necha marta buraladi. Burg'uni tuproqdan chiqarib olgandan keyin ortiqcha tuproq patronning pastki qismi bilan bir tekis qilib kesib tashlanadi. Patron burab bo'shatiladi va pastdan hamda yuqorisidan qopqoqchalar bilan berkitiladi.

Olingan namunalar tekshirish uchun laboratoriya olib kelinadi. Juda yumshoq tuproqlardan burg'u bo'lмаган taqdirda namunalarni metall tsilindr yordamida ham olish mumkin. Bular tuproqqa oxirigacha bosib kiritiladi. TSilindrning bo'yisi 10 sm, hajmi 500-1000 sm<sup>3</sup>. So'ngra tsilindrning yuqori qismini qopqoq bilan berkitib, pastki tomoni asta-sekin yuqoriga aylantiriladi, ortiqcha tuproq kesib olib tashlanadi, ikkinchi qopqoq bilan berkitilib, laboratoriya yuboriladi.

### Kapillyar kovaklikni aniqlash.

Bunda barcha hisoblashlar ikkinchi belgigacha olib boriladi. Ishlar quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- a) patron, tsilindrning massasi (A) aniqlanadi;
- b) patron olingan tuproq namunasi (S) bilan tortiladi;
- v) patrondag'i tuproq namunasining olingan vaqtligi sof massasi (S<sub>1</sub>) aniqlanadi:

$$S_1 = S - A$$

g) patronning ichki diametri (d) va bo'yisi (h) o'lchanadi;



d) patronga olingan tuproqning umumiyyajmi (V) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$V = \frac{\pi \cdot d^2}{4} \cdot h, \text{ sm}^3;$$

Bunda: V – tuproqning hajmi, sm<sup>3</sup>;  $\pi$  - patron aylanasining diametriga nisbati, 3,14 ga teng (o'zgarmas son); d – diametri, sm; h – tuproqning balandligi, sm; 4- o'zgarmas son.

e) tuproqli patronlar suvgaga to'yintirish uchun maxsus vannaga qo'yiladi. Vanna ichida filtr qog'oz qoplangan stolchalar bo'ladi. Bu qog'ozlarning uchi vannani to'ldirib turgan suvgaga tushiriladi.

Har bir patronning pastki qopqog'i olinib, o'rniga filtr qog'oz qo'yiladi va qo'l bilan ushlab turib, shu uchi bilan vanna stolchasiga qo'yiladi. So'ngra yuqoridagi qopqoq olinadi. Tuproq filtr qog'oz orqali suv bilan asta-sekin kapillyar to'yinadi. Tuproqli patronlar o'zgarmas og'irlikka kelguncha vannada tutib turiladi. SHundan keyin ularning yuqori tomoni



zib oling.  
rga bo'linib, qo'llanmada  
lgan jadvalga yozing.

ondagi tuproqdan kichik

oq holatini buzmasdan  
v yoki Lebedev burg'usi  
'onning kattaligiga qarab

iagonal bo'ylab olinadi.  
hastkaning nomi, vaqtin

ja burab mahkamlanadi.  
lan bosib, mo'ljallangan  
adi, so'ngra patrondag'i  
aylantiriladi, ortiqcha tuproq  
kesib olib tashlanadi, ikkinchi  
qopqoq bilan berkitilib  
berkitiladi.

qopqoqchalar bilan berkitiladi, ehtiyotlik bilan vannadan olinib, berk tomoni bilan pastga qaratib qo'yiladi. So'ngra patron ikkinchi qopqoq bilan berkitiladi;

j) patrondagи tuproq ( $S_2$ ) suv bilan to'yingandan keyin tortilib, sof og'irligi hisoblab topiladi:

$$S_3 = S_2 - A$$

Tuproqning qattiq qismi hajmini aniqlash uchun namunadagi mutloq quruq tuproqning og'irligini topish kerak. CHunki butun tuproq namunasini mutloq quruq og'irlikkacha quritish uchun uzoq vaqt talab etiladi, quritish uchun uning faqat bir qismi olinadi va quritilgan tuproq qismiga qarab barcha namuna qayta hisoblab chiqiladi;

z) patrondagи tuproqdan quyidagi usullarda o'rtacha namuna olinadi:

1. Kichik burg'u bilan patrondagи suv to'yingan tuproqdan yuqoridaн pastga, so'ngra esa patrondan tuproqning butun balandligi bo'y lab pastdan yuqoriga tomon to'ncarib, ikkita namuna olinadi. Olingan namunalar oldindan tortib qo'yilgan alyumin stakanchaga solinadi.

2. Tuproq patrondan kosachaga olinib, yaxshilab aralashtiriladi, o'rtacha namuna olinadi va u oldindan tortib tayyorlab qo'yilgan alyumin stakanchaga solinadi. Ortiqcha tuproq tashlab yuboriladi;

i) alyuminiy stakanchaning og'irligi ( $S_4$ ) aniqlanadi;

k) kapillyar suv bilan to'yingan tuproq namunasi bo'lган stakanchaning og'irligi ( $S_5$ ) topiladi;

l) stakanchadagi kapillyar suv bilan to'yingan sof tuproqning (K) og'irligi hisoblab topiladi;

$$K = S_5 - S_4$$

m) olingan namunalar termostatda  $105^0$  haroratda 6 soat davomida quritiladi;

n) mutloq quritilgan namunasi solingan stakanchaning og'irligi ( $S_6$ ) aniqlanadi;

o) stakanchadagi bug'lanib ketgan kapillyar suvning og'irligi yoki hajmi ( $V_1$ ) topiladi:

$$V_1 = S_5 - S_6$$

p) stakanchadagi mutloq quruq tuproqning sof og'irligi hisoblanadi:

$$R = K - V_1$$

Bunda: R - mutloq quruq tuproqning sof og'irligi, g; K-kapillyar to'yingandan keyingi tuproqning og'irligi, g;  $V_1$ -tuproqdan bug'langan suvning og'irligi, g;

s) quyidagi proportsiya bilan mutloq quruq tuproqqa nisbatan foiz hisobida kapillyar kovaklik ( $\alpha$ ) aniqlanadi:

$$R - 100$$

$$V_1 \cdot 100$$

$$\alpha = \frac{R}{V_1 - \alpha}$$

$$R$$

### Umumiy va nokapillyar kovaklikni aniqlash

Buning uchun:

a) tuproqning qattiq qismi egallagan hajm hisoblanadi. Dastlab patron hajmidagi mutloq quruq tuproqning og'irligini quyidagi formulaga muvofiq aniqlash kerak:

$$R_1 = \frac{S_3 \cdot 100}{100 + \alpha}$$

bunda:  $R_1$  – patrondagи (tsilindrдаги) mutloq quruq tuproqning og'irligi, g;  $S_3$  – patrondagи tuproqning to'yingandan keyingi sof og'irligi, g;  $\alpha$ -kapillyar namlik sig'imi, %; 100 – o'zgarmas son.

Masalan, hajmi (V)  $500 \text{ sm}^3$  bo'lган bo'sh tsilindr 100 g kelsa, suv bilan to'yingan tuproqli tsilindr 800 g, kapillyar namlik sig'imi 23 % bo'lsa, bunda tsilindrдаги tuproqning mutloq quruq og'irligi:

$$(800-100) * 100$$

$$\frac{R_1}{100 + 23} = 569,1 \text{ g bo'ladi.}$$

Patrondagи mutloq quruq tuproqning og'irligini belgilab, olingan namunada bu tuproq qancha hajmni eg'allashi aniqlanadi. Buning uchun patrondagи mutloq quruq tuproqning og'irligi ( $R_1$ ) tuproq qattiq qismining solishtirma og'irligi (d) ga bo'linadi:

$$\frac{R_1}{V_2} = \frac{d}{d}$$

Agar d bo'z tuproqlar uchun 2,7 deb qabul qilingan bo'lsa, bunda qattiq qismining hajmi:

$$\frac{569,1}{2,7} = 210,77 \text{ sm}^3$$

b) umumiy kavaklikning hajmi aniqlanadi. U butun patron yoki tsilindrning ichki hajmidan tuproq qattiq qismi hajmining ayirmasiga teng, ya'ni:

$$V_3 = V - V_2$$

Bu formulaga son qiymatlarini qo'yask:

$$V_3 = 500 - 210,77 = 289,23 \text{ sm}^3$$

v) bunda nokapillyar kovaklikning hajmi ( $V_4$ ) umumiy kovaklik hajmi ( $V_3$ ) bilan kapillyar kovaklik hajmi ( $V_5$ ) orasidagi farqqa teng bo'ladi.

$$V_4 = V_3 - V_5$$

g) patrondagи kapillyar kovaklikning hajmi quyidagi proportsiyadan topiladi:

$$\frac{R_1 - 100}{V_5 - \alpha} = \frac{100}{100}$$

Formulaga son qiymatlarini qo'yib, kapillyar kovaklikning hajmi topiladi:

$$\frac{569,1 - 23}{100} = 130,89 \text{ sm}^3$$

Nokapillyar kovaklik hajmi esa:

$$V_4 = 289,23 - 130,89 = 158,34 \text{ sm}^3 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

**Tuproqning qattiq qismini, aeratsiya va  
to'yinish darajasini hisoblash**

Olingan ma'lumotlarga muvofiq, tuproqning qattiq qismi, aeratsiya va to'yinish darajasi (foizlarda) aniqlanadi.

a) tuproq qattiq qismining foizi hisoblab topiladi.

Ana shu maqsadda patronning hisoblangan hajmi 100 % deb qabul qilinadi, bunda qattiq qismning foizi quyidagi proportsiya bilan aniqlanadi:

$$\frac{V_2 \cdot 100}{V - 100} = \frac{x}{V}$$

V - patronning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  $V_2$  - tuproq qattiq qismining hajmi,  $\text{sm}^3$ .

b) umumiy kovaklik havo bilan qanchalik to'lganligini ifodalaydigan aeratsiya darajasi foizlarda hisoblab topiladi. Buning uchun namuna olinayotgan vaqtida tuproqdagи suvning hajmi

(m) tuproqning suv bilan to'yinmasdan namuna olish vaqtidagi og'irligi ( $S_1$ ) dan mutloq quruq og'irlilik ( $R_1$ ) ni ayirib tashlash bilan topiladi, ya'ni:

$$m = S_1 - R_1$$

So'ngra havoning hajmi (M) umumiy kovaklik hajmi ( $V_3$ ) dan suvning to'yingandan oldindi hajmi (m) ni ayirib topiladi:

$$M = V_3 - m$$

quyidagi proporsiyadan aeratsiya darjasini topiladi:

$$M \cdot 100$$

$$\frac{V - 100}{M - x} = \frac{x}{V}$$

Bu yerda:  $V$  – tuproqning umumiy hajmi,  $sm^3$ ;  $M$  – namuna olish vaqtidagi havo miqdori,  $sm^3$ .

To'yinish darjasini hisoblanadi, ya'ni tuproq umumiy hajmining qanday qismi suv bilan band ekanligi aniqlanadi.

Agar tuproqning umumiy hajmi ( $V$ ) 100 foiz deb qabul qilinsa, bunda to'yinguncha ketgan suv miqdori (m) x ni tashkil etadi.

$$x = \frac{M \cdot 100}{V}$$

### Hajmiy og'irlikni hisoblash

Tuproqning hajmiy og'irligi (d) quyidagi tenglamaga muvofiq topiladi:

$$d = \frac{P_1}{V}$$

Bunda:  $R_1$  – tuproqning mutloq quruq og'irligi, g;  $V$  – tuproqning umumiy hajmi,  $sm^3$ .

Asosiy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun quyidagi yig'ma jadval tuziladi.

3.1-yig'ma jadval

| Tuproqning turi | Tuproqning      |                          |                     |                                     | Tuproqning hajmiga nisbatan kovaklik foizi |            |        | Suv bilan to'yinishi, % | Aeoatsiya darjasasi, % |
|-----------------|-----------------|--------------------------|---------------------|-------------------------------------|--|------------|--------|-------------------------|------------------------|
|                 | Umumiy hajmi, V | Qattiq qismning hajmi, % | Quruq og'irligi, R1 | Hajmiy massasi, d g\sm <sup>3</sup> | Kapilyar                                   | Nokapilyar | umumiy |                         |                        |
|                 |                 |                          |                     |                                     |  |            |        |                         |                        |

*Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.*

**Zarur jixozlar:** patron yoki tsilindrlar, namuna olish uchun burg'u yoki pichoqcha, tuproq namligini aniqlash uchun alyumin stakanchalar, to'yintirish uchun vannacha, tarozilar va tarozi toshlari qismlarga bo'lingan chizg'ichlar, filtr qog'oz.

### Nazorat savollari.

1. Haydalma qatlama tuzilishi deb nimaga aytildi?
2. Kapillyar va nokapillyar kovaklik tuproq haydalma qatlama tuzilishida qanday ahamiyatga ega?
3. Haydalma qatlarning tuzilishini yaxshilash yo'llari?
4. Haydalma qatlarning tuzilishi qanday usullar bilan aniqlanadi?
5. Tuproq aeratsiyasi nima va u qanday topiladi?

### 4- mashg'ulot. Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Tuproqning ma'lum miqdorda o'ziga suvni singdirishi va ushlab turish qobiliyati uning **nam sig'imi** deyiladi.

Tuproqning dala nam sig'imi eng muhim suv xossalardan biri bo'lib, ushlanib turgan suvning miqdoriga ko'ra: to'liq, kapillyar va maksimal nam sig'implariga bo'linadi.

1. To'liq nam sig'imi - yer sug'orib bo'lingandan keyin tuproqning hamma bo'shliqlari, ya'ni kapillyar va nokapillyar kovakliklari suv bilan to'lgan bo'ladi.
2. Kapillyar nam sig'imi - bunda kapillyar kovakliklar suv bilan to'lgan bo'ladi.
3. Tuproq zarrachalari molekulalarining tortish kuchi natijasida ushlanib qolgan suv miqdori, uning maksimal dala nam sig'imi deyiladi.

Nam sig'imi tuproqning mexanikaviy tarkibiga, strukturasiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Loyqa va organik modda ko'p miqdorda bo'lgan og'ir tuproqlarning nam sig'imi katta va aksincha, organik moddalar kam bo'lgan tuproqlarning nam sig'imi kichik bo'ladi. Bundan tashqari, sizot suvlarning joylashishi chuqurligi ham tuproqning nam sig'imga ta'sir etadi. Qaysiki, mexanikaviy tarkibi og'ir tuproqlar 1 m gacha chuqurlikda 1 ga yerga 3000-3500 m<sup>3</sup> gacha, yengil tuproqlar 1500-1800 m<sup>3</sup> gacha suv saqlay oladi.

O'zbekiston tuproqlari nam sig'imga ko'ra uch guruhg'a bo'linadi.

1. Nam sig'imi katta bo'lgan og'ir tuproqlar.
2. Nam sig'imi o'rtacha bo'lgan o'rtacha og'ir mexanik tarkibli tuproqlar.
3. Nam sig'imi kichik bo'lgan yengil mexanik tarkibli tuproqlar.

Strukturali tuproqlar strukturasiz tuproqlarga qaraganda suvni yaxshi o'tkazadi va nam sig'imi katta bo'ladi.

Tuproqlarning tarkibi va sizot suvlarning joylashishi chuqurligiga bog'liq holda nam sig'imi bir-biridan sezilarli darajada farq qilishini yuqoridagi jadvaldan ham ko'rinish turibdi. Og'ir tuproqlarning nam sig'imi yengil tuproqlarnikiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Sizot suvlar yuza joylashganda tuproqlarning nam sig'imi yuqori bo'ladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari vaqtida tuzilishi buzilgan tuproqlar namunasi bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bu esa olingen natijalarga ta'sir etadi. Garchi bunday sharoitda tuzilishi buzilmagan tuproqqa qaraganda ancha yaxshi natijalar olinsa-da, har xil tuproqlarning farqi va struktura holatlarini taqqoslashda ular to'la qonuniy bo'ladi.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida dala nam sig'imi bilish katta ahamiyatga ega, chunki ekinlarni sug'orishda sug'orish me'yorlarini, sarf bo'ladiqan suv miqdorini ana shu nam sig'imga qarab belgilanadi.

6.1-jadval

O'zbekistondagi asosiy tuproqlarning nam sig'imi, %

(S.N.Rijov ma'lumotlari).

| Mexanik aviy tarkibi  | Sizot suvlari 1,5 m dan pastda joylashgan o'tloqi-bo'z tuproqlar |                  | Sizot suvlari 1,5 m dan yuqorida joylashgan o'tloqi botqoq tuproqlar |                  |
|-----------------------|--|------------------|--|------------------|
|                       | og'irligiga nisbatan   | hajmiga nisbatan | og'irligiga nisbatan   | hajmiga nisbatan |
| Soz tuproq            | 25   | 36,3             | 28   | 40,6             |
| Og'ir qumoq tuproq    | 22   | 31,9             | 25   | 36,3             |
| O'rtacha qumoq tuproq | 19   | 27,6             | 22   | 31,9             |
| Engil qumoq tuproq    | 16   | 23,2             | 19   | 27,6             |
| qumloq tuproq         | 13   | 18,9             | 16   | 23,2             |
| qumli tuproq          | 10   | 14,5             | -  | -                |

### Topshiriqlar.

- Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash mavzusini o'qib, o'zlashtirib yozib oling.
- Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlashni laboratoriya sharoitida o'rganish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha tajribani bajaring va olingan ma'lumotlarni berilgan jadvalga yozing.

### Ishni bajarish tartibi:

Laboratoriya sharoitida tuproqning nam sig'imini quyidagicha aniqlanadi:

6.2-jadval

| O'rganiladigan tuproqlar       | Fraktsiyalar          |
|--------------------------------|-----------------------|
| Bedadan bo'shagan yer tuprog'i | 3-2, 2-1, 0,5-0,25 mm |
| Eskidan haydalgan yer tuprog'i | 3-2, 2-1, 0,5-0,25 mm |
| Qum                            | 1-0, 0,75 mm          |

Tuproqning nam sig'imini aniqlash uchun bo'z yoki o'tloqi-botqoq tuproqlar olinadi:

- Aniqlanishi lozim bo'lgan tuproq fraktsiyalarning soniga qarab ostiga filtrli doka bog'langan shisha naylar olinadi.
- Tayyorlangan shisha nay tubidagi doka biroz ho'llanib, so'ngra tarozida tortiladi (a), g;
- Nayning 9/10 qismiga qadar tuproq yoki qum solib, kaftda yoki yumshoq narsa bilan asta-sekin zichlanadi.
- Tuproq yoki qum solingan nay tarozida tortiladi (v), g; hisobida.
- quruq tuproq yoki qumning sof og'irligi hisoblab chiqiladi, (s) g hisobida:

$$s = v - a$$

- Nay ichidagi tuproqning balandligi o'lchanadi (h), sm va nayning ichki diametri o'lchanadi, (d) sm hisobida.

- Tuproq yoki qum eg'allagan umumiylajmiy hajm quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\pi \cdot d^2 \cdot V = \dots \cdot h, \text{sm}^3;$$

4

bu yerda: V - tuproqning umumiylajmiy hajmi, sm<sup>3</sup> hisobida.

$\pi$  - aylana uzunligining diametriga bo'lgan nisbati, 3,14 ga teng

d - nayning ichki diametri, sm hisobida.

8. Tuproqning hajmiy og'irligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$V_1 = \frac{S}{V}; \text{ g/sm}^3$$

bunda:  $V_1$  - tuproqning hajmiy massasi,  $\text{g/sm}^3$  hisobida.

$V$  - tuproqning umumiy hajmi,  $\text{sm}^3$  hisobida

$S$  - quruq tuproqning sof og'irligi,  $\text{g}$  hisobida.

9. Tuproqli shisha nay suvli vannaga tushuriladi, unda vannadagi suvning sathi, naydag'i tuproqning balandligi bilan bir xil bo'lsin. Tuproq suvga to'yingandan keyin (tuproq yuzasi yaltiraydi) nayni suvdan olib gravitatsion suv to'liq oqib ketguncha alohida maxsus shisha idish ustiga qo'yiladi.

10. Gravitatsion suv oqib bo'lgandan keyin, tuproqli nayni vaqtı-vaqtı bilan, har 10 minutda, doimiy og'irlilikka kelguncha tarozida tortib turish kerak:

$$f_1, f_2, f_3, \dots, f_n$$

11. Tuproqda ushlanib qolgan suvning og'irligini hisoblab chiqariladi:

$$\mathbf{q} = \mathbf{f}_n - \mathbf{v}, g$$

12. Tuproqning quruq og'irligiga nisbatan muayyan (dala) nam sig'imi ( $V$ ) ni hisoblab chiqariladi.

$$V = \frac{s \cdot 100}{q - V}$$

Olingen asosiy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun quyidagicha yig'ma jadval to'ldiriladi.

6.3-yig'ma jadval

Tuproqning dala nam sig'imi aniqlashga oid yig'ma jadval

| Tuproqning Nomi | Fraktsiyalar o'lchami, mm | Tuproqning hajmiy massasi | Dala nam sig'imi, foiz hisobida |                         |
|-----------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------------|-------------------------|
|                 |                           |                           | tuproq og'irligiga nisbatan     | tuproq hajmiga nisbatan |
|                 |                           |                           |                                 |                         |
|                 |                           |                           |                                 |                         |
|                 |                           |                           |                                 |                         |
|                 |                           |                           |                                 |                         |
|                 |                           |                           |                                 |                         |

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** elektron tarozzi, naylar, doka, filtr qog'oz, tuproqni suv bilan to'yintirish uchun kichkina suv vannasi, chizg'ich.

### Nazorat savollari

1. Tuproq nam sig'imi deb nimaga aytildi?
2. Nam sig'imi necha turga bo'linadi?
3. Nam sig'imi tuproqning qaysi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi?
4. Tuproqning to'liq va dala nam sig'implari qaysi usulda aniqlanadi?
5. Tuproq dala nam sig'imi qaysi formula yordamida topiladi?

**5- mashg'ulot. Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash**

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Tuproqning suv tortish kuchi va kapillyar kuchlar ta'sirida suvni yuqori qatlamlardan pastki qatlamlarga o'tkazish xususiyati *suv o'tkazuvchanlik* deb ataladi.

Tuproqning bu muhim fizikaviy xususiyati o'simlik va mikroorganizmlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi tuproq unumdorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Suv o'tkazuvchanlik vaqt birligi ichida o'tadigan suyuqlik miqdori bilan o'lchanadi va *sm/sek*, *sm/min*, *sm/soat* bilan ifodalanadi.

Suv o'tkazuvchanlik darajasi har xil sharoitlarga: tuproqning mexanikaviy tarkibiga, strukturasiga, uning mustahkamligiga, tuzilishiga va shimilgan asoslarga bog'liqdir. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi almashlab ekish yo'li bilan tuproq strukturasini tiklash, yerga mahalliy va mineral o'g'itlar solish, yerni kuzgi shudgorlash va boshqa usullar yordamida yaxshilanadi.

Qumli va qumoq tuproqlar suvni yaxshi o'tkazishi bilan ajralib turadi, soz tuproqlar esa juda kam o'tkazadi. Suv o'tkazuvchanligi yaxshi va nam sig'imi kichik bo'lgan qumli va qumoq tuproqlar kichik miqdorda, lekin tez-tez sug'orishni talab etadi. Suv o'tkazuvchanligi kam, lekin nam sig'imi katta bo'lgan soz tuproqlar katta miqdorda, lekin kamroq sug'orishni talab etadi.

### **Topshiriqlar.**

1. Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash mavzusini o'qib, o'zlashtirib yozib oling.

2. Tuproqning suv o'tkazuvchanligini aniqlashni laboratoriya sharoitida o'rghanish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha tajribani bajaring va olingen ma'lumotlarni berilgan jadvalga yozing.

### **Ishni bajarish tartibi:**

Suv o'tkazuvchanlik ikkita ko'rsatkich bilan: mazkur qatlamdan sizib o'tgan suv miqdori va muayyan qatlamdan suvning sizib o'tish vaqtini bilan aniqlanadi.

2-rasm. Tuproqning suv o'tkazuvchanligini laboratoriya  
sharoitida aniqlash asbobi

#### **O'rghaniladigan tuproqlar**

Beda ekilgandan keyingi tuproq  
Eskidan haydalgan yer tuprog'i  
qum

#### **Fraktsiyalar**

2-3, 1-2, 0,5-0,25 mm;  
2-3, 1-2, 0,5-0,25 mm;  
0,75 – 1 mm.

Tuproqning suv o'tkazuvchanlik xususiyatini aniqlash uchun mexanik tarkibi har xil bo'lgan bo'z, o'tloqi, o'tloqi-botqoq va boshqa tuproqlar olinishi mumkin. Hisoblashlar ikkinchi belgigacha olib boriladi.

1. Tuproq fraktsiyasi miqdoriga qarab bo'yи 20 sm, diametri 2,5-3 sm bo'lgan shisha naylar olinadi.

2. Har qaysi nayning pastki tomoniga filtr qog'ozi va doka bog'lab qo'yiladi.

3. Naylar 10 sm gacha tuproq: birinchi nay – yirik donador (2-3 mm), ikkinchisi – o'rtacha donador (1-2 mm), uchinchisi – changsimon (0,5-0,25 mm) agregatlar va to'rtinchisi qum (0,75-1 mm) bilan to'ldiriladi.

Naydag'i tuproqni teng taqsimlash lozim, buning uchun uni yengil narsa bilan sekin-asta urib zichlanadi.

4. Tuproqning yuvilib ketishdan saqlash uchun ustiga yumaloq filtr qog'oz qo'yiladi.

5. Nay shtativning pastki halqasi ostiga – voronkaga o’rnatiladi. Voronka ostiga o’lchov stakanchasi qo’yiladi.

6. Nayning ichki diametri (d) o’lchanadi va quyidagi formulaga muvofiq, naylarning kesishish maydoni aniqlanadi:

$$W = \frac{\pi \cdot d^2}{4}, \text{sm}^2$$

Bunda: W - nayning ko’ndalang kesimini yuzasi,  $\text{sm}^2$ .

$\pi$ - aylananing diametriga nisbati; 3,14 ga teng.

d - nayning ichki diametri,  $\text{sm}$ .

3,14 va 4 – o’zgarmas sonlar.

7. Tuproqli nay ustidan suvli kolba (kolba shtativning yuqorigi halqasi ustiga o’rnatiladi) to’nkaryladi va vaqt belgilab qo’yiladi.

8. Tuproq yuzidagi suv sathi 3-4  $\text{sm}$  bo’ladi va nay dokasi orqali birinchi tomchi paydo bo’lishi kuzatiladi. quruq tuproqning 10  $\text{sm}$  qatlidan suv qancha vaqtida o’tgani belgilab qo’yiladi.

9. Natijalar suv tuproqning 10  $\text{sm}$  li qatlidan sizib o’tishi uchun ketgan vaqt bilan belgilanadi va quyidagi formulaga muvofiq hisoblanadi:

$$V = \frac{h}{t}$$

Bu yerda: V - suv o’tkazuvchanlik,  $\text{sm/sec}$ ;  $\text{sm/min}$ .

h - tuproq qatlami,  $\text{sm}$ .

t - suv filtrlanish vaqt,  $\text{min yoki sek}$ .

Talabalar suv o’tkazuvchanlikni quyida ko’rsatilgan usul bilan ham aniqlashi mumkin. Ishni bu usulda o’tkazish uchun 4 soat vaqt ajratiladi.

10. Tuproq qatlami orqali 15 minutda o’tgan suv, ya’ni filtrlangan suv 3 marta hisoblanadi ( $Q_1$ ;  $Q_2$ ;  $Q_3$ ).

11. Sarflangan suv miqdorini 3 marta kuzatish natijasida olingan ma’lumotlar to’planadi va kuzatishlar soniga bo’linadi:

$$Q = \frac{Q_1 + Q_2 + Q_3}{3}$$

Bunda: Q - suvning 15 minut ichidagi o’rtacha sarfi,  $\text{sm}^3$ .

$Q_1$ ,  $Q_2$ ,  $Q_3$  – tegishli kuzatishlardagi suv sarfi,  $\text{sm}^3$ .

12. quyidagi formula yordamida suv o’tkazuvchanlik aniqlanadi:

$$Q_4 = \frac{Q \cdot 60'}{W \cdot 15'}$$

Bu yerda:  $Q_4$  - suv o’tkazuvchanlikka sarflangan suv miqdori,  $\text{sm/soat}$ .

Q - suvning 15 min. ichidagi o’rtacha sarfi,  $\text{sm}^3$ .

W - nayning kesishish maydoni,  $\text{sm}^2$ .

60’ va 15’ – o’zgarmas sonlar.

13. Asosiy ko’rsatkichlarni taqqoslash oson bo’lishi uchun yig’ma jadval tuziladi.

7.1-yig’ma jadval

(Tuproq qatlami orqali suv o’tgan vaqt)

| Tuproq nomi | Fraktsiyasi ning o’lchami, mm | Naylarning kesishish sathi, $\text{sm}^2$ | Suv o’tkazuvchanlik, $\text{sm/min}$ | 15 minutdagi o’rtacha suv sarfi, (Q), $\text{cm}^3$ | Suv o’tkazuvchanlik ( $Q_4$ ), $\text{sm/soat}$ |
|-------------|-------------------------------|---|--------------------------------------|---|---|
|             |                               |   |                                      |   |   |

|  |  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|--|
|  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** shisha naylar, kolba, doka, filtr qog'ozi, shtativlar, soat, suv o'lchagich.

### **Nazorat savollari**

1. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi deb nimaga aytildi?
2. Tuproq suv o'tkazuvchanligi nimada ifodalanadi?
3. Tuproqlarning suv o'tkazuvchanligi uning qaysi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi?
4. Suv o'tkazuvchanlik qaysi usulda aniqlanadi?
5. Suv o'tkazuvchanlik qaysi formula yordamida topiladi?

#### **6- mashg'ulot. Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash**

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Tuproqning suvni kapillyar orliqlar orqali pastki qavatlaridan yuqoriga ko'tarish xususiyatiga ***suv ko'tarish xususiyati*** deb ataladi. Suv ko'tarish xususiyati kapillyar namlikning ko'tarilish balandligi va uning harakat tezligi bilan ifodalanadi va *sm/sek* yoki *sm/min* bilan belgilanadi.

Tuproqning suv ko'tarish xususiyati qishloq xo'jaligidagi ikki tomonlama axamiyatga ega, chunki o'simliklar ildizi sarf qiladigan suvning to'dirilib turishiga va tuproqning bug'latish xususiyatiga bogliq.

Tuproq zarrachalari qancha kam va tuproq qancha kukunlangan bo'lsa, uning suv ko'tarish kuchi shuncha yaxshi sezildi - kapillyar namlik yuqoriga ko'tariladi. Yirik g'ovakli va donador tuproqlarda suv tez, lekin kichik balandlikka ko'tariladi. Strukturali tuproqlarda strukturasiz tuproqlarga qaraganda suv sekin ko'tariladi. Zich tuproqlarning suv ko'tarish xususiyati g'ovak tuproqlarnikiga qaraganda kuchli bo'ladi.

Tuproqning harorati ko'tarilishi bilan suvning kapillyarlardagi harakati kuchayadi, ko'tarilish balandligi esa pasayadi. Suvning kapillyarlarga ko'tarilishi nam tuproqda quruq tuproqdagidan yuqori bo'ladi.

Tuproq mayda zarrachalarining quyqalashib qolishiga sabab bo'ladigan Sa, Mg tuzlari uning suv ko'tarish xususiyatini pasaytiradi.

Na, K, NH<sub>4</sub> tuzlari tuproq strukturasini buzib uni mayda zarrachalarga aylantiradi.

Namlikning xar xil shakllari orasida kapillyar namlik ekinlar uchun katta ahamiyatga ega. Chunki u tuproq yuzasidan nam bug'lanib ketishi va o'simliklar traspiratsiyasiga qarab tuproqning pastki qatlamlaridan yuqoriga ko'tarila boradi.

Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini o'rganishga oid tajribalar o'tkazish uchun olingan tuproq xillari va fraktsiyalarning soniga qarab talabalar kichik guruhlarga bo'linadi.

### **Topshiriqlar**

1. Tuproqlarning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash mavzusini o'qib, o'zlashtirib yozib oling.
2. Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlashni laboratoriya sharoitida o'rganish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha tajribani bajaring va olingan ma'lumotlarni berilgan jadvalga yozing.

### **Ishning bajarish tartibi:**

a) balandligi 20 sm, diametri 1 sm bo'lgan shisha naylar (tuproq fraktsiyasiga qarab) olinadi

va uchiga doira shaklli filtr qogoz bilan doka bog'lab qo'yiladi;

b) mm. li qogoz va mum qalam yordamida nay 2 sm. dan qilib bo'laklarga bo'linadi;

v) har bir naychaga tuproq yoki qum solinadi, yumshoq narsaga bir necha marta urib bir tekis joylashtiriladi. So'ngra ular shtativga o'rnatiladi va vannachalardagi suv yuzasiga tushiriladi;

g) tajriba boshlangan vaqt belgilab qo'yiladi; suv tuproqni kapillyar xo'llab, belgilangan bo'lakka yetgan vaqt aniqlanadi va natijalar 16-jadvalga yozib qo'yiladi.

Tuproq bir tekis qo'llanmaganda kapillyar ko'tarilishning o'rtacha kattaligi topiladi;

d) kuzatish 30 min. davomida olib boriladi va quyidagi formulaga muvofiq har bir 2 sm bo'lak uchun shu jumladan: 1) boshlang'ich (birinchi bo'lak uchun); 2) oxirgi (oxirgi bo'lak uchun) va 3) o'rtacha (barcha bo'laklarning yig'indisidan) ko'tarilish tezligi hisoblab chiqiladi:

S

$$V = \frac{S}{t}$$

t

Bu yerda: V – suv ko'tarilish tezligi,  $sm/min$  yoki  $sm/sek$ ; S – o'tilgan yo'l, sm;

t – vaqt min yoki sek.

Xar bir guruhning kuzatish ma'lumotlari 1-jadvalga alohida, barcha guruhlarning oxirgi natijasi esa 2-yig'ma jadvalga yoziladi

8.1-jadval

Suv ko'tarish xususiyatini aniqlash jadvali

| Tuproqning nomi | Fraktsiyalar o'lchami, mm | Kuzatish vaqtি | Ko'tarilishning umumiyl balandligi, ( $\sum S$ ), sm | Ko'tarilish baland-ligining bir bo'lagi (S), sm | Ko'tarilish davri (t), min yoki sek. | Ko'tarilish tezligi (V), $sm/min$ , $sm/sek$ |
|-----------------|---------------------------|----------------|--|---|--------------------------------------|--|
|                 |                           |                |  |   |                                      |  |
|                 |                           |                |  |   |                                      |  |
|                 |                           |                |  |   |                                      |  |

Suv ko'tarilishining o'rtacha tezligi quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$V_2 = \frac{\sum S}{\sum t},$$

Bu yerda:  $V_2$  – suv ko'tarilishining o'rtacha tezligi  $sm/min$  yoki  $sm/sek$ ;

$\sum S$  - yo'lning boshlanishidan oxiriga bo'lган oraliqlar yig'indisi, sm

$\sum t$  - tajriba boshlangandan to oxirigacha suv o'tgan vaqt yig'indisi min yoki sek.

8.2 - yig'ma jadval.

| Tuproqning nomi | Fraktsiyalar o'lchami, mm | Ko'tarilishning umumiyl balandligi, ( $\sum S$ ), sm | Ko'tarilish davri ( $\sum t$ ), min yoki sek. | Ko'tarilish tezligi (V), $sm/min$ , $sm/sek$ |               |                 |
|-----------------|---------------------------|--|---|--|---------------|-----------------|
|                 |                           |  |   | Boshlang'ich, $V_0$                          | Oxirgi, $V_1$ | O'rtacha, $V_2$ |
|                 |                           |  |   |  |               |                 |
|                 |                           |  |   |  |               |                 |

**Har bir kichik guruuhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.**

**Zarur jixozlar:** shisha naychalar, doka, filtr qogoz, shtativ, tuproq yoki qum, стаканча, соат суv, mm.li qogoz va mum qalam

### **Nazorat savollari**

- 1.Tuproqning suv ko'tarish xususiyati deb nimaga aytildi?
- 2.Tuproqni suv ko'tarish xususiyati nimada ifodalanadi?
- 3.Tuproqlarning suv ko'tarish xususiyati uning qaysi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi?
- 4.Suv ko'tarish xususiyati qaysi usulda aniqlanadi?
5. Suv ko'tarish xususiyati qaysi formula yordamida topiladi?

### **7- mashg'ulot. Tuproqning texnologik xossalari aniqlash Tuproqning qovushqoqligi**

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Tuproqning shaklini o'zgarishiga ta'sir etadigan tashqi kuchlarga qarshi tura olish xususiyati uning *qovushqoqligi* deyiladi. yerni ishslash jarayonida qovushqoqlik muhim ahamiyatga ega. Tuproqning qovushqoqligi qancha yuqori bo'lsa, unga ishlov berish shuncha qiyinlashadi.

Tuproqning qovushqoqligi ko'pgina omillarga bog'liq. Strukturali tuproqlar strukturasiz tuproqlardan kam qovushqoqligi bilan farq qiladi. Bu jihatdan tuproqning mexanikaviy tarkibi muhim ahamiyatga ega. yengil (qumli va qumoq) tuproqlar og'ir soz va qumoq tuproqlarga qaraganda kam qovushqoq bo'ladi. Tuproqning qovushqoqligi uning namlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Og'ir tuproq qancha quruq bo'lsa, qovushqoqligi shuncha yuqori bo'ladi.

Engil tuproqlarning qovushqoqligi namlik ortiqcha yoki kam bo'lganda kamayadi. Bundan tashqari, qovushqoqlik singdirilgan asoslarga ham bog'liq.

Tuproqda ikki valentli kationlar (Ca, Mg, Fe) bir valentli kationlar (Na, K) qaraganda ko'p bo'lsa qovushqoqlik kam bo'ladi. Buni ikki valentli kationlar tuproq mayda zarrachalarining kaogullanishiga bir valentli kationlar esa aksincha, uning maydalanishiga (disperslanishiga) imkon beradi, deb tushuntirish mumkin.

Tuproq qovushqoqligini aniqlashning turli usullari bor. Misol tariqasida Atterberg usulini keltiramiz. Qovushqoqlik laboratoriya sharoitida aniqlanadi.

### **Topshiriqlar**

1. Tuproqning texnologik xossalari aniqlash mavzusini o'qib, o'zlashtirib yozib oling.
2. Tuproqning har bir texnologik xossalariini aniqlashni laboratoriya sharoitida o'rghanish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha tajribani bajaring va olingen ma'lumotlarni berilgan jadvallarga yozing.

### **Ishni bajarish tartibi:**

#### **Tuproqning qovushqoqligini laboratoriya sharoitida aniqlash**

Bu tajribani o'tkazish uchun:

a) tuproq 3 mm li teshikli elakda elanadi, so'ngra suvga aralashtiriladi va olingen massadan bir xil massada tomonlari 2x2x2 sm bo'lgan kubiklar yasaladi. Ko'rsatilgan o'lchamdagagi kubiklarning tuzilishiga halal bermay, ular tuproqdan kesib tayyorlanishi ham mumkin.

b) tuproqdan olingen kubik 100<sup>0</sup>- haroratda quritish uchun termostatga qo'yiladi va doimiy o'zgarmas og'irlilikka quritiladi;

v) quritilgan tuproq maydonchalar oraliq'ida taxtacha tagiga ko'chiriladi;

g) kubiklar ezilib ketmaguncha, Atterberg asbobining yuqori taxtachasiga har xil og'irlilikdagi

toshlar qo'yila beradi.

Tuproqning qovushqoqligi qo'yilgan yukning og'irligi bilan aniqlanadi.

Atterberg usuliga ko'ra, qovushqoqligiga qarab tuproqlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Ezilishi uchun 31-60 kg yuk talab qiladigan soz tuproq;
2. Ezilish uchun 16-30 kg yuk talab qiladigan qumoq tuproq;
3. Ezilishi uchun 8-15 kg yuk talab qiladigan yengil qumoq tuproq;
4. Ezilishi uchun 7 kg gacha yuk talab qiladigan qum tuproq.

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** tuproq, qovushqoqlikni aniqlash uchun Atterberg asbobi, 3 mm li teshikchali elak, tarozilar, termostat, pichoq, chizg'ich.

### **Tuproqning yopishqoqligini aniqlash**

*Opishqoqlik* nam holatdagi tuproqning qattiq jismlar yuzasiga yopishish xususiyatidir. U tuproqning mexanikaviy tarkibiga va namligiga bog'liq. YOpishqoqlik yerni ishslash sifatiga ta'sir etadi. Uning son qiymati tuproqdan metall diskni ajratib olish uchun zarur bo'lgan yuk og'irligi bilan ifodalanoladi.

Tuproqning yopishqoqligini taroziga o'xshash I.A.Kachinskiy asbobi yordamida aniqlanadi. Buning uchun tekshiriladigan tuproq namunasi chap tomondan disk ostiga qo'yiladi, disk tuproqqa yaxshi tegib turishi uchun unga yuk qo'yiladi va bir minutdan keyin olinadi. Tarozining o'ng pallasidagi tegelchaga disk tuproqdan ajralmaguncha asta sekin qum solinadi. YOpishqoqlik  $\text{g}/\text{sm}^2$  larda ifodalanoladi. Keyin grammlarda ifodalangan barcha qumni kvadrat santimetrlarda ifodalangan disk maydoniga taqsimlash kerak. Aniqlash natijalari 2-jadvalga yozib olinadi.

9.2-jadval

Tuproqning yopishqoqligini aniqlash.

| Tuproq turi | Namuna olingan qatlama, sm | Tuproq namligi, g | Diskni ajratib olish uchun ketgan qumning og'irligi, g | Diskning sathi, sm <sup>3</sup> | Tuproqning yopishqoqligi, $\text{g}/\text{sm}^3$ |
|-------------|----------------------------|-------------------|--|---------------------------------|--|
|             |                            |                   |  |                                 |  |
|             |                            |                   |  |                                 |  |
|             |                            |                   |  |                                 |  |

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** tuproq namunalari, I.A. Kachinskiy asbobi, tarozilar, qum, lineyka.

### **Nazorat savollari.**

1. Tuproqning texnologik xossalari deganda nimani tushunasiz?
- 2.Tuproqning texnologik xossalari qaysi xossalari kiradi?
- 3.Tuproq qovushqoqligi deb nimaga aytildi va u laboratoriya sharoitida qanday topiladi?
4. Tuproqning plastikligi uning qaysi xususiyatlariga bog'liq?
5. Tuproq yopishqoqligi deb nimaga aytildi va u qaysi asbob yordamida aniqlanadi?

## **8-mashg'ulot. Tuproqning namligini aniqlash**

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Suv tirik organizmlarning, jumladan o'simliklarning hayot omili: o'simlik urug'ining unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tuproqdagi oziq moddalarning o'zlashtirilishi o'simlik tanasida boradigan barcha fiziologik jarayonlar suvli muhitda kechadi. Tuproqning suv rejimini boshqarish ekinlardan yuqori hosil olishda eng muhim tadbirlardan hisoblanadi.

**Tuproq namligi** mutloq quruq tuproqning og'irligiga yoki hajmiga nisbatan foizda ifodalangan suv miqdoridir. Tuproq namligi undagi suv zahirasini bilish, sug'orish va yerni ishslash muddatlarini belgilash uchun aniqlanadi. Ba'zi tekshirishlarda tuproq namligi ekish oldidan, shuningdek har bir sug'orishdan oldin va keyin aniqlanadi.

O'zbekistonning sug'oriladigan tumanlarida 1-2 m gacha chuqurlikda har 10 sm qatlamdan keyin 0-10, 10-20, 20-30 va h.o. namunalar olinadi. Namuna olinayotgan vaqtida haydalma qatlama bilan haydalmaydigan qatlama tagini aralashtirib yuborilmaslik juda muhimdir. SHuning uchun yer 25 yoki 35 sm chuqurlikda haydalganda quyidagi: 0-5, 5-15, 15-25, 25-35 sm va hokazo qatlamlardan namuna olish tavsiya etiladi.

Tuproq namligi aniqlashning bir necha usuli bor: 1) termostatda quritish; 2) spirt yoqib quritish; 3) V.E. Kabaev usuli; 4) parafin; 5) piknometr; 6) gammaskopik quritish; 7) K.N. CHijova asbobida tez quritish; 8) karbidli quritish va boshqalar.

### **Namlikni aniqlash uchun tuproq namunasi olish**

Tuproq namunasi qatlamlar bo'yicha burg'u yordamida yoki maxsus chuqurdan pichoq bilan kesib olinadi. Birinchi holda burg'u tuproqqa ma'lum chuqurlikkacha kiritiladi, patrondag'i tuproqni pastki qatlamdan ajratish uchun u aylantiriladi va ehtiyojlik bilan chiqarib olinadi. Aniqlanadigan qatlama tuprog'ining namunasi kosachaga solinadi va aralashtiriladi. Kosachaning turli qismlaridan qoshiq bilan o'rtacha namuna olinadi va oldindan tortib qo'yilgan alyumin stakanchaga solinib, usti qopqoq bilan yaxshilab berkitib qo'yiladi. Tuproq miqdori (30-40 g) stakanchaning 3/4 hajmidan oshmasligi kerak. Namuna har bir belgilangan qatlamdan 2-3 qayta olinadi. Olingan namuna tekshiriladigan barcha qatlama uchun o'rtacha namlikni aniqlashga imkon beradi.

Namuna tuproq chuquri (razrezi) dan qatlamlar bo'yicha pichoq bilan kesib olinadi. Keyingi ishlar burg'u bilan namuna olingandagi kabi bajariladi. Suv kam bug'lanishi uchun namuna ertalab yoki kechqurun olinadi. Tuproqli stakanchalar quyoshdan himoyalab soya joyga qo'yiladi, keyin xonada quritiladi.

### **Topshiriqlar.**

1. Tuproq namligi mavzusini o'qib, o'zlashtirib oling.
2. Tuproq namligini termostatda quritib aniqlashni laboratoriya sharoitida o'rganish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha tajribani bajaring va olingan ma'lumotlarni berilgan jadvalga yozing.

### **Ishning bajarish tartibi:**

Buning uchun:

- a) qopqoqli raqamlangan alyuminiy stakanchalarning og'irligi (*a*) aniqlanadi;
- b) tuproq namunasi (*b*) stakanchalar bilan tarozida tortiladi;
- v) nam tuproqning sof og'irligi (*v*) aniqlanadi:

$$\mathbf{v} = \mathbf{b} - \mathbf{a}$$

g) tuproq namunasi termostatda 105<sup>0</sup>S haroratda o'zgarmas og'irlikkacha taxminan 5 - 6 soat davomida quritiladi va keyin eksikatorda sovitiladi;

- d) mutloq quruq tuproqli stakancha og'irligi (*g*) aniqlanadi.
- e) mutloq quruq tuproqning sof og'irligi (*d*) topiladi.

$$\mathbf{d} = \mathbf{g} - \mathbf{a}$$

j) nam tuproq (v) va mutloq quruq namunaning og'irligi (d) o'rtasidagi farqqa qarab, bug'langan suv miqdori aniqlanadi;

$$e = v - d$$

z) quyidagi proportsiyadan tuproq namligining miqdori foiz hisobida aniqlanadi:

$$d - 100\% \quad ye \times 100$$

$$e - x \% \quad x = \frac{ye}{d}$$

Olingan ma'lumotlar quyidagi 10.1-jadvalga yoziladi.

10.1-jadval

Tuproq namligini aniqlash

| Namuna<br>olangan joy | Namuna olangan<br>vaqt | Stakanchaning<br>rakami | Qatlam, sm | Stakanchaning og'irligi, g |                       |                             | Tuproqning sof<br>og'irligi, g |                     | Bug'langan<br>suvning<br>og'irligi,<br>(e) | Namlik, % |
|-----------------------|------------------------|-------------------------|------------|----------------------------|-----------------------|-----------------------------|--------------------------------|---------------------|--|-----------|
|                       |                        |                         |            | bo'sh (a)                  | nam tup-<br>roqli (v) | mutloq<br>uruq tuproqli (g) | nam (v)                        | mutloq<br>quruq (d) |  |           |
|                       |                        |                         |            |                            |                       |                             |                                |                     |  |           |

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** Burg'u, raqamlangan alyumin yoki shisha stakanchalar, texnik tarozi, pichoq, termostat. Burg'u bo'limganda belkurak.

#### Nazorat savollari.

1. Tuproq namligi deb nimaga aytildi?
2. O'simliklarning o'sishi rivojlanishida tuproq namligining ahamiyati nimada?
3. Tuproq namligini o'rganishdan maqsad?
4. Tuproq namligini aniqlashni qanday usullarini bilasiz?
5. Tuproq namligini termostatda quritish orqali aniqlash usulini tushuntirib bering?

#### V. Ye. Kabaev usuli bilan namlikni aniklash.

**Maqsad :** tuproqdagi suv zahirasini bilish, sug'orish va  
yerni ishlash muddatlarini va usullarini dalani  
o'zida qisqa vaqtda aniqlash

**Zarur asbob-anjomlar;** V.Ye. Kabaev asbobi

**Mashg'ulot joyi;** Dala

Bu usul tuproq eziluvchanligining eng so'nggi chegarasiga ko'ra namlikni aniqlashga asoslangan. Buning uchun chinni piyolaga 3 ml suv quyib 30 sm tuproq qatlami namunasi

sekinlik balan idishga solinadi. Tuproq namunasini solish qo'lga yopishmaydigan, qo'lda yasalgan shar yuzasida qilsimon chiziqlar paydo bo'lgunga qadar davom etadi.

Tuproqning namlik darajasi V.Ye. Kabaev yasagan asbob yordamida belgilanadi. Bu asbob yordamida, tuproqning namlik darajasini dalaning o'zida bir necha minutda belgilash mumkin.

### **BU ASBOB QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

150 kub santimetr suv sig'adigan chinni xavoncha:

100 kub santimetr suv sig'adigan shisha idish, har biriga  $m^3$ kub sm, suv sig'adigan va aniq qilib darajalarga bo'lingan uchta probirka (ularning ikkitasi zahirada turadi). Probirkalar, skalpellar asbob qopqog'ining tagida, chinni idish bilan shisha o'rtasida joylashgan, 15 sm. lineyka, xar biri 35-5- millimetrl, yog'ochdan to'g'ri burchak.

Tuproqning namlik darajasini belgilash, dalaning katta -kichikligiga qarab 3-6 joydan namuna olinadi.

O'suv davridagi bиринчи sug'ориш muddatini belgilash uchun ishlatiladigan namuna 15-20 sm, chuqurlikdan olinishi kerak. Ikkinchchi, uchinchi va undan keyingi sug'орishlar muddatini belgilashda esa, tuproq namligi belgilanadigan namuna 30 sm chuqurlikdan tuproq namunasi belkurak yoki ketmon yordamida olinadi. Chuquurning tubi yuqorida to'kilgan tuproqdan tozalanadi. So'ngra chuquurning tubi pichoq yoki skalpel yordamida 3-4 sm, qalinlikda yumshatiladi va tahlil uchun o'sha yumshatilgan qatlamdan bir xovuch tuproq olib bir qog'oz parchasi ustiga to'kiladi.

Keyin shisha probkaga suv quyiladi. Tuproq namligi to'g'risida aniq ma'lumot hosil qilish uchun, probirkaga quyilgan suvning hajmi to'g'ri kub sm bo'lishi kerak. Probirka tik vaziyatga qo'yilib chekkasigacha suv bilan to'ldirilganida unda ana shu miqdor suv ketadi. Suv probirkaning chekkasigacha borib yetmagan taqdirda, bir necha tomchi tomizilib, probirkani to'latish lozim. Suv ortiqcha qo'yilib uning yuzasi probirka chekkasidan oshib dumaloqlanib turganida esa barmoqni probirka chekkasiga extiyotlik bilan tekizib bir tomchi suvni olib tashlash kerak.

Probirkadagi suv chinni idishga bo'shatiladi. Qog'oz parchasidagi namunadan idishdagи suvga oz-ozdan tuproq tashlanadi va skalpel bilan doim qorishtirib turiladi. Namuna ancha quyuqlashib qolgandan keyin namunani barmoq bilan qorishtiriladi va bu ish namuna qattiqlashishiga qadar davom ettiriladi. Hosil bo'lган namunani kaft bilan yumaloqlab sharcha holiga keltiriladi. Bordiyu sharcha hali yumshoq bo'lsa, unga yana tuproq qo'shib, to yuzasida mayda yoriqlar hosil bo'lgunga qadar yana kaft ustida yumalatiladi. Sharcha yuzasining darz ketishi tahlil tugaganligidan darak beradi.

Agar keragidan ortiqcha tuproq qo'shilgan bo'lsa tuproq qotib qoladi va undan sharcha hosil bo'lmaydi.

Sharcha sernam bo'lганida ham natijasi aniq bo'lmaydi. Shu sababli sharchani, yana salgina tuproq qo'shilgan taqdirda yumalanmasdan tarqalib ketadigan xolga kelguncha yumalatish lozim.

Sharcha qanday vaziyatda turganidan ham rosa yumaloq shaklida bo'lmos'i kerak.

Sharchaning diametri ikkita to'g'ri burchak yordamida lineykadagi, santimetrnii ko'rsatadigan chiziqlardan biriga to'g'rilib, tikkaytirib qo'yilgandan keyin sharchani unga taqab lineyka ustiga o'rnatiladi va sharchaning ikkinchi tomoniga to'g'ri burchakda o'rnatiladi.

Sharchaning diametri o'lchanib bo'lgach, jadvalga qarab tuproqning namlik foizi aniqlanadi va shunga asosan sug'ориш zarurligi yoki zarur emasligi belgilanadi. (namlik foiz hisobida muallif sharchaning diametri 24 mm, bo'lganda namlik miqdorini 0 foiz deb qabul qilgan).

Yum-yumalok shar qo'lda yasaladi va uning diametri V.Ye. Kabaev usulida chizg'ich va ikki dona yog'och tayoqcha, yoki qalamlar bilan aniqlanadi.

## Shakl – 2

| Shar diametri, mm | ChNDSga nisbatan<br>nisbatan, % | Shar diametri, mm | ChNDSga nisbatan, % |
|-------------------|---------------------------------|-------------------|---------------------|
| 30                | 48,80                           | 36                | 70,37               |
| 31                | 53,59                           | 37                | 72,71               |
| 32                | 57,81                           | 38                | 74,80               |
| 33                | 61,53                           | 39                | 76,69               |
| 34                | 64,83                           | 41                | 74,94               |
| 35                | 67,75                           | 42                | 81,31               |

V. Ye. Kabaev usulida namlikni aniqlash uchun 15-20 minut vaqt kifoya

$$A^*B$$

$$X = \frac{A}{100}$$

X-Тупрок намлиги,%

A-шарчани диаметри,мм

B-Ч.Д.Н.С,%

100-узгармас сон.

Узбекистон тупроларида ч.д.н.с 21-24% атрофида булади.

## 9- mashg'ulot. Tekinxo'r va kam yillik begona o'tlarning ta'rifi

**Ishning maqsadi:** Begona o'tlarning dehqonchilikdagi zarari, klassifikatsiyasi, poya va ildiz parazitlari, yarimparazitlar, noparazit begona o'tlar, bir yillik va ikki begona o'tlar bilan tanishtirish va ularning biologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

### **Begona o'tlar va ularning dehqonchilikka keltiradigan zarari**

Inson tomonidan ekilmaydigan, ammo ekinlar orasida o'sadigan va ularga zarar keltiradigan o'simliklar **begona o'tlar** deyiladi.

Tabiatda o'zi o'sadigan, rivojlanadigan, ko'payadigan va tarqaladigan o'simliklar **yovvoyi o'tlar** yoki **yovvoyi o'simliklar** deb ataladi. Ayrim madaniy ekinlar orasida boshqa bir madaniy o'simlik turi ham bo'ladi. U mazkur ekinni ifloslantiruvchi begona o't hisoblanadi. Masalan: kuzgi bug'doy orasida javdar yoki arpa, bahori arpa orasida suli va h.k.

Uzoq tabiiy tanlanish asosida ba'zi bir begona o'tlar u yoki bu ekinlar orasida o'sishga moslashib ketgan. Bunday begona o'tlar **moslashgan begona o'tlar** deyiladi. Masalan: yaltirbosh faqat kuzgi javdar; beda orasida beda zarpechagi; kurmak esa sholi orasida o'sishga moslashgan.

Begona o'tlar keltiradigan zarar, asosan, ekinlar hosilining kamayib ketishida ifodalanadi. Ular:

- 1) erni oriqlatadi (tuproqning haydalma qatlamida ildiz sistemasini rivojlantirib, ekinlar oladigan yorug'lik, namlik hamda oziq moddalarga sherik bo'ladi);
- 2) qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalashtirish, 5620500 kishlok xujalik maxsulotlarini yetishtirish, saklash va ularni dastlabki kayta ishlash texnologiyasida qiyinchilik tug'diradi (kombaynning ish organlarini sindiradi, plunning zararlanishiga sabab bo'ladi; g'umay, ajriq, qizilmiya, yantoq va boshqalar haydash sifatini pasaytiradi);
- 3) ekinlarni soyalab qo'yadi;
- 4) g'alla ekinlarini yotqizib qo'yadi (masalan, qo'ypechak va toron);
- 5) kasallik va zararli hashoratlarning tarqalishiga sabab bo'ladi (yovvoyi turp, rango't va boshqalar karam kili, un shudring zamburug'larini tarqatuvchi, bug'doyiq esa g'alla zangi va boshqa zamburug' kasalliklarining rivojlanish manbai hisoblanadi);
- 6) hayvonlarni zaharlaydi (akonit, bangidevona, mingdevona, tuyaqorin, g'umay, yosh

vaqtida urug'ida hamda vegetativ organlarida zaharli moddalar saqlovchi boshqa o'simliklar).

### Begona o'tlarning biologik guruhlari

Oziqlanish usuliga qarab barcha begona o'tlar ikkiga: parazit (tekinxo'r) va neparazit guruhga bo'linadi.

#### Parazit begona o'tlar

Parazit begona o'tlarning ildizi ham, chin bargi ham bo'lmaydi, shuning uchun ular boshqa o'simliklarning poyasi va ildiziga chirmashib olib, shular hisobiga oziqlanadi. Ular, asosan urug'dan ko'payadi.

11.1-jadval

#### Begona o'tlarning klassifikatsiyasi

| Parazit (tekinxo'r) begona o'tlar |                  | Noparazit begona o'tlar  |   |
|-----------------------------------|------------------|--|---|
| Haqiqiy parazitlar                | YArim parazitlar | Kam yilliklar  | Ko'p yilliklar  |
| Poyalilar<br>Ildizlilar           | Ildizlilar       | Bir yilliklar:<br>1) efemerlar<br>2) bahorgilar:<br>a) ertagi<br>b) kechki<br>3) qishlovchi<br>4) kuzgi<br>5)ikki illiklar | Popuk ildizlilar<br>O'qildizlar<br>Ildizpoyalilar<br>Ildizbakchililar<br>SHingil ildizlilar<br>Piyozlilar<br>Sudralib o'suvchilar |

#### Haqiqiy parazitlar

Bularning hammasi bir yillik o'simliklarga kiradi. Bargi va ildizi bo'lmaydi. Zarpechakda yaxshi rivojlanmagan tangacha shaklidagi barglar bo'ladi. Bu guruhga kiradigan parazitlar deyarli hamma vaqt boshqa o'simliklarning shirasi hisobiga yashaydi. Xlorofill bo'lmanligi uchun barcha parazit o'simliklarda yashil rang bo'lmaydi. O'simliklarga yopishib yashashiga qarab, ular poya va ildiz parazitlarga bo'linadi.

Poya parazitlari. Parazitlarning bu kichik guruhsiga pechakguldoshlar (Cuscutaceae) oиласига kiradigan pechaklarning barcha turi kiradi. Bular karantin begona o'tlar hisoblanadi. Ular ingichka poyali va yo'g'on poyalilarga bo'linadi.

*Ingichka poyali zarpechaklar.* Sebarga zarpechagi (2-rasm), mayda urug'li zarpechak (Cuscuta epithymum Mur.). o'rta Osiyoda uchraydi. Beda va sebarganing asosiy begona o'ti bo'lib, boshqa madaniy o'simliklarda ham uchraydi. Poyasi qizil, juda ingichka, ipsimon, chirmashadigan bo'lib, so'rg'ichlari bilan yopishib yashaydi. To'pguli ko'p gulli sharsimon tuguncha shaklida bo'ladi. Mevasi – ko'sak, iyun – avgustda gullaydi va meva tugadi. Asosan urug'dan va poyasining qismlaridan ko'payadi.

Bitta o'simligi 2500 tagacha urug' tugadi, urug'i hatto tuproq yuzasiga tushib qolsa ham, 18° da unib chiqadi. Urug'ning unuvchanligi tuproqda 12-15 yilgacha saqlanadi. Yangi go'ngda unib chiqadigan urug'i ko'p bo'ladi. Urug'dan unib chiqqandan keyin zarpechak poyasi har xil o'simliklarga o'ralib olib, chirmashib yashaydi.

*Amerika yumaloq urug'li sebarga zarpechagi* (*S. trifolii* Beyr) poyasi och sariq rangli bo'lishi bilan avvalgi turdan farq qiladi. O'zbekistonda zarpechakning boshqa turlari ham uchraydi.

*Kipriksimon zarpechak* kanop, kunjo'tni va ba'zi begona o'tlarni zararlaydi. Hozircha Toshkent viloyatining YUqori-CHirchiq va Oqqo'rg'on tumanlaridan topilgan.

*Zig'ir zarpechagi* (C. Epilinum Weihe) zig'ir, beda, sebarga, lavlagi va boshqa ekinlarni hamda begona o'tlarni zararlaydi.

***Yo'g'on poyali zarpechaklar.*** Bular bo'tun O'zbekistonda va Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida tarqalgan. Poyasi yo'g'onlashgan, chizimchasimon, qizg'ich yoki sarg'ish rangda bo'ladi. Bular deyarli daraxt va bo'talarda parazitlik qiladi. Bir yillik ekinlar va begona o'tlarda ham uchraydi. Daraxt va butalarda, asosan, Leman zarpechagi (C. Lemanni ana Bunge) uchraydi.

***Ildiz parazitlari.*** Bularga shumg'uyalarning barcha turi kiradi. Ulardan eng zararlisi quyidagilardir: shoxlagan nasha va tamaki shumg'uyasi (Orobanche ramosa L.); kungaboqar shumg'uyasi (O. Cumana Waeer); misr shumg'uyasi (O. aegyptica); mutel shumg'iyasi (O. muteli); beda shumg'iyasi, ya'ni sariq shumg'iya (O. lutea).

O'zbekistonda shumg'uyaning ikki turi: kungaboqar va misr shumg'uyasi uchraydi.

*Kungaboqar shumg'uyasi* – Orobanche cumana Waeer (2-rasm) shumg'iyadoshlar (Orobanchaceae) oilasiga kiradi. U O'rta Osiyoda va SHimoliy Kavkazda tarqalgan. Asosan kungaboqar ildizida, kamdan-kam pomidor, tamaki, nasha, maxsar va poliz ekinlarida parazitlik qiladi. Begona o'tlardan shuvoq va qo'ytikanda ko'proq uchraydi.

Poyasi oddiy, shoxlamagan, qo'ng'irroq, seret, pastki qismi yo'g'onlashgan, bo'yi 25 sm gacha bo'ladi. Yozning ikkinchi yarmida gullaydi va hosil beradi. Deyarli urug'dan ko'payadi. Bir tup o'simligi 60-150 mingtagacha urug' tugadi. Urug'i juda mayda bo'lib, shamolda oson tarqaladi, tuproq reaktsiyasi (pH) ga qarab unib chiqadi. Ekinlar ildizidan ajralib chiqadigan modda shumg'iya urug'ining unib chiqishi uchun qulay bo'lган ma'lum tuproq reaktsiyasini yaratadi.

*Misr shumg'uyasi* (Orobanche aegyptica Pus.) pomidor, baqlajan, tamaki, kartoshka, qovun, tarvuz, bodring kungaboqar, karam, xantal, yeryong'oq, kunjut va dag'alkanopni zararlaydi. Begona o'tlardan: qo'ytikan, qora ituzum, qo'yechak va boshqalarini zararlaydi. SHumg'iyalarning barcha turi karantin begona o'tlar qatoriga kiradi.


### **YArim parazit begona o'tlar**

Bu begona o'tlar Markaziy Osiyo davlatlarida tarqalmagan bo'lib, asosan yevropada, Rossiyada: katta pogremok (*Alectorolophus major*), zubchatka (*Odontites rubra*), ochanka (*Euphra sia montana*) uchraydi.

### **Noparazit begona o'tlar**

Begona o'tlar bu guruhining turlari juda ko'p. Ularning hammasini yashil organlari bo'ladi va mustaqil yashaydi. Noparazit begona o'tlar ikki katta guruhga: kam yillik va ko'p yillik o'tlarga bo'linadi.

*Kam yillik begona o'tlar* – butun hayotida bir marta hosil tugadi va hayotining uzun-qisqaligiga qarab, bir yillik va ikki yillik begona o'tlarga bo'linadi.



2-rasm. Tekinxo'r begona o'tlar.

a-zarpechak(*cuscuta L.*), b-kungaboqar shumg'iyasi (*Orobanche cumana* Waeer ).

## **10- mashg'ulot. Bir yillik va ko'p yillik begona o'tlarning ta'rifi Bir yillik begona o'tlar**

Bir yillik begona o'tlarning ildiz sistemasi ko'p yilliklarnikiga qaraganda ancha kuchsiz rivojlanganligidan uni tuproqdan sug'urish oson bo'ladi. Ularning ildizi ingichka o'qildiz yoki popukildiz. yer ustki qismi hamma vaqt o'tsimon. Yil davomida – bahor, yoz yoki kuzda – bir yillik begona o'tlar urug'dan unib chiqadi, gullaydi va hosil tugadi. Urug'i pishgandan keyin ular tezda nobud bo'ladi. P.A. Gomolitskiy ma'lumotiga ko'ra, bir yillik begona o'tlarning 200 dan ortiq turi bor. Paxta dalalarida ularning 154 turi uchraydi. Markaziy Osiyo sharoitida g'o'za va sug'oriladigan boshqa ekinlar dalasida ko'pincha shamak, tariq, oq itqo'noq, olabo'ta, gultojixo'roz, qo'ytkan, qora ituzum, qurtena, temirtikan, qorako'za va boshqalar uchraydi.

Bir yillik begona o'tlar o'z navbatida: 1) efemerlar, 2) haqiqiy bahorgilar, 3) qishlovchilar va 4) kuzgilarga bo'linadi. quyida ularni mufassal o'rganamiz.

**Efemerlar.** Bu guruhga qor erib ketgandan keyin tez unib chiqadigan hayot tsikli qisqa bo'lgan, issiq kunlar bosholguncha tugaydigan (lolaqizg'aldoq singari) begona o'tlar kiradi. Ba'zi efemerlar yoz bo'yи bir necha bo'g'in beradi, masalan, yulduzo't.

*Yulduzo't* – *Stellaria media* L. (3-rasm) chinniguldoshlar (Saryophyllaceae) oilasiga kiradi. Poyasi to'g'ri, ko'tarilgan yoki yotiqli, sershox bo'lib, 60 sm gacha yetadi. YULDUZO'T hamma joyda uchraydi. U faqat Arktika va Alp tog'larida bo'lmaydi. Tomorqa va bog'larda, shuningdek, turar joylar yaqinida, yo'llar yoqasida, daryolar bo'yida ko'p uchraydi. U har xil tuproqlarda va nam joylarda ayniqsa yaxshi rivojlanadi. YULDUZO'T nam yerda sudralib o'sadigan poya bo'g'imlaridan ildiz otish xususiyatiga ega. Bahordan kuzgacha gullaydi va hosil tugadi. Urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 25 mingtagacha urug' tugadi. Urug'i tuproqda 1 sm chuqurlikda va harorat 5-7<sup>0</sup> bo'lganda juda yaxshi unib yaiqadi. Urug'i 25 yilgacha unuvchanligini yo'qotmaydi. YOZ bo'yи yulduzo't ikki – uch bo'g'in beradi.

**Haqiqiy bahori begona o'tlar.** Bularning maysasi bahor yoki kuzda paydo bo'ladi. Tik o'sadi va to'pbarg hosil qilmaydi. Ular, asosan, bahori ekinlar orasida o'sadi. Haqiqiy bahori begona o'tlar ertagi va kechki bo'ladi.



**3-rasm. Kam yillik begona o'tlar.**  
a-yulduzo't (*stellaria L*) , b-qora ituzum (*solanum L*)

**Ertagi bahorgi begona o'tlarning** urug'i erta bahorda, hali tuproq yaxshi qizimasdan unib chiqadi. Bular ekinlar yig'ishtirib olinguncha yoki ular bilan bir vaqtida yetiladi.

**Qiziltasma** – Polygonum aviculare L. toronguldoshlar (Polygonaceae) oilasiga kiradi. Mayda o't, hamma joyda: yo'llarda, o'tloqlarda, ba'zan paxta dalalarida uchraydi. May - avgustda gullaydi. Iyundan oktyabrgacha hosil tugadi.

**Qorako'za, yovvoyi suli** – Avena fatua L. (4-rasm) boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. MDH da shimoliy, oddiy uzun mevali, seret mevali qorako'za uchraydi. Uning ko'p turi bo'lib, sulining madaniy navlari shulardan kelib chiqqan. Morfologik jihatdan yovvoyi va madaniy formalari bir-biriga o'xshaydi. O'rta Osiyoda oddiy, uzun mevali, tog' mintaqasida shimol sulisi uchraydi.

Yovvoyi suli turlari boshhog'ida urug'larning to'kilishiga yordam beradigan urug' bo'g'imining bo'lmasligi va doni buralgan, qiltiqli bo'lishi bilan sulidan farq qiladi.

Bu o't bahori bug'doy, arpa va suli orasida ko'p o'sadi, shuningdek, boshqa bahori ekinlar orasida va shudgorda ham uchraydi. Poyasi to'g'ri, bo'yi 120 sm gacha bo'ladi. Maysalarining ko'p qismi ko'k-yashil. Doni-meva. YOz boshida gullaydi. qorako'zaning urug'i ekinlar bilan bir vaqtida yoki biroz oldinroq pishadi. Pishib ulgurmagan urug'i ham yoppasiga va tez unib chiqishi mumkin. Pishgan urug'i uchun esa 5 oyga yaqin tinim davri talab etiladi. Seret mevali sulining tinim davri bo'lmaydi. SHuning uchun uning doni madaniy suli doniga o'xshab tez va yoppasiga unib chiqadi. Suli urug'i yuqori harorat ( $20^{\circ}$ ) da unib chiqadi.

Qorako'za urug'i hatto 25-30 sm chuqurlikdan, lekin 10 sm chuqurlikdan yaxshiroq unib chiqsa boshlaydi. Urug'i unuvchanligini tuproqda 5-8 yilgacha saqlaydi. qorako'za tuproqni juda quritib yuboradi. Uning tukli doni bug'doy doni bilan tortilganda unga qora rang, nordon ta'm beradi. Tortilgan don molga berilsa, ularning nafas yo'li shimalshiq pardasini yallig'lantiradi. qorako'za zang, qorakuya va bir qator zaharli hashoratlarni tarqatuvchi hisoblanadi.

**Sho'ra, olabo'ta** – Chenopodium album L. (4-rasm) sho'radoshlar (Chenopodiaceae) oilasiga kiradi. U qutb tumanlaridan tashqari, hamma joyda tarqalgan. Har xil yashash sharoitiga moslashgan ko'pgina turi bor. YAxshi ishlangan va unumdar tuproqli yerlarni yoqtiradi. Barcha ekinlar orasida, yo'llar va turar joylar atrofida ko'p o'sadi. O'zbekiston sharoitida o'rta sho'rangan yerlarda uchrashi mumkin. V.V. Fedorov klassifikatsiyasiga muvofiq, u 2 ball sho'rangan (1 m chuqurlikda quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,04 – 0,1 % xlorli tuzlar bo'lgan) yerlarni ifloslantirishi mumkin. Barglarining ko'p qismi oq unsimon g'ubor bilan qoplangan. Poyasi, odatda, shoxlangan, 40-100 sm va undan uzun bo'ladi. O'zbekiston sharoitida iyul-avgustda gullaydi va avgust – sentyabrda hosil tugadi. Faqat urug'dan ko'payadi. Urug'i uch kategoriyada bo'ladi. Tuproq yuzasida qishlagan urug'lardan bahorda 0,5 sm chuqurlikdagi urug'larga qaraganda maysalar ikki marta ko'p chiqadi, 3 sm dan ortiq chuqurlikdagi urug'lar esa unib chiqmaydi. Bunday urug'lar unuvchanligini tuproqda o'n yillab saqlaydi. yetilmagan urug'lar ham unib chiqadi.

Olabo'ta tuproqdan kaliyni ko'p oladi. Bu begona o't bosgan dalalarda ildizmevalar hosili kamayib ketadi. Olabo'ta har xil zararli hashoratlar (lavlagi pashshasi, o'simlik qandalasi, dukkan bitlari va boshqalar) ni tarqatadi.

**Kech bahori o'tlarning** urug'i unib chiqishi uchun tuproqning harorati yuqori bo'lishi kerak. Bularga oddiy gultojixo'roz, kurmak, qo'ytkan, oq itqo'noq, quray va boshqa begona o'tlar kiradi. Bulardan O'zbekistonda eng ko'p uchraydigan ba'zilari bilan batafsil tanishib chiqamiz.

**Oddiy gultojixo'roz, qizilcha** – Amaranthus retroflexus L. (6-rasm) gultojixo'rozdoshlar (Amarantaceae) oilasiga kiradi. MDH da  $55-60^{\circ}$  sh. kenglikdagi hamma joyda tarqalgan. U XVI asrda Amerikadan yevropaga kelib qolgan. So'ngra esa MDH ga tarqalgan. Gultojixo'roz yumshatilgan va o'g'itlangan yerlarni yoqtiradi. Asosan u chopiq qilinadigan ekinlar: g'o'za, kartoshka, lavlagi, poliz va sabzavot ekinlari orasida o'sadi. Poyasi to'g'ri, ko'p qismi shoxlangan, bo'yi 100 sm gacha yetadi. Gultojixo'roz O'zbekiston sharoitida iyun-avgustda

gullaydi va iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi. Faqat urug'dan ko'payadi. Ko'p hosil berishi bilan boshqalardan farq qiladi. YAxshi rivojlangan bitta o'simligi 500 ming va undan ortiq urug' tugadi. Urug'i 22-26<sup>0</sup> da unib chiqadi. yetilmagan urug'i ham deyarli yetilgan urug'lari singari unib chiqadi. Zararlangan urug'lari tezroq unib chiqadi. U lavlagi maysalariga o'xshash qizil bo'lgani uchun lavlagi orasidan o'tab tashlash qiyin (uning qizilcha nomi ham shundan kelib chiqqan).

*SHamak* – *Panicum crus galli* L. boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. SHamak maysalari qoraroq bo'lishi va suv ichidan yuqoriga chiqib turishi bilan sholi maysalaridan farq qiladi. Uning barglari esa suvda yoyilib o'sadi. SHoli barglarining tilchasi va ikkita quloqchasi bo'ladi, shamakda esa bo'lmaydi. Nam yerlarda – sholikorlikda, ariqlar bo'yida, ba'zan g'o'za orasida o'sadi. Poyasi ko'pincha sershoh bo'lib, bo'yi 100 sm gacha yetadi, barglari lentasimon, mevasi don meva. O'zbekistonda iyundan avgustgacha gullaydi. Bir tup o'simligi 5-13 mingtagacha urug' tugadi. Bu urug'lar faqat kelgusi yili 30-35<sup>0</sup> da juda sekin unib chiqadi. Urug'i 1 sm dan chuqurroqda bo'lsa, unib chiqishi juda sekinlashadi. Urug'lari tuproqda 4-5 yilgacha unuvchanligini saqlaydi.

*Kurmak* – *Echinochloa macrocarpa* Vasing (6-rasm) boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. SHolining karantin begona o'ti bo'lib, boshqa ekinlar orasida uchramaydi. Biologik xususiyatlari sholi bilan deyarli bir xil. Ularning urug'i bir vaqtda unib chiqadi va yosh vaqtida bir-biriga juda o'xshaydi, bu esa unga qarshi kurashishni qiyinlashtiradi. Kurmak sholi donini juda ifloslantiradi donni kurmakdan tozalash juda qiyin ish.

Kurmak faqat generativ usulda ko'payadi. Bitta o'simlikda 2 mingtagacha urug' hosil bo'ladi. Avgust-sentyabrda gullaydi. SHolikorlikda kurmakdan tashqari, karantin begona o'tlarning boshqa turi – govkurmak (E. Cryzicola Vasing) ham tarqalgan. U biologiyasi jihatidan kurmakdan deyarli farq qilmaydi. Juda qisqa 8-15 sm (kurmakda 20 sm gacha) ro'vagi bilan ajralib turadi. Barg novi uzun tukchalar bilan qalin qoplangan. Govkurmakning urug'i kurmakning urug'idan mayda bo'ladi. Kurmak va govkurmak shamakka qaraganda dalaning o'ta nam bo'lishiga chidaydi, lekin suv butunlay bo'lmasligiga bardosh bera olmaydi. SHamak qurg'oqchilikka chidamli ekinlar orasida o'sa oladi. Kurmakka va sholining boshqa begona o'tlariga qarshi, asosan suv rejimini boshqarish yo'li bilan kurashiladi. SHolipoyaga qisqa vaqt suv bostirilsa, ular suv ostida nobud bo'ladi.



**4-rasm. Kam yillik begona o'tlar.**  
a-yovvoyi suli (*C. kosn.*), b-olabuta (*Atriplex L.*)



**5-rasm. Kam yillik begona o'tlar.**  
a-jag'-jag'(lat: *capsella medic*), b-yaltirbosh(lat: *bromus L*).



**6-rasm. Kam va ko'p yillik begona o'tlar.**  
a-yovvoyi gultojixo'roz(*A.blitum* L.) b-kurmak( *Echinochloa macrocarpa* Vasing)

*G'o'zatikan* (paxtatikan) Xanthium strumarium L. murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Poyasi yakka o'sadi, to'g'ri, g'adir-budur, bo'yi 40-120 sm gacha bo'ladi. O'zbekistonda iyundan sentyabrgacha gullaydi. Paxta dalalarida ko'p uchraydi. Toshlandiq va bo'sh yotgan yerlarda keng tarqalgan, u yerdan ekin dalalariga o'tadi. G'o'zatikan tez o'sadi va g'o'zani siqib qo'yadi. Ba'zi turlari achchiq va zaharli bo'ladi.

*Oq itqo'noq* - Setaria glauca L. boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Itqo'noq g'o'za va beda ekinlarini, shuningdek, bug'doy va tariqnini juda ifloslantiradi. U yer tanlamaydi, shuning uchun kuchsiz va zichlangan tuproqli maydonlarda uchraydi. Bu xususiyati ekin dalalarida uning boshqa begona o'tlar bilan raqobatlanishini osonlashtiradi. YAxshi parvarish qilinmagan va o'g'itlanmagan bedazorlarda itqo'noq nihoyatda ko'payib ketadi. U ko'kimir rangi bilan ajralib turadi. Poyasi to'g'ri va ingichka, yuqorisi g'adir-budur, bo'yi 50 sm gacha yetadi. Barglari ingichka, uzun, dag'al, siyrak tukli bo'ladi. Poyasining ustida ingichka va tig'iz ro'vagi bor. Boshog'inning tiltig'i sariq yoki qizil bo'lishi bilan ajralib turadi. Urug'i mayda, to'q kul rangda. Itqo'noq maydan iyulgacha gullaydi, iyundan sentyabrgacha hosil tugadi. Ko'p paxta dalalarida, bedapoyalarda va boshqa ekinlar orasida ko'k itqo'noq (Setaria viridis L.) ham uchraydi. Bu itqo'noq yashil rangda bo'lishi ro'vagini yirikligi, qiltig'i yashil va urug'i oq rangda bo'lishi bilan oq itqo'noqdan farq qiladi.

*Quray* – Salsola Kali L. sho'radoshlar (Chenopodiaceae) oilasiga kiradi. U yo'llar bo'yida, tashlandiq va bo'sh yotgan yerlarda, daryo vodiyalari bo'ylab tarqalgan. G'o'za va boshqa ekinlar orasida kam uchraydi. Bo'yi 1 m gacha yetadi. U juda ko'p tikanli va egilgan shoxchalar hosil qiladi. qurayning qurigan va singan tuplari shamolda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi, bunda uning urug'lari yo'l-yo'lakay to'kilib qoladi. Barglari ingichka, seret, bigizsimon, uchida uchli tikan bo'ladi. YAkka barglari tupi asosida joylashgan. Mevasi kul rang qanotchali. Iyundan avgustgacha gullaydi. Avgust-oktyabrda hosil beradi. qurayning bitta o'simligi 200 mingtagacha urug' tugishi mumkin. Urug'i 2 yilgacha unuvchanligini saqlaydi.

*Temirtikan* – Tribulus terrestris L. tuyatovondoshlar oilasiga (Zygophyllaceae) kiradi. Deyarli hamma joyda, ekinzorlarda va yo'llar bo'yida uchraydi. G'o'za orasida eng ko'p uchraydi. Bo'yi 40 sm gacha yetadi. Tukchalari o'simlikka kul rang tus beradi. ildiz bo'g'zidan ko'pgina shoxchalar chiqarib, yer yuzasiga yoyilib o'sadi. Barglari murakkab tuzilgan. Bargchalari yumaloq, qisqa bandli, yakka gullari sariq rangda bo'ladi. Ikki juft tikani bo'lgan ayrim mevachalarga ajraladigan ko'p meva tugadi. Urug'i mayda va uzunchoq, kumushsimon po'stli. Maydan iyungacha gullaydi, iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi.

*Semizo't* – Portulaca oleracea L. semizo'tdoshlar (Portulacaceae) oilasiga kiradi. Begona o't sifatida hamma joyda, ayniqsa yengil va qumloq tuproqli yerlarda, chopiq qilinadigan zkinlar orasida, paxta dalalarida uchraydi. O'simligi qizg'ish rangda, seret va silliq bo'lib, ildiz sistemasi baquvvat rivojlangan. Poyasi shoxlangan bo'lib, yerga yoyilib o'sadi. Barglari qisqa bandli, ovalsimon-cho'zinchoq bo'ladi. Guli sariq va mayda, shox ayrilarida yakka-yakka joylashadi. Mayda tishchali urug'i qora rangda va yaltiroq bo'lib, unuvchanligini tuproqda 30 yilgacha saqdaydi. Maydan iyulgacha gullaydi, iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi. Semizo't juda beor. SHuning uchun chopiq qilinadigan ekinlar orasidan bo'tunlay yo'qotish kerak. Uning kesilib ketgan tuplarini daladan betunlay olib chiqib yo'qotish lozim. Kultivatsiyadan keyin kesilib ketgan shoxchalar tez qurimaydi va shu vaqt ichida yer sug'orilsa, yangidan ildiz olishi mumkin. Semizo'tning urug'i betun yoz davomida sekin unadi, lekin yer sug'orilgandan keyin juda tez unib chiqadi. SHuning uchun dalalarni bu begona o'tdan yaxshilab tozalash uchun har bir sug'orishdan so'ng qator oralari o'z vaqtida ishlash kerak.

*Ituzum* – Solanum nigrum L. (3-rasm) ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga kiradi. Hamma joyda: bog'larda, paxtazorlarda va boshqa ekindar orasida uchraydi. O'simligi siyrak tukli. Poyasi burchaksimon, bo'yi 40 sm gacha yetadi. Ildiz bo'g'zidan shoxlaydi. Barglari oval. Guli mayda, oq, uzun bandchali. Mevasi qora rangli, sharsimon rezavor meva. Urug'i g'adir-budur, yassi qo'ng'ir rangli.

Ituzum ildiz sistemasini yaxshi rivojlangan o'simlik bo'lib, tuproqni juda kuchsizlantiradi va

bu bilan g'o'za va boshqa ekinlarga zarar yetkazadi. Iyun – iyulda gullaydi, avgustda hosil tugadi.

*Dag'alkanop* – Abutilon Avicennae L. gulxayridoshlar (Malvaceae) oilasiga kiradi. Paxta dalarida, sabzavot va boshqa ekinlar orasida kamroq uchraydi. Poyasining bo'yi 1,5 m gacha yetadi, yo'g'on, yumaloq, to'g'ri uchidan shoxlaydi. O'simligi kul rang tuk bilan qalin qoplangan. Barglari yumaloq, yirik, yuqori tomoni uchli qisqa bandli. Guli yakka, sariq, yirik. Mevasi tishchali kosachaga yig'ilgan bir necha ayrim mevachalardan iborat. Urug'i biroz g'adir-budur, mayda qo'ng'ir rangli. Iyun-iyulda gullaydi, iyul-sentyabrdada hosil tugadi.

*SHuvoq* - Artemisia annua L. murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Paxta dalarida va boshqa ekinlar orasida kam, lekin sug'orish tarmoqlari bo'ylab juda ko'p uchraydi. O'simligining bo'yi 1 m gacha yetadi. Poyasi shoxlaydigan bo'lib, egatchalari bor. Barglari ingichka mayda bo'lakchalarga bo'lingan. Urug'i tsilindrsimon, mayda. Iyul –sentyabrdada gullaydi, sentyabr-noyabrdada hosil tugadi.

*Bangidevona* – Datura stramonium ituzumdosolar (Solanaceae) oilasiga kiradi. Ko'pincha tashlandiq va bo'sh yotgan yerlarda ko'p va g'o'za hamda boshqa ekinlar orasida begona o't sifatida uchraydi. To'kilayotgan barglari paxtaga aralashib qolsa, tolaning sifatini pasaytiradi. Poyasi yakka, yo'g'on shoxlaydigan, bo'yi 1 m gacha yetadi. Barglari uzun bandli, yumoloq uchburchak, yirik, yuqori tomoni uchli bo'ladi. Guli yirik, voronka ko'rinishida, oq, yakka joylashgan. Mevasi yashil, tikanli yirik. Urug'i qora bo'lib, o'yiqlari bor. Bir tup o'simligi 20 mingdan ortiq urug' tigadi. O'simligi badbo'y hidli. U zaharli bo'lib, tarkibida zaharlanishiga sabab bo'ladigan alkoloidlar (atropin va daturin) bor. Iyun-iyulda gullab, iyul-sentyabrdada hosil tugadi.

*Tuyaqorin* – Heliotropium lasiocarpum F. et M. Govzabonguldoshlar (Boraginaceae) oilasiga kiradi. Asosan sug'orilmaydigan bo'z yerlarda, ba'zan boshqodoshlar va g'o'za ekinlari orasida ham uchraydi. yer o'zlashtirilgandan bir necha yildan keyin yo'qolib ketadi. Poyasi shoxlaydigan, bo'yi 30 sm gacha yetadi. O'simligi dag'al va qalin tuk bilan qoplangan. Barglari qisqa bandli, dag'al, oval shaklda, ikki tomondan kul rang tukchalar bilan qoplangan. Guli kam bo'lib, mayda, och sariq rangda bo'ladi. Mevasi yong'oq bo'lib, tukli va ovalsimon to'rtta yong'oqchadan iborat. Iyundan avgustgacha gullaydi, iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi. Tuyaqorinning urug'ida zaharli moddalar- alkoloidlar bor. Ular oziq bilan birga odam va hayvonlar organizmiga tushsa, jigar va butun organizmda og'ir kasallik keltirib chiqaradi.

*Qishlaydigan begona o'tlar* haqiqiy bahori begona o'tlardan kuzgilarga o'tuvchi zveno hisoblanadi. Bu biologik guruhg'a maysalari qishlay oladigan begona o'tlar kiradi. Bahorda maysalari tik o'sadi va ildiz bo'g'zi to'pbarglarini hosil qilmay, haqiqiy bahori begona o'tlar kabi shu yilning o'zida hosil beradi. Kuzda paydo bo'lgan maysalari to'pbarglar hosil qiladi va bular ham qishlay oladi. Bularga: yarutka, achambiti, bo'tako'z, boychechak, qurtena, randak va boshqalar kiradi.

Bulardan eng ko'p tarqalgalari ustida bat afsil to'xtalib o'tamiz.

*YArutka* – Thlaspi arvense L. krestguldoshlar (Cruciferae) oilasiga kiradi. U hamma joyda uchraydi. Kuzgi hamda bahori g'alla ekinlari va boshqalar orasida ham o'sadi. Poyasi oddiy yoki shoxlangan. Aprel, mayda, hatto undan kechroq gullaydi. Deyarli urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 900 dan 2000 tagacha urug' tugadi, ular tuproqda unuvchanligini kamida 10 yil saqlaydi. Ulardan ko'pchiligi ekinlar yig'ishtirib olunguncha pishadi va tuproq yuzasiga to'kiladi, bir qismi esa hosilga qo'shilib ketadi. YArutkaning pishib yetilmagan urug'lari ham yaxshi ko'karadi. Tuproq yuziga to'kilgan urug'lari yoppasiga qiyg'os unib chiqadi. Go'ngda ham urug'i ko'p bo'ladi.

*Jag'-jag' (achambiti)* – Capsella bursea pastoris Medue (5-rasm) krestguldoshlar (Cruciferae) oilasiga kiradi. Hamma yerda tarqalgan. Har xil yashash sharoitida moslashgan shakllari ko'p. Barcha ekinlar orasida o'sadi. Erta bahordan gullaydi. Faqat urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligida 2 mingdan 70 minggacha urug' hosil bo'ladi, ular tuproqda unuvchanligini 4-6 yilgacha saqlaydi. Maysalari 2-3 sm chuqurlikda paydo bo'ladi. yetilmagan urug'lari ham unib

chiqadi. Bir yilda 2-3 bo'g'in beradi.

*Kurtena* – *Sisymbrium sophia* L. (7-rasm) krestguldoshlar (Cruciferae) oilasiga kiradi. Tashlandiq va bo'sh yotgan yerdarda, yo'l bo'yalarida deyarli hamma joyda uchraydi, g'o'za ekinlari orasida kam bo'ladi. Poyasining bo'yi 80 sm gacha yetadi, tik o'sadi, o'rtasidan shoxlaydigan bo'lib, siyrak tuk bilan qoplangan. Barglari mayda, cho'ziq. Guli och sariq, mayda. Mevasi qo'zoq meva, ingichka, to'lqinsimon, g'adir-budur va bir oz egik. Urug'i oval shaklida, mayda, jigar rang, tuproqda yaxshi saqlanadi. Bitta o'simligi 110 mingdan ortiq urug' tugadi. Apreldan iyulgacha gullaydi, maydan avgustgacha hosil tugadi.

*Kuzgi begona o'tlar* bir yillik va ikki yillik o'simliklar o'rtasidagi oraliq zveno hisoblanadi. Maysalari kuzda paydo bo'lganda bu begona o'tlar o'z rivojlanishini oxirigacha, ya'ni gullaguncha va hosil berguncha yetkazishi mumkin.

Ular kuzgi past haroratda to'planish fazasida qishlaydi, kelgusi yil yozda esa gullaydi va hosil tugadi. Tuplanish fazasini o'tmagan o'simliklar, bahorda o'qildiz hosil qilmaydi va gullamaydi. Bular tipik kuzgi o'simliklardir. Bularga yovvoyi supurgi, yaltirbosh kiradi.

*Yovvoyi supurgi* – *Apera spica* Venti (L). R.V. boshoqdoshlar (Cramineae) oilasiga kiradi. U MDH ning yevropa qismida juda ko'p uchraydi. O'zbekistonda begona o't sifatida kam tarqalgan. Asosan kuzgi javdar ekinlari, ba'zan boshqa ekinlar orasida o'sadi. Poyasi tik o'sadi, asosidan tuplaydi, bo'yi 1 m gacha yetadi. Iyul-avgustda gullaydi va hosil tugadi. Urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 13-16 ming ta urug' tugadi. Namlik yetarli bo'lganda urug'i faqat tuproq yuzasidan unib chiqadi. Tuproqda urug'ning unuvchanligi 7 yilgacha saqlanadi. YOvvoyi supurgi juda zararli begona o't, ammo uni yo'qotish oson.

*Yaltirbosh* – *Bromus secalinus* L. (5-rasm) boshoqdoshlar (Cramineae) oilasiga kiradi. MDH ning yevropa qismida yovvoyi supurgi kabi g'alla (javdar va bug'doy) ekinlari orasida uchraydi. YOvvoyi holda o'sadigan turli noma'lum bo'lgan tipik begona o't, faqat urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 800-1500 ta urug' tugadi, bu urug'lar unuvchanligini 2-3 yil saqlaydi. Urug'lar pishgandan keyin 6-9 kun o'tgach unib chiqqa oladi. CHala pishgan urug'i ham unib chiqadi. Ular 2-3 sm chuqurlikdan yaxshi unib chiqadi. YAltirbosh javdar orasida o'sadigan tipik begona o't. Ro'vak chiqarguncha uni kuzgi javdardan ajratish qiyin. Poyasining bo'yi va urug'ining yirik-maydaligi javdarniki bilan bir xil. Agar javdar hosiliga yaltirbosh urug'i aralashib qolsa, uning sifati pasayadi, u qorayib, ta'mi buziladi.



**7-rasm. Kam yillik begona o'tlar.**  
a-qoramiq(*Linaria Mill*), b-qurtana(*Sisymbrium L.*).

### **Ikki yillik begona o'tlar**

Ikki yillik begona o'tlar rivojlanishi uchun ikki yil talab etadi. Agar ikki yillik begona o'tlarning urug'i kuzda unib chiqsa, ular ikki yil qishlaydi. Ba'zi bir ikki yillik begona o'tlar hosil bergandan keyin o'suv davrining ikkinchi yili oxirida nobud bo'lmaydi va uchinchi yili ham o'sadi. Bunday holda ikki yillik begona o'tlar ko'p yilliklarga yaqinlashadi. Begona o'tlarning bu biologik tipiga kamroq tur kiradi. Ikki yillik begona o'tlarga qashqarbeda, sariq va oq qashqarbeda, mingdevona, tuyaqyruq, sigirquyruq, qizilburun va boshqalar kiradi.

*Sariq qashqarbeda* – Melilotus officinalis adans dukkakdoshlar (Leguminosae) oilasiga kiradi. MDH ning butun yevropa va Osiyo qismida tarqalgan. Markaziy Osiyo davlatlarida bog'larda, ariqlar bo'yida o'sadi. yevropa qismida esa boshqodoshlar orasida, shudgorlarda va tashlandiq yerlarda o'sadi. qashqarbeda birinchi darajada oz sho'rangan (1 m tuproq qatlamidagi quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,01-0,4 % xlor bo'lgan) yerlarda uchraydi. Poyasi to'g'ri, bo'yi 30-100 sm va undanda ortiq. Iyundan kuzgacha gullaydi. Urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 17 mingtagacha urug' tugadi, ular tuproqda unuvchanligini 20 yildan ortiq saqlaydi. Urug'i yetarli darajada nam bo'lishiga talabchan, qiyinchilik bilan unadi. qashqarbeda boshqa ikki yillik o'simliklardan farq qilib, birinchi yili to'pbarg emas, balki gullamaydigan poya hosil qiladi. qishda bu poyasi nobud bo'ladi, qishlash uchun faqat ildizi va ildiz bo'g'zidagi kurtaklari qoladi. Kelgusi yili bahorda ildiz bo'g'zi kurtaklari qoladi. Kelgusi yil bahorda ildiz bo'g'zi kurtaklari o'sa boshlaydi va poya chiqaradi, ular gullaydi va hosil tugadi. Hosil bergandan keyin kuzga borib, o'simligi bo'tunlay nobud bo'ladi. Ikkinci yili qashqarbeda baquvvat rivojlangan pojalar bilan ekinlarni qattiq siqib qo'yadi va hosilni yig'ishtirib olishga xalaqit beradi. YOvvoyi qashqarbeda mollarga berishga yaramaydi, chunki tarkibida hayvonlar hayoti uchun xavfli bo'lgan kumarin moddasi bor. qashqarbedaning tarkibida kumarin bo'limgan navlari chiqarilgan.

*Tuyaquyruq* - Carduus nutans L. murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda, asosan, Turkmanistonda, ayniqsa paxta dalalari va boshqa ekinlar dalasida ko'p uchraydi. O'zbekistonda aprel-mayda gullab, hosil tugadi.

Tuyaquyruq - ikki yillik tipik begona o't. Asosan, urug'dan ko'payadi, urug'ida uchmalar bo'ladi, shuning uchun ular shamolda oson tarqaladi. Bitta o'simligi 4 mingtagacha urug' tugadi. Urug' kelgusi yil 4 sm gacha bo'lgan chuqurlikdan unib chiqadi.

### **Topshiriqlar.**

Begona o'tlarni gerbariy, stend, plakatlar yordamida biologik guruhlarga ajratish va ularni tavsifini berish.

**Zarur jihozlar :** Gerbariyalar, таркатма материаллар, plakatlar

### **Nazorat savollari.**

- 1.Begona o'tlar deb nimaga aytildi?
2. Begona o'tlarning dehqonchilikka keltiradigan zararlari qanday?
3. Begona o'tlar biologik xususiyatlari ko'ra qanday klassifikatsiyalanadi?
4. Parazit (tekinxo'r) va noparazit begona o'tlarni bir-biridan farqi va biologik xususiyatlari to'g'risida tushunchangiz?
5. ir yillik va ikki yillik begona o'tlar, ularning guruhlari?

### **11- mashg'ulot. Ko'p yillik begona o'tlarning ta'rifi**

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Ko'p yillik begona o'tlar, ularning biologik guruhlari hamda vakillari bilan tanishtirish va ularning biologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Bu begona o'tlar biologik belgilariga qarab bir yillik va ikki yillik begona o'tlardan farq qiladi. Hayoti davomida ular bir necha marta hosil tugadi. Bu biologik tipning ko'pgina vakillari asosan vegatativ (ildizpoya va ildiz bo'laklaridan) va generativ yo'l bilan (urug'dan) ko'payadi.

qishga borib, ko'p yillik begona o'tlarning poyasi nobud bo'ladi. Kelgusi yili tuproqda qolgan ildiz va ildizpoyalardan yangi poya o'sib chiqadi va rivojlanadi. yer osti organlarining tuzilishiga ko'ra: popuk ildizli, shingil ildizli, o'qildizli, ildizpoyali, ildizbakchili va piyozli begona o'tlar farq qilinadi. Bundan tashqari, yer usti organlarining tuzilishiga qarab sudralib o'suvchi begona o'tlar ham farq qilinadi.

*Popuk ildizli* begona o'tlarning asosiy o'qildizi mutlaqo bo'lmaydi. yer usti poyasi ko'paya borib, chim hosil qiladi. Bularga shuchka misol bo'ladi.

*SHuchka* – Deschampsia caespitosa (L.) P. B., boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Asosan MDH ning yevropa qismida tarqalgan. O'rta Osiyoda va Kavkazda tog'larda uchraydi. O'tloqlarda, yaylovlarda, o'rmon yoqalarida o'sadi, ko'pmncha ko'p yillik xashaki o'tlar orasida uchraydi. Eng zararli begona o't hisoblanadi, chunki do'ngliklar hosil qilib, ekinlarni parvarish qilishni hosilni yig'ishtirib olishni qiyinlashtiradi va pichanning sifatini pasaytiradi. Poyasi bog' bo'lib yig'ilgan, tik, bo'yi 30-100 sm. barglari yassi, ensiz lenta simon, g'adir-budur tomirli. Urug'dan va vegetativ yo'l bilan ko'payadi. Bitta o'simligi 500 dan 3000 tagacha urug' tugadi, ular nam yetarli bo'lganda tuproq yuzasidan va 0,5 sm chuqurlikdan ham o'sib chiqadi.

*Shingil ildizli* begona o'tlarning juda qisqargan asosiy o'qildizi bo'ladi, bulardan shingil shaklida qo'shimcha ildizlar chiqadi. Bu guruhga, masalan, zupturum va bargizub kiradi.

*Zubturum* – Plantago major L. zupturumdoshlari (Plantaginaceae) oilasiga kiradi. Hamma joyda uchraydi. Dalalar, polizlarda, yo'llar, ariqlar bo'yida, bog'larda va hakozalarda uchraydi. Barglari keng tuxumsimon bo'lib, ildiz bo'g'zidan chiqadi. Asosan urug'dan ko'payadi. Maydan noyabrgacha hosil tugadi. Bitta o'simligi 8-60 mingta urug' tugadi, bular tuproqda unuvchanligini kamida 7 yil saqlaydi. Urug'i ko'pi bilan 2-3 sm chuqurlikdan tez unib chiqadi. Go'ngda ham unuvchan urug'lar uchraydi.

*O'qildizlilar*. Bu biologik guruhchaga bitta asosiy o'qildizi bo'lgan juda ko'p mayda yon ildizlar chiqaradigan begona o'tlar kiradi. Ular asosan urug'dan ko'payadi, lekin vegetativ yo'l bilan ham ko'payishi mumkin. Bularga erman, qoqio't, izen, sho'ra, maydabarg, otquloq kiradi.

*Qoqio't* – Taraxacum vulgare (Lam.) murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Hamma yerda tarqalgan. Bog'larda, polizlarda, tashlandiq yerlar atrofida juda ko'p o'sadi. Kauchukli o'simlik – ko'ksag'iz ekin orasida o'sadigan eng zararli begona o't hisoblanadi. Poyasining ichi bo'sh, bargsiz, bo'yi 15-360 sm. ildiz bo'g'zidan chiqqan barglari patsimon qirqilgan shaklda. To'pguli oltin rang-sariq gulli savatcha. Apreldan sentyabrgacha gullaydi. Urug'dan va qisman ildiz bakchilaridan ko'payadi. Urug'ida dumchalar bo'lib, shular yordamida shamol bilan tarqaladi. Bitta o'simligi 250 – 700 ta urug' tugadi. Urug'i pishishi bilan tezda unib chiqadi. Urug'ini 0,5-1 sm ko'milsa bas. Pishib yetilmagan urug'lari ham unib chiqadi. Birinchi yili o'simlik faqat to'pbarg va o'qildiz, ikkinchi yili esa gullovchi poya chiqaradi.

*Izen* – Kochia prostrata L. sho'rodoshlar (Chenopodiaceae) lilasiga kiradi. 3 ball sho'rangan (1 m qatlamdagi quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,1-0,2 % xlor bo'lgan) yerdarda keng tarqalgan. qurg'oqchilikka chidamli. G'o'za ekinlari orasida kam uchraydi. SHo'rxoq yerdarsi o'zlashtirishda agrotexnikaviy tadbirlarning sifatiga va o'z vaqtida o'tkazilishiga qarab, birinchi uch yil ichida yo'qolib ketadi. Izen kalta tukchalar bilan qoplangan, bandsiz, ingichka barglari to'p-to'p bo'lib joylashgan tipik yarim bo'ta. Mevasi yarim doira shaklda, parda qanotchali. Maydan iyulgacha gullaydi, iyundan oktyabrgacha hosil tugadi.

*SHo'rak* – Salsola verrucosa M. B. SHo'rakdoshlar (Chenopodiaceae) oilasiga kiradi. 5 ball sho'rangan (1 m qatlama quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,3-0,4 % xlor bo'lgan) sho'rxoq tuproqlshi yerdarda ko'p uchraydi. G'o'za ekini orasida kam uchraydi. U yerni chuqur haydash bilan tez yo'qotiladi. SHo'rak bo'yi 50 sm gacha bo'lган bo'ta, kul rang tukchalar bilan qoplangan, o'rtasidan shoxlangan bir necha poyasi bor. Bandsiz uchki barglari seret, ensiz, bir oz tukli va to'mtoq bo'ladi. Guli sarg'ish-yashil, mayda, g'uj bo'lib to'plangan. Mevasi sariq qanotchali, yarim doira shaklda. Iyun-sentyabrda gullaydi, iyul-oktyabrda hosil tunadi.

*Ildizpoyalilar*. Bu guruhchaga kiradigan begona o'tlar ildizpoyasidan, ya'ni shakli

o'zgargan sudralib o'sadigan yer usti poyastdan ko'payadi, bular tuproqqa har xil yo'nalihsda chuqr kirib boradi. Bunday ko'payish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ular juda o'sib ketib, ekinlarni siqib qo'yadi. Bu guruhga kiradigan begona o'tlarning ildizpoyasi xilma-xil shaklda, uzun-qisqa va turli yo'nalihsda: tsilindrsimon, ingichka chizimchasimon va yirik tugunaksimon bo'ladi. Bularda zapas oziq moddalar bor. Ildizpoyalarning uchida va yonlarida ko'p kurtaklar bo'lib, ulardan novda rivojlanadi.

Ildizpoyaning bitta yoki bir nechta kurtagi bo'lgan biror bo'lagidan yangi o'simlik rivojlana oladi. Ildizpoyadan ko'payish vegetativ ko'payish deb ataladi. Ildizpoyali begona o'tlarning tez ko'payish va ularning urug'dan hamda ildizpoyadan o'sish xususiyati ularga qarshi kurashni ancha qiyinlashtiradi. Sug'oriladigan yerlarda, asosan, boshoqdoshlar va hiloldoshlar oilalariga mansub ildizpoyali o'simliklar uchraydi.

O'zbekistonda ildizpoyali begona o'tlardan g'umay, salomalaykum, ajriq, qamish, bug'doyiq, qizilqiyq va ro'vak katta zarar keltiradi. G'umay, salomalaykum, ajriq, karantin begona o'tlar jumlasiga kiradi.

*G'umay* – Sorghum halepence (L. Brot.) (10-rasm) boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. O'rta Osiyoda, Kavkaz va qrimda uchraydi. Hamma ekinlar orasida o'sadi.

O'rta Osiyoda g'umay g'o'za orasida o'sadigan eng zararli begona o't hisoblanadi. Mayiyunda gullaydi, iyul-oktyabrda hosil tugadi. Poyasining bo'yi 1,5 m gacha yetadi, past tomonidan shoxlaydi. G'umay urug'dan va ayniqsa ildizpoyasidan ko'payadi. Bitta o'simligi 2-3 mingta urug' tugadi, bular tuproqda uzoq vaqt saqlanadi. Urug'ning tinim davri 7 oygacha davom etadi. Urug'dan o'sib chiqqan g'umay, gullash oldidan ildizpoya chiqaradi. Bu vaqtida uni kultivatsiya yoki o'toq qilish bilan yo'qotish kerak. Bir tup o'simligida 1-80 tagacha ildizpoya va 800 gacha bo'g'im hosil bo'lishi mumkin. Tuproqda ildizpoyalar ko'p bo'lishi unga ishlov berishni qiyinlashtiradi. G'o'za va boshqa ekinlarni juda siqib qo'yadi. Kosobutskiy ma'lumotlariga ko'ra, juda ifloslangan dalalarda g'umay ildizpoyasida bachki chiqaradigan 500 mingtagacha kurtak bo'lishi mumkin. 1,5 m dagi uzunlikdagi ildizpoya tuproqda 80 sm gacha chuqurlikda, asosiy qismi (90-95 %) 20 sm chuqurlikda joylashadi. G'umayning baland poyasi ekinlarni juda soyalab qo'yadi, bu esa hosilni anchagina kamaytirib yuboradi, g'o'zada esa mahsulot sifatini yomonlashtirib qo'yadi. Paxtaning pishishini kechiktiradi, sovuq tushguncha teriladigan yuqori sifatli paxta foizini kamaytirib yuboradi. Soyalanib qolishi natijasida g'o'za tuplarining qalinligi o'zgarib ketadi.

G'umay tashqi belgilari ko'ra, sudano'tga o'xshaydi va uning eng zararli begona o'ti hisoblanadi. Lekin baquvvat rivojlangan ildizpoyasi va yirik boshoqchalari bilan undan farq qiladi. YOsh novdalari, ba'zan mollarni zaharlaydi, bu hol ko'pincha qurg'oqchilik yillari kuzatiladi. CHunki bu davrda poyalari o'sishdan to'xtab, so'lib qoladi va tarkibida zaharli sinil kislota to'planadi.

*Ajriq* - Cynodon dactylon (L.) Pers. (10-rasm) boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyo davlatlarida, Kavkazda va MDH ning yevropa qismining janubiy tumanlarida tarqalgan. O'zbekistonda barcha ekinlar, ayniqsa, g'o'za orasida nihoyatda ko'p o'sadi. 1 ball sho'rangan (1 m qavatdagi quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,01-0,04 % xlor bo'lgan) – oz sho'rangan tuproqlarda uchraydi. Ildizpoyasi sho'rланib o'sadigan ingichka ko'kish chiziqli – lentasimon bargli, panjasimon to'pgulli o'simlik. Poyasi bo'g'imli, ko'p bargli, shoxlangan, bo'yi 30-50 sm gacha bo'ladi. O'zbekistonda maydan-iyungacha gullaydi, iyun-sentyabrda hosil tugadi. Urug'i kamdan-kam unib chiqadi. Ajriq, asosan, ildizpoyasidan ko'payadi, bular ishlov beriladigan yerlarda 22 sm chuqurlikkacha tarqaladi va yerga ishlov berishni juda qiyinlashtirib yuboradi. Ajriqdan qumliklarni mustahkamlash uchun foydalaniladi.

*Salomalaykum* – Cyperus rotundus L. (9-rasm) qiyoqdoshlar (Cyperaceae) oilasiga kiradi. Uning 400 ga yaqin turi bor. Asosan O'rta Osiyoda, Zakavkazeda, kamdan-kam SHimoliy Kavkazda uchraydi. Nam yerlarda yaxshi o'sadi. Barcha ekinlar, ayniqsa, sholi va g'o'za rivojlanishining dastlabki davrlarida, sabzavot-poliz va boshqa ekinlarning eng zararli begona o'ti hisoblanadi. Bu begona o'tdan qutilish uchun yerlarni quritish va agrotexnikaviy tadbirlarni

amalga oshirish kerak.

Poyasi to'g'ri, uch qirrali, ingichka, silliq, bo'yи 15-20 sm. O'zbekiston sharoitida iyun-avgustda gullaydi. Urug'dan qanday ko'paysa, poyasidan ham shunday ko'payadi. Ildizpoyasi yer yuzasiga qancha yaqin joylashsa, bachkilar shuncha ko'p chiqadi. Ko'milish chuqurligiga qarab, bitta tugunak turli sonda: 1-5 sm da 4 ta bachki, 10-15 sm da 2 ta bachki, 20-30 sm da 1 ta bachki hosil qiladi. Solamalaykum urug'i, odatda, bahorda juda sekin, bir necha yil davomida unib chiqadi.

*Qamish* – Phragmites communis Trin. (8-rasm) boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. qamish botqoq tuproqli va sizot suvlari yuza joylashgan dalalarda tarqalgan. Sizot suvlar qancha yuza bo'lsa, qamish shuncha ko'p bo'ladi. Ildizpoyasining tarqalish chuqurligi sizot suvlarning chuqurligiga bog'liq. Botqoqlashgan tuproqlarda va sizot suvlar yuza joylashgan yerdarda gorizontal ildizpoyasi 0,5-1 m chuqurlikda joylashadi. Sizot suvlar 4-5 m gacha chuqurlikda jylashgan dalalarda 2-3 m gacha va undan chuqurda rivojlanadi. Asosan, g'o'za va beda ekinlari orasida o'sadi. YAshil rangli, poyasi tik, ichi kovak bo'lib, bo'yи 4 m gacha yetadi. Barglari lentasimon, uzun, uchli. Poyasining uchilan egilgan ro'vak hosil bo'ladi. Urug'i mayda, uzun mayin tuk bilan qoplangan, uchli va cho'ziq. Bitta to'pgulida 100 mingtagacha urug' tugadi. May-iyulda gullaydi, iyul-sentyaborda hosil tugadi. qamish, asosan, vegetativ va qisman generativ yo'l bilan ko'payadi. qamish ildiz sistemasining baquvvat rivojlanganligi, poyasining tez o'sib ketishi unga qarshi qattiq kurash olib borishni talab etadi.

*Ildiz bachkililar*. Bu biologik guruhga o'qildizdan tashqari, tuproqqa 6 m gacha chuqur kirib bordigan, yer yuzasiga yaqin joylashgan ko'pgina yon ildizlari bo'lganbegona o'tlar kiradi. YOn shoxlarida va asosiy ildizida kurtaklar ko'p bo'ladi, bu kurtaklardan yangi o'simlik o'sib chiqadi.

Ildiz bachkili ko'p yillik begona o'tlarga qarshi kurashning qiyinchiligi shundaki, yerni har xil qurollar bilan ishlaganda kesish joyida turli chuqurlikda (ko'pincha 23 sm chuqurlikkacha) 5-10 tanacha va undan ortiqyangi novdalar hosil bo'ladi. yer yuza haydalga novdalar ko'p va chuqur haydaganda oz hosil bo'ladi. 22-23 sm va undan chuqur haydalga o'sish kuzatilmaydi. Bunday begona o'tlarga qarshi kurashda ularning biologik xususiyatini hisobga olish kerak.

Kesilgan joyidan ko'p novdalar hosil qiluvchi begona o'tlarga: qo'yechak, qizilmiya, oqmiya, yantoq kiradi. Begona o'tlarning bu guruhchasi tuproqni juda ifloslantiradi. O'zbekistonda g'o'za va boshqa ekinlar orasida bu guruhga kiradigan 26 turga yaqin begona o't o'sishi aniqlangan. SHulardan 16 tasi ko'p uchraydi. Asosiyalar: kakra, bo'ztikan, qo'yechak, qizilmiya, yantoq, achchiqmiya, oqbosh, takasoqol, kurmak va boshqalardir.

*Achchiqmiya* – Sophora pachycarpa C.A.M. dukkakdoshlar (Leguminosae) oilasiga kiradi. O'zbekistonda hamma joyda uchraydi. Bahorikor yerdagi g'alla ekinlari orasida o'sadi. Tuproqning namlanishi va sho'rланishiga chidamaydi. Poyasi shoxlangan, tik o'sadi, bo'yи 1 m gacha yetadi. Uzun shingillardagi sariq-oq rangli gullar poyasining uchida joylashadi. Urug'i yirik, silliq, bir oz yaltiroq, to'q jigar rang va yon tomonidan siqilgan. Achchiqmiyaning ildizi tuproqqa chuqur kirib boradi. Aprel-iyunda gullaydi, urug'i bug'doy, arpaga aralashib ketsa, ajratish qiyin bo'ladi. Achchiqmiya urug'lari juda zaharli bo'ladi. 0,5 % danortiq urug' aralashgan un hayot uchun xavfli. Achchiqmiya karantin begona o't hisoblanadi.

*Oqmiya* – Sophora alopecuroides L. dukkakdoshlar (Leguminosae) oilasiga kiradi. Sug'oriladigan tumanlarda o'sishi bilan achchiqmiyadan farq qiladi. O'rta Osiyo respublikalaridan ko'pincha, O'zbekistonda – parklarda, bog'larda, partov yerdarda, uvatlarda, ariqlar bo'yida va yo'l yoqalarida uchraydi. Sug'oriladigan va bahorikor ekinlar orasida o'sadi. Sizot suvlar yer yuzasiga yaqin joylashgan, kuchli sho'rangan yerdarda uchraydi. Poyasi tik o'sadi, shoxlanmagan. Sariq-oqish rangli gullardan tashkil topgan tig'iz to'pguli o'simlikning uchki qismida joylashgan. Urug'dan va ko'pincha ildizpoyasidan ko'payadi. Urug'i zaharli, undan zaharlanish mumkin. Karantin begona o'tlarga kiradi. Aprel-iyulda gullaydi.

*Kakra* – Acropiton picris C. A. M. (11-rasm) murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga

kiradi. O'rta Osiyoda, qrimda, Kavkazda, MDH ning yevropa qismining janubiy tumanlarida tarqalgan. Sug'oriladigan va sug'orilmaydigan barcha tumanlarda uchraydi, g'o'za g'alla, bog', sabzavot ekinlari va boshqalar orasida o'sadi. Poyasi tik, shoxlangan, barglari bilan qalin qoplangan, bo'yi 60 sm ga yetadi. O'zbekiston sharotida iyun-sentyabrda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi. Urug'dan va ildiz bakchilaridan ko'payadi. Kakraning asosiy o'qildizi tuproqqa 5-6 sm o'sib kirib, sizot suvlargacha yetadi va yon ildizlar chiqaradi.


Kakra zichlashgan tuproqlarda ham o'saveradi. qurg'oqchilikka chidamli va zaharli. Unga qarshi kurashdagi qiyinchilik shundaki, u haydalma qatlamdan pastda joylashgan ildizlardan ham, haydalma qatlamdagagi ildiz bakchilaridan ham o'sa beradi. u 5% pichanga aralashsa, hayvonlar hayoti uchun xavfli bo'ladi.

*Bo'ztikan* – *Sonchus arvensis* L. murakkabguldoshlar (Cjmpositae) oilasiga kiradi. Hamma joyda uchraydi. g'o'za va boshqa ekinlar orasida o'sadi. Tuproqning yaxshi namlanishiga talabchan. Poyasining bo'yi 80-120 sm. O'qildizi, odatda, 50 sm dan ortiq chuqurlikka kirmaydi, ko'pincha 20-30 sm gacha yetadi. Undan 1 m ga yetib ortadigan uzun gorizontal ildizlar chiqadi, ular ko'pi bilan 10-12 sm chuqurlikda joylashadi. Asosiy va yon ildizlarining yangi bakchi chiqaradigan kurtagi bo'ladi. Ildizida sut shirasi bo'ladi. U juda mo'rt, bo'lakchalari osonlik bilan o'sib chiqadi. O'zbekistonda iyun-avgustda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi. Bo'ztikan urug'dan va ildiz bachkisidan ko'payadi. Bir tup o'simligi 6-19 mingta urug' tugadi. Urug'ida uchmalar bor. SHular tufayli urug'i shamolda uzoq joylarga tarqaladi. Urug'i 0,5-1 sm chuqurlikdan qiyg'os unib chiqadi.

*Qo'yechak* – *Convolvulus arvensis* L. (11-rasm) pechakguldoshlar (Convolvulaceae) oilasiga kiradi. CHEkka shimoldan tashqari, hamma yerda uchraydi. Sug'oriladigan va bahorikor yerlarda o'sadi. Barcha ekinlar, ayniqsa, g'o'za, beda, g'alla ekinlari orasida o'sadi. Pochsi ingichka, chirmashib o'sadi, uzunligi 30-100 sm. Guli yirik, oq pushti rangda. O'zbekistonda may-avgustda gullaydi. Iyun-oktyabrda hosil tugadi. Urug'dan va vegetativ yo'l bilan ko'payadi. Bitta o'simligi 600 tagacha urug' tugishi mumkin. Urug'ining po'sti qattiq bo'lganidan bir tekis unib chiqmaydi. Ildiz sistemasi baquvvat rivojlangan; ildizi tuproqqa chuqur kiradi va yon shoxlar chiqaradi. Katta yoshida o'qildizi 2 m va undan ham chuqurga kiradi. Gorizontal ildizlari haydalmagan va haydalgan qatlamlarda joylashadi. Ildizining kesilgan qismidan yangi bachkilari o'sib chiqadi.



**8-rasm. Ko'p yillik begona o'tlar.**  
a-yantoq(*Alhagi Adans*), b-qamish(*Ph. Communis Trin*).



**9-rasm. Ko'p yillik begona o'tlar.**  
a-qirqbo'g'im(*Equisetum L.*), b-salomalaykum(*Cyperus L.*).



10-rasm. Ko'p yillik begona o'tlar.  
ajriq(*C.dactylon* L.Pers).



**11-rasm. Ko'p yillik begona o'tlar.**  
a-kakra(*Acroptilon cass*), b-qo'yechak (*arvensis L.*).

Qo'yechak o'simliklarni chirmab olib, ularni yotqizib qo'yadi, paxtani mashinada terishni, g'allani kombaynda o'rib olishni qiyinlashtirib, ular ish organlarining sinishiga sabab bo'ladi. qo'yechak qishloq xo'jalik zararkunandalarini tarqatuvchi begona o'tdir.

*Qizilmiya* – Glycyrrhiza glauca W.K. dukkakdoshlar (Laguminosae) oilasiga kiradi. Sizot suvlar yuza joylashgan yerlarda ayniqsa yaxshi rivojlanadi. Sug'oriladigan barcha ekinlar orasida o'sadi. qizilmiya g'o'za orasida ko'p bo'ladi, uning eng ashaddiy begona o'ti hisoblanadi. Taqirlarda, to'qaylarda, ariqlar, daryolar bo'yida uchraydi. Poyasi to'g'ri, shoxlangan, bo'yi 75 sm gacha yetadi. Barglari qisqa bandli ko'pgina bargchalardan iborat bo'lgan murakab barg, orqa tomoni qattiq tukchalar bilan qoplangan. Guli binafsha rang bo'lib, shoxchalar uchida shingillarga to'plangan. Mevasi egilgan, katta g'uddali, qizilqo'ng'ir rangli dukkak. Urug'i kul rang yashil, deyarli sharsimon.

qizilmiya, asosan ildiz bachkisidan va urug'dan ko'payadi. O'qildizi tuproqqa 5 m gacha kirib boradi. Undan 20-30 sm chuqurlikda 3 m nacha uzunlikdagi gorizontal ildizlar tarqaladi. YOsh o'simliklarda gorizontal ildizlar yana ham yuza joylashgan. Bu yon ildizlardagi kurtaklardan yangi bachki novdalar o'sib chiqadi. Bahorda qizilmiyaning yangi novdalari tuproq yuzasiga yaqin joylashgan qishki kurtaklardan rivojlanadi. May-iyulda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi.

*YAntoq* - Alhagi comelorum Fisch. (8-rasm) dukkakdoshlar (Laguminosae) oilasiga kiradi. O'zlashtilmagan yerlarda, uvtatlarda, yo'llar yoqasida, ariqlar bo'yida o'sadi. O'rta Osiyoning ko'pgina tumanlarida g'o'za va boshqa ekinlar orasida o'sadigan ashaddiy begona o't. O'simligi tuplanadi, tikani, poyasi shoxlangan bo'ladi, bo'yi 80 sm gacha yetadi. Barglari mayda, yumaloq yoki ovalsimon, uchli. Guli mayda, pushti binafsha rangda. Mevasi to'q jigar rang. Urug'i qo'ng'ir rangda, yassi, buyraksimon shaklda. Iyun-avgustda gullaydi, iyul-avgustda hosil tugadi.

YAntoq qurg'oqchilikka juda chidamli o'simlik. U deyarli ildiz bakchisidanva urug'dan ko'payadi. Bachkilar yon ildizlarida joylashgan kurntaklardan hosil bo'ladi.

*Takasogol*- Dodartia orientalis L. sigirquyruqdoshlar (Schrophulariaceae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda va MDH ning boshqa tumanlarida tarqalgan. Paxta dalalarida juda ko'p o'sadi. Begona o't sifatida bug'doy orasida ham uchraydi. Tashlandiq va bo'sh yotgan yerlarda o'sadi. O'simligi silliq, oqish-yashil rangda, bir nechta shoxlangan poyasi bor, bo'yi 40 sm gacha yetadi. Ildizi juda chuqurga tarqaladi. Barglari bandsiz, cho'ziq, yo'g'onroq, yuqoriga tomon maydalashib boradi, uchida barg umuman bo'lmaydi. Guli binafsha rangda bo'lib, qisqa yo'g'on bandli. Mevasi – oval shakldagi ko'sakcha. Urug'i mayda, g'adir-budur, noto'g'ri shaklli qo'ng'ir rangda. May-iyulda gullaydi, iyun-oktyabrda hosil tugadi.

*Oqbosh* – Karelinia caspica Lees. Murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda 2 ball sho'rangan (1 m qatlama quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,04-0,1 % xlор bo'lgan) yerlarda keng tarqalgan. SHo'rxoq yerlar o'zlashtirilgandan keyin g'o'za orasida ko'p o'sadi.

Oqboshning baquvvat rivojlangan ildiz sistemasi juda ko'p bachki paydo bo'lishiga imkon beradi. Tuproqning sho'ri yo'qotilgandan keyin begona o't rivojlanishda davom etadi, lekin sekin-asta kamayib borib, butunlay yo'qolib ketadi. Oqboshning ildizi imkonli boricha chuqur kesilsa, u batomom yo'qoladi. Bo'yi 1 m gacha bo'lgan o'simliklarning poyasi sershox bo'ladi. Barglari bandsiz, g'adir-budur, seret, yumaloq yoki o'tkir uchli shaklda. Guli binafsha rangda, mayda, savatchaga yig'ilgan; pishish davrida savatchalarda juda ko'p uzun tolalar hosil bo'ladi. Urug'i qo'ng'ir rangli, mayda va yaltiroq. May-avgustda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi.

*Kurmak* – Statice otolensis Schrenk (6-rasm), kermakdoshlar (Plumbaginaceae) oilasiga kiradi. 3 ball sho'rangan (1 m qatlama quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,1-0,2 % xlор bo'lgan) tuproqli yerlarda ko'p miqdorda uchraydi. Agar dalaning melioratsiya holati yomon bo'lsa, g'o'za xlordan zararlanadi. YAxshi yuvilgan tuproqlarda kermak uchramaydi. Bo'yi 50 sm gacha bo'ladi, kuchli rivojlangan yumaloq poyasining rangi ko'kish, g'adir-budur, o'rtasidan shoxlagan, juda mayda bargchali va chiroyli sirensimon gullidir. To'pguli – rovak. Urug'i kul rang qo'ng'ir, mayda ovalsimon. May-avgustda gullaydi, iyun-sentyabrda hosil tugadi.

**Piyozboshlilar.** Bu begona o'tlarning yer osti poyasi piyozbosh bilan tugaydi. Vegetativ yo'l bilan yaxshi ko'payadi, buni, masalan, yovvoyi piyoz, sarimsoqda ko'rish mumkin.



**12-rasm. Ko'p yillik begona o'tlar.**  
a-yovvoyi piyoz (*Allium rotundum* L.), b-zubturum(*P. major* L.).

*Yovvoyi piyoz* – *Allium rotundum* L. (12-rasm) Piyozguldoshlar (Liliaceae) oilasiga kiradi. O'rta Osiyoda, qrimda va MDHning yevropa qismida tarqalgan. O'zbekistonda asosan, bog'larda, tokzorlarda va qisman ekinlar orasida uchraydi. Begona o't sifatida alohida ahamiyatga ega emas, oson yo'qoladi. Piyozbosh va urug'dan ko'payadi. Poyasi oddiy, yarmigacha barg bilan qoplangan, bo'yи 30-60 sm, O'zbekistonda may-iyunda gullaydi. Sudralib o'suvchilar. Bularning poyasi yer ustiga yoyilib o'sadi, ildiz bo'g'imidan rivojlanadi, bunda palak va gajaklar hosil qiladi. Masalan, ayiqtovan ana shunday.

*Ayiqtovon* – (*Ranunculus repens L.*) ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oиласига киради. Нам yerlarda yaxshi o'sadi. O'tloqlarda, dalalarda, tomorqalarda, pastqam joylarda, ariqlar bo'yida, suv havzalari qirg'oqlarida, sholikorlikda uchraydi. Urug'dan va ildiz otadigan poyasidan ko'payadi. Ayiqtovon hayvonlar uchun zaharli.

### **Topshiriqlar.**

Begona o'tlarni gerbariy, stend, plakatlar yordamida biologik guruhlarga ajratish va ularni tavsifini berish.

**Zarur jihozlar :** Gerbariyalar, таркатма материаллар, plakatlar

### **Nazorat savollari.**

1. Ko'p yillik begona o'tlar deb nimaga aytildi?
2. Ko'p yillik begona o'tlarning biologik xususiyatlariga ko'ra guruhlari?
3. Popuk ildizli, shingil ildizli, o'qildizli, ildizpoyali, ildizbachkili va piyozi begona o'tlar to'g'risida tushunchangiz?
4. Ko'p yillik begona o'tlarning kam yillik begona o'tlardan farqi va asosiy biologik xususiyatlari?

**12- mashg'ulot:** Бегона ўтларни ҳисобга олиш усулларини ўрганиш.

**Мақсад:** Далани бегона ўт билан ифлосланиш даражасини ўрганиш усуллари билан танишиш.

**Зарур асбоб-анжомлар;** А.И. Мальцевнинг тўрт балли шкаласи, 0,25 м<sup>2</sup> ром

**Машгулут жойи:** Дала

Бегона ўтлар биологик хоссаси ва заарар етказиш даражасига қараб бир-биридан жуда фарқ қиласди. Уларга қарши муваффақиятли кураш олиб бориш учун экинлар орасида қай даражада (кўп ёки оз) ўсганлигини ҳисобга олиш зарур.

Бегона ўт босганлик даражаси икки босқичда аниқланади. Даставвал мазкур участкадаги бегона ўтларнинг тури, сўнгри эса миқдорий таркиби аниқланади. Бегона ўтлар мавжудлиги икки усуlda: чамалаб ва аниқ белгиланади.

### **БЕГОНА ЎТ БОСГАНЛИКНИ ЧАМАЛАШ УСУЛИ БИЛАН ҲИСОБГА ОЛИШ УСУЛИ**

Бегона ўтлар сонини ҳисобга олиш жуда осон ва қулай, бунинг учун А.И. Мальцевнинг тўрт балли усулидан фойдаланилади:

1 балл – бирор турга кирадиган бегона ўтлар якка-якка учрайди (экинларни 5 % гача);

2 балл – бегона ўтлар кам (экинларнинг 5 дан 25 % гача);

3 балл – бегона ўтлар умумий ўсимликларнинг 25 % дан кўп, лекин маданий ўсимликлардан кам;

4 балл – бегона ўтлар маданий ўсимликлардан кўп.

Кузатиш натижалари бегона ўтларни ҳисобга олиш жадвалига ёзиб олинади ва ҳар бир майдонда ўтказилган агротехникага доир мукаммал тафсилот берилади. Шундан кейин ажратилган майдонда диагонал бўйлаб юрилади ва учраган барча бегона ўтлар, уларни эндиғина чиққан майсаси жадвалга ёзиб олинади, бегона ўтнинг учраган ҳар бир тури эса тегишли балл билан белгилаб қўйилади. Сўнгра юқорида келтирилган балларга мувофиқ, бутун майдонни бегона ўт босганлигига балли баҳо қўйилади.

Бегона ўт босганлик барча алмашлаб экиш далаларида аниқланади. Агар алмашлаб экиш даласининг агротехникаси бир хил ва у ерга айни бир хил экин экилган бўлса, бегона ўтларни ҳисобга олиш учун битта жадвал тузилади. Агар мазкур дала бир қанча

экинлар билан банд бўлса ёки турли агротехника қўлланилса, унда тузиладиган жадваллар сони экинлар турининг сонига мувофиқ бўлади.

Бегона ўтларнинг тур таркибини аниқлаш тўғрилигини текшириш учун гулли ўсимликларнинг гербарииси (ҳар бир турдан 2-3 донадан) йиғилади, бунда даланинг рақами ва бегона ўтнинг номи кўрсатилади.

Кузатиш вақтида дала шароитида аниқлаш қийин бўлган бегона ўтлар ҳам учрайди. Бундай ҳолда улар жадвалга ва гербариига рақами қўйиб ёзилади, сўнгра аниқлаб бўлгандан кейин кўрсатилган рақам белгиланган ном билан алмаштирилади. Далаларнинг бегона ўт босганлик даражаси ҳақида тўла тушунча ҳосил қилиш учун унинг қаватлиги (паст ёки баланд бўйли) аниқланади.

Биринчи (қуи) қават паст бўйли бегона ўтлар, уларнинг бўйи экинлар бўйининг  $\frac{1}{4}$  қисмидан ошмайди.

Иккинчи (ўрта) қават бўйи экинлар пояси бўйининг ярмидан кўпроғига teng ёки улар билан баравар бўлган бегона ўтлар.

Учинчи (юқори) қават бўйи экинлар бўйидан юқори бўлган бегона ўтлар.

*Бегона ўтларни ҳисобга олии кўрсаткичлари;*

Вилоят

Туман

Фермер

Алмашлаб экиш

Алмашлаб экишни жорий қилиш ва ўзлаштириш вақти

Дала рақами

Экин тури

Бутун даланинг катталиги

Ифлосланганлиги ҳисобга олинадиган майдон (га ҳисобида)

Рельефи

Тупроғи

Кузатишдан олдин кейинги икки йил ичида экилган экинлар

Ерни кузги шудгорлаш тизими

Ерни экин экишдан олдин ишлаш тизими

Сўнгги икки йил ичида солинадиган ўғитлар таркиби, микдори ва қўллаш муддатлари

Ерга ўғит солиши усули ва кўмиш чуқурлиги

Экин экиш (уруғларни экиш вақти, усули ва кўмиш чуқурлиги)

Уруғлик (қаердан олинган, унувчанлик фоизи, тозалик фоизи, бегона ўтлар уруғи билан ифлосланганлиги, тур таркиби кўрсатилади)

Маданий ўсимликнинг кузатиш вақтидаги ривожланиш босқичи ва бўйи (см).

Даланинг ифлосланганлиги аниқланган вақт.

жадвал

Бегона ўтларнинг кузатиш вақтидаги тавсифи.

| Бегона ўтнинг номи | Биологиёвий группаси | Бўйи, см | Қаватлилиги | Ривожланиш босқичи | Балл |
|--------------------|----------------------|----------|-------------|--------------------|------|
|                    |                      |          |             |                    |      |

Майдон (экин) ифлосланганлигининг умумий бали. Қаватлилик экинни гуллаш даврида ёки уни йиғиб-териб олишдан олдин белгиланади.

**БЕГОНА ЎТЛАРНИ АНИҚ УСУЛ БИЛАН**

## ҲИСОБГА ОЛИШ ТЕХНИКАСИ

Далаларнинг ифлосланганлигини аниқ усул билан ҳисобга олиш аниқ бўлади. Лекин аниқлашнинг бу усули жуда қийин, шунинг учун ишлаб чиқариш шароитида мазкур усул жуда кам қўлланилади. Шунга кўра, тажриба далаларида ифлосланганлик даражасини ҳисобга олишда, асосан, миқдорий оғирлик усули қўлланилади.

Бунинг учун  $0,25 \text{ m}^2$  катталиқдаги ёғоч ром олинади ва даланинг икки диагонали бўйлаб 10-15 марта қўйилади. Ром ичида бўлган ҳамма бегона ўтлар юлиб олинади, турига қараб ажратилади ва санаб чиқилади. Ҳисобга олинган бегона ўтлар биологик хусусиятларига кўра кам йиллик ва кўп йилликларга бўлинади ва очик ҳавода алоҳида-алоҳида қуритилади, кейин тортилади. 10-15 нуқтани ҳисобга олишдаги маълумотлар кўшилади ва кузатишлар сонига тақсимланади. Сўнгра  $0,25 \text{ m}^2$  учун ўртачани топиб, 1 гектарга айлантириб ҳисоблаб чиқиши лозим бўлади.

### 13- mashg'ulot. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish

**Ishning maqsadi va mazmuni.** Ekinlar orasidagi begona o'tlarni hisobga olishdan tashqari, tuproqning ular urug'i bilan ifloslanganligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ana shu maqsadda tuproq namunalari tekshiriladi.

Tuproqni ifloslantiruvchi begona o'tlarning tur tarkibini va miqdorini bilish dalalarning tozaligi uchun kurash tadbirlarini tanlashni yengillashtiradi. Amaliy maqsadlar uchun ifloslanganlikni ekinni yig'ishtirib olish vaqtida hisobga olish ma'qul. Bu – begona o'tlarning to'kilgan urug'i sonini hisobga olish va shu kuzning o'zida tuproqni begona o'tlardan tozalashning zarur tadbirlarini belgilashga imkon beradi.

SHumg'iya va zarpechak urug'i topilgan uchastkalarga parazit begona o'tlardan zararlanmaydigan ekinlar ekish zarur.

#### Topshiriqlar

1. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish mavzusini o'qib, o'zlashtirib yozib oling.

2. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish uchun kichik guruhlarga bo'linib, qo'llanmada berilgan tartib bo'yicha Kalentev burg'usi yordamida o'quv tajriba maydonchasidan tuproq namunalari olinib tajribani bajaring va olingan ma'lumotlarni berilgan jadvallarga yozing.

#### Ishni bajarish tartibi:

Begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganlikni aniqlash uchun analiz qilinadigan tuproq namunasi SHevelev va Kalentev burg'usi bilan olinadi. Asosan Kalentev burg'usi ishlataladi. Bu burg'u 0-20 sm chuqurlikdan namuna olishga imkon beradi. tekshiriladigan tuproq namunasi 4 sm oralatib olinadi (0-4, 4-8, 8-12, 12-16, 16-20 sm). lekin tekshirish ishlari qiyin bo'lgani uchun tuproqning 0-10, 10-20 sm qatlamanidan namuna olinadi.

Mazkur burg'udan ko'pincha haydalma qatlama chuqurligi 20-22 sm bo'lgan lalmikor dehqonchilik sharoitida foydalanish mumkin. Haydash chuqurligi 25-30 sm bo'lgan sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida bu maqsad uchun chuqurroq kovlaydigan, bo'laklarga bo'lingan oddiy tuproq burg'usidan foydalanish mumkin. Tuproq namunasi har bir maydonning diagonali bo'y lab 5 ta, yaxshisi 10 ta nuqtadan teng oraliqda olinadi.

Agar burg'u bo'lmasa, tuproq namunasi qatlamlar bo'y lab, haydalma qatlama chuqurligida tuproq qirqimidan olinadi. Bunda namuna olinayotgan maydon o'lchanadi. Daladan olingan

namuna ochiq havoda quritiladi. So'ngra u 0,25 mm teshikli elaklarda yuviladi. Elakda ushlanib qolgan urug'lar va tuproqning yirik zarrachalari rush xlорidning 70 % li to'yangan og'ir eritmasiga, potashning 55 % li eritmasiga yoki osh tuzi eritmasiga solinadi. Bunda urug'lar yuqoriga ko'tarilib, tuproq agregatlari uning tagiga cho'kadi. Ajratib olingen urug'lar quritiladi, taxtacha ustiga yoyib, tur tarkibiga qarab ajratiladi; so'ngra turi bo'yicha soni hisoblab chiqiladi hamda begona o'tlar kolleksiysi bilan solishtirib aniqlanadi.

Begona o'tlarning urug'i xilma-xil bo'lib, mazkur usulni 0,25 mm dan mayda urug'larga: masalan, kungaboqar shumg'iyasi (Orobanche cumana) urug'ini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi. SHuning uchun dalalar 0,25 mm dan mayda urug'lar bilan ifloslanganligini aniqlash uchun maxsus analiz qilinadi.

Buning uchun tuproq namunasi birdaniga og'ir eritmaga solinadi va qolgan ishlar yuqoridagi singari bajariladi.

Tuproq namunalar chuqurligiga ko'ra analiz qilingandan, begona o'tlarning tur tarkibi aniqlangandan, har bir tur urug'ining soni hisoblab chiqilgandan keyin namunadagi urug'ning umumiyligi va og'irligi  $1 \text{ m}^2$  ga nisbatan hisoblab chiqiladi.

$1 \text{ m}^2$  dagi begona o'tlar urug'ining soni quyidagicha hisoblanadi. Quyidagi formula bilan burg'u ichki aylanasining maydoni aniqlanadi:

$$W = \frac{\pi \cdot D^2}{4}$$

bu yerda:  $W$  – burg'u ichki aylanasining maydoni,  $\text{sm}^2$ ;  $D$  – burg'uning ichki diametri, sm;  $\pi$  - aylananing diametriga nisbati; 4 – doimiy son.

YOki tuproq qirqimi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W = a \cdot i$$

bu yerda:  $W$  - qirqim maydoni,  $\text{sm}^2$ ;  $a$  - qirqim kengligi, sm v - qirqim uzunligi, sm.

Agar burg'u 30 sm chuqurlikka kiritilgan bo'lsa, u holda 0-30 sm chuqurlikdagi va  $1 \text{ m}^2$  maydonidagi urug'lar sonini hisoblash uchun o'tkazish koeffitsiyenti  $K$  topiladi. U burg'u maydoni yoki undagi urug'lar zapasi aniqlanib bo'lgan tuproq qirqimi ( $W$ ) ga nisbatan olingen 1  $\text{m}^2$  maydonga ( $S = 10000 \text{ sm}^2$ ) teng. Bunda o'tkazish koeffitsiyenti:

$$K = \frac{S}{W} \quad \text{bo'ladi.}$$

13.1-jadval

Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini aniqlash

| Namuna olingen vaqt | Namuna olingen joy | Tuproqning nomi | Burg'u langan yoki tuproq qirqi mi maydoni, $W$ | O'tkazish koeffitsiyenti, $K$ | Tur tarkibi | CHuqurlikdagi (sm)<br>begona o'tlar<br>urug'ining soni (dona) |      |       |       |       | Namunada<br>gi<br>barcha<br>urug'lar | Qayta<br>hisoblan-<br>gandagi<br>barcha urug'lar<br>(dona) |           |
|---------------------|--------------------|-----------------|---|-------------------------------|-------------|---|------|-------|-------|-------|--------------------------------------|--|-----------|
|                     |                    |                 |   |                               |             | 0-5   | 5-10 | 10-15 | 15-20 | 20-25 | 25-30                                |  |           |
|                     |                    |                 |   |                               |             |   |      |       |       |       |                                      | dona   | g         |
|                     |                    |                 |   |                               |             |   |      |       |       |       |                                      | $1 \text{ m}^2$  | gektar da |

O'tkazish koeffitsiyentini tuproq namunasidagi begona o'tlarning umumiy soniga ko'paytirib haydalma qatlama 1 m<sup>2</sup> maydonga to'g'ri keladigan urug'lar soni topiladi. Buni gektar hisobiga aylantirish uchun ko'rsatilgan kattalik 10000 ga ko'paytiriladi.

Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligi 1-jadvalga muvofiq yoziladi.

### ***Har bir kichik guruuhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** Kalentev burg'usi yoki boshqa konstruktsiyadagi burg'ular, belkurak, namuna solish uchun paketlar, etiketkalar, 0,25 mm teshikli ikkita elak, 0,5 l hajmli stakan, shpatel, filtr qog'oz, og'ir eritma, urug'lar kollektivasi yoki rasmlari.

### **Nazorat savollari**

1. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini aniqlash qanday ahamiyatga ega?
2. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligi qanday aniqlanadi?
3. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini aniqlash qaysi formula yordamida topiladi?

## **14- mashg'ulot. Gerbidlarni solish me'yorini aniqlash**

**Ishning maqsadi** - Gerbitsidlar va ularni qo'llash shart sharoitlari va me'yorlarini o'rghanishdan iborat.

**Ishning mazmuni** – Dala, o'tloq va yaylovlardagi begona o'tlarni yo'qotishda kamyoviy moddalar gerbitsidlardan foydalaniladi. Gerbitsidlar lotincha « gerbum » – o't, « tsido » – o'ldiraman degan ma'noni anglatadi.

Hozirgi paytda begona o'tlarga qarshi kurashishda sanoatda, ekish oldidan va ekishdan keyin tuproqqa sepiladigan hamda o'suv davrida qo'llaniladigan ko'plab gerbitsidlar ishlab chiqarilmoqda va xorijiy davlatlardan keltirilmoqda.

Gerbitsidlar kamyoviy tarkibiga ko'ra anorganik va organik gerbitsidlarga bo'linadi.

Kamyoviy tarkibiga ko'ra anorganik moddalardan tarkib topgan gerbitsidlar *anorganik gerbitsidlar* deyiladi.

Kamyoviy tarkibiga ko'ra organik moddalardan tarkib topgan gerbitsidlar *organik gerbitsidlar* deyiladi.

Hozirgi vaqtida organik birikmali gerbitsidlar ko'p qo'llanilmoqda.

Gerbitsidlar begona o'tlarga va madaniy o'simliklarga ta'sir etishiga ko'ra yoppasiga va tanlab ta'sir etadigan guruhlarga bo'linadi.

*YOppasiga ta'sir etadigan* - gerbitsidlar begona o'tlarni yo'qotish uchun o'zlashtirilmagan yerdarda (bo'sh yotgan yerdarda), yo'l yoqalarida va uvatlarda, sug'orish kanallari bo'yida, shuningdek, ko'p yillik o'tlarni o'rib olgandan keyin, ekin ekishdan oldidan dalalarda, bog'larda, ko'chatzorlarda qo'llaniladi.

*Tanlab ta'sir etadigan-* gerbitsidlar madaniy ekinlarni o'suv davrida qo'llaniladi. Gerbitsidlarning tanlab ta'sir etish xususiyati shundan iboratki, ularning ba'zi biri faqat ikki pallali begona o'tlarni nobud qiladi va g'alla ekinlari uchun qo'llaniladi. Boshqalari bir pallali begona o'tlarni nobud qiladi va shuning uchun ikki pallali ekinlar uchun qo'llaniladi.

Gerbitsidlar bundan tashqari begona o'tlarga ta'sir etish xarakteriga ko'ra, kontakt va ichdan ta'sir etuvchi gerbitsidlarga bo'linadi.

*Kontakt ta'sir etuvchi gerbitsidlar* purkalgan yoki changlangan vaqtida o'simlikning qaysi qismiga (bargiga, poyasiga) tushsa, faqat shu tekkan joyini quritadi.

*Ichdan ta'sir etuvchi gerbitsidlar* yerda yurib purkalganda yoki changlanganda tekkan qismi orqali (barg, poya) boshqa organlarga o'tib modda almashinuvni jarayonini buzib (tuproqqa

solinganda esa ildiz orqali poya va barglarga o'tib), o'simlikni nobud qiladi.

Gerbitsidlar suv yoki boshqa suyuqliklarda eritilib tayyorlanadi.

Gerbitsidlar traktorlarga purkaladigan maxsus purkagichlar OVX-28 apparatida yoppasiga, PGS-2,4, PGS-3,6 apparatida tasmasimon usulda yoki samolyotlar yordamida sepiladi. Gerbitsidlarning samaradorligi ularning me'yori, qo'llash usuli, muddati hamda tuproq namligiga bog'liq bo'ladi. Og'ir mexanik tarkibli chirindiga boy tuproqlarda yuqori, qumloq va qumoq tuproqlarda nisbatan kamroq me'yorda qo'llaniladi. Ularni qo'llashda xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilish zarus.

### Topshiriqlar

- 1.Gerbitsidlarni solish me'yorini aniqlash mavzusini o'qib o'zlashtiring.
- 2.Gerbitsidlarning 2006-2010 yillarda foydalanish uchun ruxsat etilgan ro'yxatidagi namunalarining qo'llash me'yorini quyidagi keltirilgan formulalar yordamida aniqlang.

### Ishni bajarish tartibi:

Talabalar gerbitsidlar bilan tanishish uchun ularning kollektsiyasini respublikamiz qishloq xujaligida 2006-2010 yillarda foydalanish uchun ruxsat etilgan gerbitsidlar ruyxatini kuzdan kechirib chiqishlari va daftarga gerbitsidlar tarkibidagi ta'sir etuvchi modda miqdorini, ularning nomlanishini, tarkibidagi qanday modda ta'sir etishini, qo'llash usullarini va qaysi begona o'tlar uchun qo'llanishini yozib olishlari kerak.

Gerbitsidlarni solish me'yori preparat bo'yicha yoki preparat tarkibidagi ta'sir etuvchi modda bo'yicha kg/ga, l/ga da hisoblanadi.

Gerbitsid qo'llash me'yori quyidagi keltirilgan formula yordamida aniqlanadi:

$$S = \frac{D \cdot 100}{V}$$

bu yerda: S - gerbitsid qo'llash me'yori, kg/ ga yoki l/ga;

D - ta'sir etuvchi moddaning me'yori, kg/ ga yoki l/ga;

V - ta'sir etuvchi modda miqdori, %

Misol uchun, kotoran ta'sir etuvchi modda bo'yicha gektariga (D) 3 kg sepilishi kerak, preparatning ta'sir etuvchi moddasi (V) 80% bo'lsa gerbitsid (S) solish me'yori:

$$S = \frac{3 \cdot 100}{80} = 3,75 \text{ kg/ga bo'ladi.}$$

Purkash uchun tayyorlangan ishchi eritmaning kontsentratsiyasi quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$K = \frac{S \cdot 100}{R} ; \%$$

bu yerda K - ishlatiladigan eritmaning kontsentratsiyasi, %

S - preparatning me'yori, kg/ga yoki l/ga.

R - suyuqlik (suv) sarfi, l/ga.

Masalan, 1 gektar maydonga 3,75 kg gerbitsid sepilishi kerak. Bunda gektariga 300 l suv sarflansa ishchi eritma kontsentratsiyasi:

$$K = \frac{S \cdot 100}{R} = \frac{3,75 \cdot 100}{300} = 1,25 \% \text{ ga}$$

teng bo'ladi, ya'ni har 100 l suvgaga 1,25 kg gerbitsid solish kerak bo'ladi.

**Turli qishloq xo'jaligi ekinlarida qo'llash uchun 2006-2010 yillarda ruxsat etilgan gerbitsidlar ro'yxati**

| Preparat, ishlab chiqaruvchi firma,mamlakat               | Sarflash me'yori kg/ga yoki l/ga | Preparatdan foydalanadi-gan ekin turi   | Ishlatish muddati, usuli va tavsiya etilgan cheklovlar  | Qaysi begona o'tlarga qarshi ishlatiladi                           |
|---|----------------------------------|---|---|--|
| ALIYENZA, 600 g/l sus.k.(B) "Bayer KropSayens", Germaniya | 0,525-0,625                      | G'o'za  | Ekishgacha yoki ekish bilan birga tuproqqa purkaladi  | Bir yillik ikki pallali va ba'zi bir yillik boshoqli begona o'tlar |
|   | 3,0-5,0                          | G'o'za  | Ekishdan oldin ekish bilan birga yoki nihollarning ko'karib chiqishigacha tuproqqa purkaladi  | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar                  |
|   | 3,0-4,0                          | Kartoshka   | O'simlikning unib chiqi-shigacha tuproqqa purkaladi va kamida 3 oydan keyin tugunaklardan foydalanishga ruxsat etiladi  | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar                  |
|   | 2,0-3,0                          | Sabzi   | Ekishgacha yoki o'simlik unib chiqqungacha yoki 1-2 chin barg paydo bo'lganda tuproqqa purkaladi va kamida 4 oydan keyin ildizmevalardan foydalanishga ruxsat etiladi | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar                  |
| DAXLOR 50% em.k. "Juy Zei" AJ, XXR                        | 2,0-2,25                         | G'o'za  | Ekish bilan birga tuproqqa purkaladi  | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar                  |
| ZELLEK SUPER, 104 g/l em.k. "Dau Agro Saenses", AQSH      | 1,0                              | G'o'za, qand lavlagi, xashaki lavlagi, sabzi, kartoshka, piyozning barcha avlodni | Dalalardagi begona o'tlarning 2-6 bargli faol o'suv davrida purkaladi   | Bir yillik boshoqli begona o'tlar                                  |

|  |          |  |  |  |
|--|----------|--|--|--|
| KOTORAN, 80% n.kuk.<br>“Agan Kemikal<br>Manufakcherers Ltd”,<br>Isroil | 1,6-3,5  | G’o’za                                       | Tuproqqa ekishdan<br>oldin yoki ekish bilan<br>birga nihollarning<br>ko’karib chiqishigacha<br>purkaladi | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |
| KOTORAN, 80% n.kuk.<br>“Elektrokimyozavod” AJ-<br>QK, O’zbekiston      | 1,0      | G’o’za                                       | Ekish bilan birga<br>tuproqqa tasmasimon<br>usulda purkaladi   | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |
|  | 2,3-4,5  | Piyozning barcha<br>avlodlari                | Nihollarning ko’karib<br>chiqishigacha tuproqqa<br>purkaladi   | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |
|  | 1,0-2,0  | G’o’za,<br>makkajo’xori,<br>kartoshka, sabzi | Ekinlarning<br>ko’karishigacha<br>tasmasimon usulda<br>tuproqqa purkaladi                                | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |
|  | 3,0-6,0  | G’o’za,<br>makkajo’xori,<br>kartoshka, sabzi | Ekinlarning<br>ko’karishigacha<br>tuproqqa yoppasiga<br>purkaladi  | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |
|  | 1,0      | Plyonka ostiga<br>ekilgan g’o’za             | Ekish bilan birga<br>tasmasimon usulda<br>tuproqqa purkaladi   | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |
|  | 1,5      | G’o’za, sabzi,                               | Begona o’tlarning<br>bo’yi 10-15 sm<br>bo’lganda purkaladi   | Bir yillik<br>boshoqli<br>begona o’tlar                    |
|  | 1,5      | Piyoz  | Ekin va begona<br>o’tlarning bo’yi 10-15<br>sm bo’lganda<br>purkaladi                                    |  |
|  | 3,5      | G’o’za                                       | Begona o’tlarning<br>bo’yi 10-15 sm<br>bo’lganda purkaladi   | Ko’p yillik<br>boshoqli<br>begona o’tlar                   |
|  | 3,5      | Piyoz  | Ekin va begona<br>o’tlarning bo’yi 10-15<br>sm bo’lganda<br>purkaladi                                    | Ko’p yillik<br>boshoqli<br>begona o’tlar                   |
| ATLANTIS, 3,6% s.e.g.<br>“Bayer KropSayens”,<br>Germaniya              | 0,25-0,3 | Kuzgi bug’doy                                | Bug’downi tuplash<br>davrida purkaladi   | Bir yillik ikki<br>pallali va<br>boshoqli<br>begona o’tlar |

|   |  |   |   |   |
|---|--|---|---|---|
|   |  |   |   | (shu jumladan yovvoyi suli, raygras va boshqalar)   |
| GRANSTAR-75% DF o.q.sus. "Dyupon" AQSH              | 1 hektariga<br>10-20 gramm                                 | Kuzgi bug'doy, arpa, bahorgi bug'doy  | Ekinning 3-5 barg tuplanish davrida sepiladi  | Bir yillik ikki pallali begona o'tlar   |
| GULLIVER, 50% s.e.g. "Dyupon" AQSH                  | 1 hektariga<br>20,0-30,0 gramm+ SFM ("Trend 90") 200 ml/ga | SHoli   | Begona o'tlarning 2-4 barg davrida nam tuproqqa yoki sholipoyada suv sathi 5-10 sm bo'lganda sirtfaol modda qo'shib purkaladi | Bir yillik boshoqli (tariqsi-mon) va ikki pallali begona o'tlar, ko'p yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|   | 0,8-1,2  | Bahorgi bug'doy   | Ekinning tuplash davrida purkaladi  | Bir yillik ikki pal-lali va boshoqli be-gona o'tlar   |
|   | 0,6-0,8  | Kuzgi bug'doy   | Ekinning tuplash davrida purkaladi  | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar   |
| GLIFOS, 360 g/l,s.e. (B)<br>«Keminovo Agro», Daniya | 4,0-6,0  | Bug'doy, arpa, va guzadan bushagan, shuningdek kishlok xujaligi uchun yaroksiz yerlar | Hosil yig'ib olingandan so'ng o'sayotgan begona o'tlarga purkaladi  | Bir yillik va ko'p yillik boshoqli xamda ikki pallali begona o'tlar   |
| Q   | 3,3-6,0  | G'o'za, soya  | Ekishgacha yoki ekish bilan birga yoki nihollarning ko'karib chiqi-shigacha tuproqqa purkaladi va zudlik bilan ko'miladi      | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar   |
|   | 3,3-6,0  | Karam, ko'chat qilingan pomidor   | Ko'chat o'tqazilgungacha tuproqqa purkaladi va zudlik bilan ko'miladi   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar   |

|  |         |                          |   |   |
|--|---------|--------------------------|---|---|
|  | 1,7-2,0 | Urug'dan ekilgan pomidor | Ekishgacha tuproqqa purkaladi va zudlik bilan ko'miladi | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|  | 3,3-6,7 |                          |   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|  | 3,0-4,5 |                          |   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|  | 3,3-5,0 |                          |   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|  | 4,-6,0  |                          |   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|  | 1,6-2,0 |                          |   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |
|  | 3,3-6,0 |                          |   | Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar |

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko'ra xulosa qiladilar.***

**Zarur jixozlar:** Respublikamiz qishloq xujaligida 2006-2010 yillarda foydalanish uchun ruxsat etilgan gerbitsidlar ruyxati, gerbitsidlar namunalari, xisoblash mashinalari.

#### **Nazorat savollari**

1. Gerbitsidlar klassifikatsiyasini (tarkibiga kura, usimliklarga xamda begona utlarga ta'sir etishiga) tushintiring.
2. Gerbitsidlar solish me'yori kanday aniklanadi?
3. Gerbitsidlar kullash uchun ishchi eritmaning kontsentratsiyasi kanday topiladi?
4. Xozirgi vaktda paxtachilikda va gallachilikda kaysi gerbitsidlar kullanilmokda?

## 15- mashg'ulot. Almashlab ekish

**Ishning maqsadi** – almashlab ekish tizimini tuzish hamda uning tiplari va tuzilmalarini o'rghanishdan iboratdir.

**Ishning mazmuni** – almashlab ekish yerdan ratsional foydalanish, tuproq unumidorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlar hosilini mutassil oshirish, begona o'tlarga, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash olib borishni ta'minlaydigan eng muhim tashkiliy – agrotexnika tadbirlaridan biridir. Ekinlarni dalalar va yillar bo'yicha ilmiy asosda navbatlab ekishga **almashlab ekish** deb ataladi.

Almashlab ekish ekinlarni istiqbol rejasi asosida joylashtirilishi bilan aniqlanadi va barcha agrotexnika tadbirlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Almashlab ekishni qo'llash uchun yer massivi ma'lum sondagi dalalarga bo'linadi va ekinlar har bir dalaga navbat bilan ekiladi.

Ekinlarni tartibi bilan, belgilangan tuzilma asosida har bir dalaga ekish uchun ketgan vaqt **almashlab ekish rotatsiyasi va rotatsiya davri** deyiladi.

U 8 dalalik bo'lsa, 8 yil, 10 dalalik bo'lsa, 10 yilga teng bo'ladi. Ekinlarni rotatsiya davrida yillar va dalalar bo'yicha joylashtirish rejasi **rotatsiya jadvali** deyiladi. Almashlab ekishdag'i har bir o'simlikdan oldin yetishtiriladigan ekin **o'tmishdosh** hisoblanadi. Masalan: bedadan keyin g'o'za ekilsa, beda g'o'za uchun o'tmishdosh hisoblanadi.

Tuproq unumidorligini oshirishda organik moddalar miqdorini, tabiiy xossalari va mikrobiologik jarayonlarni jadallashtirishda (almashlab ekishda) beda ekishning ahamiyati juda katta. CHunki beda g'o'za uchun eng yaxshi o'tmishdosh, chorvachilikda esa asosiy yem – xashak ekini ekin sifatida tengsiz o'simlikdir.

Asosiy ekinlardan tashqari yetishtiriladigan ekinlar - **zichlangan, takroriy va oraliq ekinlar** deyiladi. Zichlangan ekin almashlab ekishning dalasida bir ekin bilan aralashtirilib ekiladi (beda bilan g'alla va boshqalar).

Takroriy ekinlar, odatda kuzda, asosiy ekin hosili yig'ib olingandan keyin yoki ular o'sayotganda qator oralariga ekiladi. Takroriy va oraliq ekinlar hosilini kuzda va bahorda chorva mollariga oziqa uchun o'rib olish ham mumkin yoki o'g'it (siderat) sifatida tuproqqa haydar yuborish ham mumkin.

Bir necha xil ekin o'stiriladigan almashlab ekish dalasi terma (yig'ma) dala deb ataladi. Masalan: keng qatorlab ekiladigan; chopiq qilinadigan; kuzgi ekinlar (bug'doy, arpa, javdar) ekiladigan; bahorgi g'alla ekinlari ekiladigan; bir yillik o'tlar; ko'p yillik o'tlar ekiladigan yig'ma dalalar bo'ladi.

### Topshiriqlar:

Almashlab ekishda dalalarning sonini va ekinlarning navbatlanishini aniqlang. (rotatsion jadvallar tuzing).

Almashlab ekishni loyihalashni mashq qiling, aniq tuzilmadagi almashlab ekish uchun, gektar hisobida yoki almashlab ekish maydoniga nisbatan foizlarda, ekin maydonlari strukturasini bering.

Almashlab ekish tuzilmasini tuzishga misollar:

1. Xo'jalikda 800 ga yer maydoni bo'lib, g'o'za 50%, g'alla, yem – xashak va boshqa ekinlar 50% ni tashkil etishi kerak. Bunda almashlab ekish tuzilmasini tanlang va dalalarga ekinlarni qanday joylashtirish kerak.

2. Almashlab ekish tuzilmasi 2:4:1:3 yoki 2:4:1:2 bo'lganda birinchi va yettinchi oraliq dalalardan ko'proq mahsulot olish uchun zichlangan, takroriy ekiladigan ekin turlarini tanlang.

## 16- mashg'ulot. Almashlab ekishni ishlab chiqish va joriy etish

Almashlab ekishni joriy qilish ikki davrdan: qo'llash va o'zlashtirish davridan iborat bo'ladi. Almashlab ekishni qo'llash – almashlab ekish loyihasini tuzish va uni asliga ko'chirish, ya'ni yer tuzish ishlarini bajarishdan iborat. Almashlab ekishni o'zlashtirish – ekinlarni belgilangan navbatlab ekishga asta-sekin o'tishdan iboratdir. Buning uchun o'tish rejasini tuziladi. Bunga ikki – uch yil talab etiladi.

Almashlab ekishni loyihalash uchun quyidagi ishlarni bajarish zarur:

- a) yer - suv hisobga olinadi;
- b) xo'jalik taraqqiyot rejasida ko'zda tutilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hajmi belgilanadi;
- v) almashlab ekishda mo'ljallangan ekinlarning hosildorligi hisoblab chiqiladi;
- g) chorvachilik uchun yem – xashakka bo'lgan talab hisoblab chiqiladi, yem – xashak ekinlari uchun ekin maydoni, hosildorligi va katta – kichikligi belgilanadi;
- d) fermer xo'jalik yerining katta – kichikligi va bo'linib ketganligi hisobga olinib, undagi almashlab ekish soni va strukturasi belgilanadi;
- e) xo'jalikda belgilangan almashlab ekishga qarab, ekinlarni navbat bilan ekish belgilanadi;
- j) almashlab ekishga o'tish rejasini tuziladi, buning uchun dalalar tarixi, oldingi ekinlar ahamiyati hisoblanadi;
- z) yerga ishlov berish, o'simliklarni parvarish qilish, o'g'itlash, begona o'tlar, kasallik va zararkunandalar bilan ko'rashish tizimi ishlab chiqiladi.

Almashlab ekish tuzilmasi 3:6, 3:7, 3:9 bo'lganda:

1. Birinchi yili beda quyidagicha ekilishi mumkin
  - a) makkajo'xori, okjo'xori, sudan o'ti, raygras bilan ko'k massa uchun yoki arpa bilan don uchun;
  - b) yuqoridagi tuzilmalarni joriy etishda birinchi daladan yanada jadal foydalanish mumkin. Bu holatda, birinchi dalaga makkajo'xori silos uchun ekiladi, hosil yig'ib – olingandan so'ng, avgust oyida takroriy ekin beda, kuzgi arpa bilan ekiladi.

15.1 - jadval

Paxtachilik fermer xo'jaliklarida tavsiya etilayotgan almashlab ekish tuzilmalari

| Almashlab ekish tuzilmalari | Ekinlarning salmog'i, % |                                |
|-----------------------------|-------------------------|--------------------------------|
|                             | Paxta                   | G'alla va yem- xashak ekinlari |
| <b>I</b>                    | <b>2</b>                | <b>3</b>                       |
| 3: 6                        | 66,7                    | 33,3                           |
| 3:7                         | 70                      | 30                             |
| 3:9                         | 75                      | 25,0                           |
| 2:4:1:2                     | 66,7                    | 33,3                           |
| 2:4:1:3                     | 70,0                    | 30,0                           |
| 2:5:1:4                     | 75,0                    | 25                             |
| <b>I</b>                    | <b>2</b>                | <b>3</b>                       |
| 2:7                         | 77,8                    | 22,2                           |
| 2:8                         | 80,0                    | 20,0                           |
| 1:4:1:4                     | 80,0                    | 20,0                           |
| 1:3:5                       | 55,6                    | 44,4                           |
| 1:3:6                       | 60,0                    | 40,0                           |
| 2:1                         | 67,0                    | 33,0                           |
| 3:2                         | 75,0                    | 25,0                           |
| 3:4:1                       | 50,0                    | 50,0                           |

2. Almashlab ekish tuzilmasi 2:4:1:2, 2:4:1:3, 2:5:1:4 (bu tuzilmalar 3:6, 3:7, 3:9 tuzilmalarning intensiv shaklidir) bo'lganda yem – xashak va g'alla ekinlaridan ko'proq hosil olinadi. yem – xashak dalalaridan quyidagicha samarali foydalanish mumkin:

a) birinchi yili beda sof holda ekilishi mumkin yoki makkajo'xori, okjo'xori, raygras, sudan o'ti bilan faqat ko'k massa uchun ekiladi.

Oraliq bitta daladan quyidagicha foydalanish mumkin:

Bahorgi don ekinlari sof holda don uchun, yoki makkajo'xori doni yoki silos uchun ekiladi. Bu ekinlarning hosili yig'ishtirib olingandan so'ng, ya'ni g'alladan keyin takroriy ekin, makkajo'xori silos uchun, so'ngra oraliq ekin, ko'k massa va siderat uchun ekiladi.

Ushbu oraliq daladan 2 marta don olish uchun ham foydalanish mumkin. Bunda birinchi ekin kuzgi arpa (paxtani ertaroq yig'ishtirib olish zarur) takroriy ekin makkajo'xori don uchun (ertapishar navlar), keyin oraliq ekinlar ekiladi.

SHu daladan uch marta hosil olish ham mumkin. Kuzgi javdar ko'k massa uchun, keyin makkajo'xori silos uchun, uchinchi ekin kuzgi raps ko'k massa va siderat uchun ekiladi.

3. Almashlab ekish tuzilmasi 2:7, 2:8 bo'lsa uning birinchi va ikkinchi dalasidan 2:4:1:2 tuzilmasining birinchi va ikkinchi dalalaridan qanday foydalanilsa xuddi shunday foydalaniladi.

4. Almashlab ekish tuzilmasi 1:4:1:4: yoki 1:5:1:5 bo'lganda, uning birinchi va oraliq dalalaridan 2:4:1:2, 2:4:1:3 tuzilmalarining oraliq dalasidan qanday foydalanilsa, xuddi shunday foydalanish mumkin.

5. Almashlab ekishning 1:3:5, 1:3:6 tuzilmalari sho'rlangan yerlarda qo'llanadi. Birinchi dala meliorativ dala bo'lib, tekislash, sho'r yuvishlari o'tkaziladi.

Eslatma: g'o'za – beda almashlab ekish tuzilmalari fermer xo'jaligining yo'nalishi va talabiga qarab, ekinlarning salmogi o'zgartiriladi. Asosan g'o'za hisobidan, xo'jalik uchun zarur ekinlarni ko'paytirish mumkin.

Keyingi yillarda, Respublikamizda g'alla mustaqilligiga erishish yo'lida, keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. 1 million gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarda g'alla yetishtirilmokda. Bu Respublikamizdag'i sug'oriladigan yerlarning to'rtdan bir qismini tashkil etadi. Vujudga kelgan vaziyatni e'tiborga olsak, ilgari joriy etilgan beda – g'o'za almashlab ekish tartibiga kiritish zaruriyati paydo bo'lmokda har bir fermer xo'jaligi o'z tuproq iqlim sharoitini hisobga olib, quyida tavsiya etilayotgan almashlab ekish tuzilmalaridan birini tanlashi va joriy etishi mumkin.

### 15.2 – jadval

3 – dalali g'o'za– g'alla almashlab ekish rotatsion jadvali

| Nº | Dalalar/yillar | I     | II    | III   |
|----|----------------|-------|-------|-------|
| 1. | 2005           | P     | P     | F+T.E |
| 2. | 2006           | P     | G+T.E | P     |
| 3. | 2007           | F+T.E | P     | P     |

P - G'o'za 67%; F – G'alla 33%; T.E – taroriy ekin – 33%.

### 15.3 - jadval

4 – dalali g'o'za – g'alla almashlab ekish rotatsion jadvali

| Nº | Dalalar/yillar | I     | II    | III   | IY    |
|----|----------------|-------|-------|-------|-------|
| 1. | 2005           | P     | P     | P     | F+T.E |
| 2. | 2006           | P     | P     | G+T.E | P     |
| 3. | 2007           | P     | G+T.E | P     | P     |
| 4. | 2008           | G+T.E | P1    | P2    | P3    |

P – g’o’za 75%; G – g’alla –25%; T.E. – takroriy ekin –25%

Eslatma. Takroriy ekin sifatida quyidagi ekinlardan biri tanlab olinadi va ekiladi: makkajo’xori, tariq, qo’noq, mosh, kartoshka; sabzavot ekinlardan: karam, sabzi, turp, sholg’om, qizilcha; poliz ekinlaridan tarvuz va boshqalar.

#### 15.4 - jadval

8 – dalali g’o’za – beda – don almashlab ekish rotatsion jadvali

| Nº | Dalalar Yillar | I                | II               | III               | IY               | Y                | YI                | YII               | YIII              |
|----|----------------|------------------|------------------|-------------------|------------------|------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| 1. | 2005           | D+V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>   | V <sub>3</sub>    | P                | P                | P                 | P                 | D                 |
| 2. | 2006           | V <sub>2</sub>   | V <sub>3</sub>   | P                 | P                | P                | P                 | D                 | D+ V <sub>1</sub> |
| 3. | 2007           | V <sub>3</sub>   | P                | P                 | P                | P                | D                 | D+ V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>    |
| 4. | 2008           | P                | P                | P                 | P                | D                | D+ V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>    | V <sub>3</sub>    |
| 5. | 2009           | P                | P                | P                 | D                | D+V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>    | V <sub>3</sub>    | P                 |
| 6. | 2010           | P                | P                | D                 | D+V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>   | V <sub>3</sub>    | P                 | P                 |
| 7. | 2011           | P                | D                | D+ V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>   | V <sub>3</sub>   | P                 | P                 | P                 |
| 8. | 2012           | D                | D+V <sub>1</sub> | V <sub>2</sub>    | V <sub>3</sub>   | P                | P                 | P                 | P                 |

P – g’o’za – 50%; D – boshokli don ekinlari 25%; V – bedapoya –25,0+12,5%.

#### 15.5 - jadval

6 – dalali yem – xashak almashlab ekish rotatsion jadval

| Nº | Dalalar yillar | I     | II    | III   | IY    | Y     | YI    |
|----|----------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1. | 2005           | G+M.s | M.d   | G+M.s | L+O.e | M.d   | B1    |
| 2. | 2006           | M.d   | G+M.s | L+O.e | M.d   | B1    | B2    |
| 3. | 2007           | G+M.s | L+O.e | M.d   | B1    | B2    | B3    |
| 4. | 2008           | L+O.e | M.d   | B1    | B2    | B3    | G+M.s |
| 5. | 2009           | M.d   | B1    | B2    | B3    | G+M.s | L+O.e |
| 6. | 2010           | B1    | B2    | B3    | G+M.s | L+M.s | M.d   |

B – beda –50 %;

G – xashaki g’alla (bug’doy yoki arpa)-16,7 %;

M.s.- makkajo’xori silos uchun –16,7 %;

L – lavlagi –16,7 %;

M.d. – makkajo’xori don uchun 16,7 %.

***Har bir kichik guruhlar ish natijasiga ko’ra xulosa qiladilar.***

*Zarur jixozlar:* Almashlab ekishga doir jadvallar, plakatlar

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Almashlab ekish deb nimaga aytildi?
2. Almashlab ekishda rotatsiya davri deganda nimani tushunasiz?
3. Almashlab ekish loyihasini tuzishda nimalar e’tiborga olinadi?
4. Takroriy va oraliq ekinlar qachon ekiladi. Ularga qaysi ekinlar kiradi?
5. Hozirgi kunda tavsiya etilgan almashlab ekish tizimlari haqida tushuntiring?

## 17-Mavzu:Tajriba qo'yish texnikasi. tajriba variantlarini joylashtirish usullari.


**Mashg'ulotning maqsadi:** Dala tajribalari dehqonchilikdagi turli masalalarni tadqiqi etishni asosiy uslubidir. Dala tajribasi uchun yer tanlash va uni tayyorlash. Paykalchalarning o'lchami va takroriyligi. Variantlarni (standart, sistemali, rendomizasiya) joylashtirish masalalarni talabalarga tushuntiriladi.

Yer uchastkasi o'rganilgandan va tajriba qo'yish uchun tayyorlangandan keyin tajribani joylashtirish uchun mo'ljallangan joy sxematik planga o'tkazilishi, unda takrorlashlar, paykallar, ihota polosalari va boshqalar band qilgan hamma maydonlar aniq ko'rsatilishi kerak. Shu sxematik planga ko'ra tajriba qo'yiladi, ya'ni har bir takrorlash va paykallarning umumiyligini chegarasi ajratiladi hamda yozib qo'yiladi. Barcha takrorlashlarda hamma paykallar bir xil uzunlikda va kenglikda bo'lishi hamda qat'iy burchak shaklida joylashishi shart.

Dalaga chiqish oldidan, to'g'ri burchaklar hosil qilish uchun teodolit yoki ekker, 20 m li ruletka, pishiq chizimcha, 1,5—2 m uzunlikdagi 5—10 ta nishon qoziq, to'rtta to'g'ri burchakli ustuncha (reper) hamda paykallar chegarasini belgilash uchun diametri 3—4 sm va uzunligi 25—30 sm bo'lgan kichik qoziqchalar oldindan tayyorlab qo'yiladi. Bunday qoziqchalar hamma paykallarga ikki hissa ko'paytirilgandagidan 10—12 dona ortiq bo'lishi kerak.

### TAJRIBA VARIANTLARINI JOYLASHTIRISH USULLARI

Maydonda takroriy tajribalarni joylashtirishning bir necha usuli bor. Joylashtirishning har qanday variantida sharoitning barcha xilma-xilligini mumkin qadar ko'proq qamrab olish ko'zda utiladi.



1 rasm. Dala tajribasi takrorlashining sxemasi:

*a* – bir yarusli; *b* – ikki yarusli; *v* – to'rt yarusli.


Maydonda tajribani joylashtirish usullarining xarakterli xususiyati shundaki, sxemaning barcha variantlari bo'lgan paykal bitta polosada takrorlanishiga ko'ra, territorial jihatdan birlashadi. Agar hamma tajriba (hamma takrorlanish) bitta polosada joylashsa, yana ham yaxshi bo'ladi (1-sxema). Ammo tajriba stansiyasi territoriyasida hamma takrorlashni bitta polosaga joylashtirishning imkonи bo'lmasa, u vaqtida ba'zi tajriba takrorlashlarni ikkita (2- sxema) yoki to'rtta (3- sxema) yarusda joylashtirishga yo'l ko'yiladi.

Tajribada variantlarni 2 va 4 yarusli qilib joylashtirganda turli yaruslardagi takrorlashlarda paykallarni shunday tartibda joylashtirish kerakki, bunda bir xil variantlar vertikal yo'nalishda territoriya jihatdan bir-biriga to'g'ri kelib qolmasin. Bir xil nomdagi variantlarni iloji boricha biridan uzoqroq masofada joylashtirish kerak.

Paykallarning uzoqlashtirish zarur bo'lgan nomeri sonini aniqlash uchun variantlarning umumny sonini yaruslar soniga bo'lisch kerak. Bunda chiqqan son bo'yicha ikkinchi yarusdagi paykallarni uzoqroqqa joylashtirish kerak.

Shunday qilib, 10 varnantli tajribada va takrorlashlar ikki yarusli qilib joylashtirilganda, ikkinchi yarusdagi paykallarni besh nomerga ( $10 : 2 = 5$ ), to'rt yarusli qilib joylashtirilganda esa har kaysi yarusda 2 yoki 3 nomerga ( $10 : 4 = 2,5$ ) uzoklashtirish kerak. Traktor agregati burilishi uchun yaruslar orasidagi masofa 6—7 m bo'lishi kerak.

1-t o p sh i r i q. Tajriba uchun ajratilgan maydovning bo'yisi ( $a$ ) — 42 m, eni ( $v$ ) 115,2 m ga teng. Bunda 4 variantda 4 marta takrorlash bilan tajriba qo'ying (1-sxema):



#### 1-sxema. Tajriba takroriyligini 1 yarusli qilib joylashtirish.


Bu yerda: 1. Tajriba variantlarini 1 yarusli qilib joylashtirish sxemasini.


2. Uchastkaning umumiyligi maydonini —  $S = a * v, m^2$ .
3. Bitta takrorlash maydonini —  $S_1 = S : k, m^2$ .
4. Bitta variant maydonini —  $S_2 = S_1 : p, m^2$ .

5. G'o'za keng qatorlab va tor qatorlab (90 va 60 sm) ekilganda har bir paykaldagi qatorlar sonini aniqlash kerak.

Bunda:  $a$  — tajriba uchastkasining bo'yisi,  $m$ ;  $v$  — tajriba uchastkasining eni,  $m$ ;  $S$  — tajriba uchastkasining umumiyligi maydoni,  $m^2$ ;  $S_1$  — bitta takrorlash maydoni,  $m^2$ ;  $S_2$  — bitta variant maydoni,  $m^2$ ;  $k$  — takrorlash soni;  $p$  — variantlar soni.

2-t o p sh i r i q. Tajriba uchun ajratilgan uchastkaning bo'yisi ( $a$ ) — 121,2 m, eni ( $v$ ) — 57,6 m ga teng. Ikki yarus o'rtaqidagi yo'lning kengligi ( $ye$ ) 6 m. Tajriba 4 variantda 4 marta takrorlanadi (2-sxema):






**2-sxema. Tajriba takroriyligini 2 yarusli qilib joylashtirish.**

Bu yerda: 1. Tajriba variantlarini 2 yarusli qilib joylashtirish sxemasini.  
 2. Tajribaning umumiy maydonini —  $S = a * v, m^2$ .  
 3. Yo'l maydonini —  $S_1 = ye * v, m^2$ .  
 4. Tajriba maydonini (yo'ldan tashqari) —  $S_2 = S - S_1, m^2$ .  
 5. Bitta takrorlash maydonini —  $S_3 = S_2 : k, m^2$ .  
 6. Bitta variant maydoni —  $S_4 = S_3 : p, m^2$ .  
 7. G'o'za keng qatorlab va tor qatorlab (90 va 60 sm) ekilganda har qaysi paykaldagi qatorlar sonini aniqlash kerak.

3-t o p sh i r i q. Tajriba dalasining bo'yisi ( $a$ ) — 338 m, eni ( $v$ ) — 43,2 m. Yaruslar o'rtaсидаги har qaysi yo'lning kengligi ( $ye$ ) 6 m.. Tajriba to'rt marta takrorlab (K), har qaysi takrorlashda 4 tadan variant ( $p$ ) bo'lishi kerak (3-sxema).



**3-sxema. Tajriba takroriyligini 4 yarusli qilib joylashtirish.**

Bu yerda: 1. Tajriba variantlarini 4 yarusli qilib joylashtirish sxemasini.  
 2. Tajribaning umumiy maydonini —  $S = a * v, m^2$ .  
 3. Yo'llarning umumiy maydonini —  $S_1 = (ye_1 + ye_2 + ye_3) * v, m^2$ .  
 4. Tajriba maydonini (yo'ldan tashqari) —  $S_2 = S - S_1, m^2$ .  
 5. Bitta takrorlash maydonini —  $S_3 = S_2 : k, m^2$ .  
 6. Bitta variant maydoni —  $S_4 = S_3 : p, m^2$ .

7. G'o'za keng qatorlab va tor qatorlab (90 va 60 sm) ekilganda har qaysi paykaldagi qatorlar sonini aniqlash kerak.

**Kerakli jihozlar va asboblar:** paykallar burchaklarini beliglash uchun qoziqlar, 4 – 5 ta kichik vexa, ruletka, uzun chizimcha, oddiy qalam.

### **19-tajriba mashg'uloti: Tuproqni shudgorlash usullari bo'yicha tajribalarda hisoblash ishlari\**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Tuproqni shudgorlash usullari bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda shudgorlash chuqurligini aniqlash yuzasidan olingan mahsulotlarga ishlov berishni o'rgansh, ularni arifmetik o'rtacha qiymatini aniqlash, haydash sifatiga baho berish Dala tajribasining asosiy vazifasi ma'lum tuproq-iqlim sharoitida ekin ekip o'stirishning tajribada o'rganiladigan usullariga qiyosiy baho berishdan iborat.

Dala tajribasi natijalari asosida ishlab chiqarishga joriy etish uchun yangi agrotexnikaviy usullar ishlab chiqiladi. Dala tajribasi natijalarining ilmiy qimmati va ishlab chiqarishda qo'llanilishi, bu tajribalarni o'tkazayotganda metodik talablar qanchalik to'g'ri bajaril-ganligiga bog'liq. Shuning uchun hisobga olish va kuzatishlar tegishli tajribalarni o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan metodikaga muvofiq olib boriladi.

Yerga asosiy ishlov berishni o'rganishga oid tajribalarda hisobga olish ishlari kuzda alohida variantlar bo'yicha yerga ishlov berishning o'rtacha chuqurligini aniqlash bilan boshlanadi. Ana shu maqsadda, tajriba uchast-kasining yeri haydalayotganda haydash chuqurligini o'lhash zarur (egat o'lchagich yoki oddiy lineykada). Chuqurlik plug ikkinchi marta o'tgandan keyin o'lchanadi. Haydash chuqurligi (sm hisobida) egat tagidan ishlanmagan tuprok yuzasigacha bo'lган oraliqni o'lhash yo'li bilan aniqlanadi.

Haydash chuqurligi goning uzunligiga qarab, plunning har bir yurishida bir xil oraliqdagi 5—10 joyda o'lchanadi. Har bir o'lhash natijasi daftarga yozib boriladi. Mazkur yozuvlar haydash chuqurligini va belgilangan chuqurlik o'zgargan-o'zgarmaganligini aniqlash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Haydash chuqurligi har bir variantning ayrim paykallari bo'yicha takrorlash bilan yozib boriladi, har qaysi paykal bo'yicha olingan ma'lumot (sonlar) jamlanib, o'lhashlar soniga taqsimlanadi, ya'ni o'rtacha chuqurlik quyidagi tenglamaga muvofiq aniqlanadi:

$$M = \frac{\sum^* a}{n},$$

bu yerda: M — o'rtacha kattalik, sm;  $\sum$  — yig'indi belgisi; a — har bir o'lhashda chuqurlikning kattaligi; n — o'lhashlar soni.

So'ngra tajribalarni takrorlash bo'yicha olingan o'rtacha sonlar jamlanib, takrorlashlar soniga taqsimlanadi va shu tarzda variant bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi aniqlanadi:

$$M_v = \frac{\sum M}{r},$$

bu yerda:  $M_v$  — variant bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi;  $\sum M$  — takrorlashlar bo'yicha o'rtacha chuqurliklar yig'indisi; r — takrorlashlar soni.

Chigit ekish uchun yerga asosiy ishlov berishning har xil variantlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalardan misol keltiramiz.

1. *Yerga chimqirqarli oddiy plugda ishlov bershi* (Bu misolda yerga ishlov berish chuqurligi va g'o'za maysalariga doir to'rtinchgi takrorlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilmaydi.)

Takrorlash bo'yicha haydash chuqurligiga doir raqamlarning quyidagi qatori olingan.

### Birinchi takrorlash

28 29 29 29 28 26 26 28 30 28 27 29 31 28 32 28 27 33 34 34 31  
28 29 29 27 24 27 29 27 34 28 29 29 27 31 33 27 29 27 33 30 34  
30 27 27 30 31 25 30 25 27 27 32 30 32 30 27 27 34 34 31 30  
29 28 25 28 26 29 29 28 34 28 29 27 28 30 33 31 30 31 31 36 31  
28 28 34 24 29 33 27 27 29 36 28 32 29 29 30 31 29 32 32 27 35

Barcha o'lhashlar bo'yicha chuqurliklar yig'indisi:

$$\sum a = 3018.$$

O'lhash sona  $n = 105$  ga teng.

Haydashning o'rtacha arifmetik chuqurligi quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$M_1 = \frac{\sum a}{n} = \frac{3018}{105} = 28,7 \text{ sm},$$

### Ikkinchi takrorlash

27 26 28 29 27 29 28 28 29 28 27 27 26 27  
29 28 27 28 28 27 27 27 28 29 28 29 27 28  
27 27 28 28 27 29 29 27 27 27 27 29 27 29  
28 28 28 27 29 29 27 27 29 28 28 27 27 30  
28 27 29 29 27 28 28 29 28 29 27 28 28 27

Ikkinchi takrorlash bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi:

$$M_2 = \frac{\sum a}{n}, \text{ bunda } \sum a = 1948; n = 70,$$
$$bu yerda: M_2 = \frac{1948}{70} = 27,8 \text{ sm}.$$

### Uchinchi takrorlash

29 28 27 28 27 29 26 27 29 30 30 30 28 28 28 27 30 30 29  
28 29 28 29 28 27 27 27 29 29 28 29 29 28 30 28 29 28 28  
30 28 28 27 28 28 27 28 28 29 29 28 28 28 29 30 28 28  
28 28 28 28 27 28 27 28 27 28 28 28 27 27 27 28 28 29 28  
30 27 27 27 29 27 28 29 28 28 27 27 26 27 28 30 28 28 29

Uchinchi takrorlash bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi:

$$M_3 = \frac{\sum a}{n}, \text{ bunda } \sum a = 2672; n = 95,$$

$$bu yerda: M_3 = \frac{2672}{95} = 28,1 \text{ sm}.$$

Uch marta takrorlash bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligini ( $M_1 = 29,4 \text{ sm}$ ;  $M_2 = 27,8 \text{ sm}$  va  $M_3 = 28,1 \text{ sm}$ ) bilib olgach, quyidagi formulaga muvofiq variant bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi hisoblanadi:

$$M_v = \frac{\sum M}{v} = \frac{28,4 + 27,8 + 28,1}{3} = 28,1 \text{ sm}.$$

Takrorlash ko'p sonda bo'lganda o'rtacha ma'lumot ularning faktik miqdoridan hisoblab chiqariladi.

*2. Yerga otvalsiz plugda ishlov bershi*

Birinchi takrorlash

38 41 42 44 38 41 46 41 40 38 45 44 41 40 40 44 39 43 40  
 40 41 44 43 36 42 45 50 41 43 47 42 42 42 43 43 41 44 45  
 36 38 45 46 37 43 46 45 40 39 46 43 46 41 42 44 42 43 44  
 35 39 43 49 40 45 48 48 39 45 47 46 43 44 40 43 44 46 43

Birinchi takrorlash bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi:

$$\sum a = 3232$$

$$\sum a = 3232; n = 76, \text{ bunda } M_1 = \frac{\sum a}{n} = \frac{3232}{76} = 42,5 \text{ sm.}$$

Ikkinci takrorlash

38 42 44 45 37 41 43 40 38 41 48 44 43 43 45 45 40 45  
 41 38 45 43 40 39 42 42 41 40 42 40 42 48 44 43 42 46  
 42 39 45 42 39 41 44 43 39 41 43 40 40 45 46 44 45 44  
 40 39 46 44 50 43 46 40 40 40 42 46 40 45 46 46 44

Ikkinci takrorlash bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi;

$$\sum a = 3019$$

$$\sum a = 3019; n = 71, \text{ bunda } M_2 = \frac{\sum a}{n} = \frac{3019}{71} = 42,5 \text{ sm.}$$

Uchinchi takrorlash

42 43 44 43 44 45 47 43 44 40 43 42 43 42 44 45 43 34 41 41 43  
 41 42 42 44 43 45 41 42 45 43 44 44 44 45 43 44 44 43 42 42 40  
 40 41 43 42 46 44 44 42 42 42 44 42 45 44 42 43 43 44 43 44 43  
 44 37 41 41 47 43 40 41 43 40 40 43 46 40 45 42 42 40 42 45 42  
 43 44 42 42 43 42

Uchinchi takrorlash bo'yncha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi

$$\sum a = 3856$$

$$\sum a = 3856; n = 90, \text{ bunda } M_3 = \frac{\sum a}{n} = \frac{3856}{90} = 42,8 \text{ sm.}$$

Uch marta takrorlashda variant bo'yicha ishlov berishning o'rtacha chuqurligi:

$$\sum M = 42,5 + 42,5 + 42,8$$

$$M_v = \frac{\sum M}{R} = \frac{42,5 + 42,5 + 42,8}{3} = 42,6 \text{ sm.}$$

Shunday qilib, asosiy ishlov berish chuqurligi tajribaning ikkita varianti bo'yicha berilgan chuqurlikka deyarli mos keladn (27—28 sm va 40—42 sm).

## **20-Mavzu: G'o'za maysalarini unib chiqishini xisobga olish.**

**Mashg'ulotning maqsadi:** G'o'za maysalarini unib chiqishini uch muddatda hisoblash, Dala tajribalarida o'rganiladigan omillar asosiy ekinlarning o'sishi va rivojlanish bilan birga ularning unib chiqishiga ham ta'sir etishi mumkin. SHunday asosiy omillar o'rganiladiki, bunda faktor to'g'ridan to'g'ri chigitning unib chiqishiga ta'sir qilishi mumkin. Bunday faktorlarqatoriga tuproqni ustki qismiga issiqlik yutuvchi moddalardan sepish, chigitga o'stiruvchi moddalar ta'sir ettirishi va shu kabilar kiradi. Lekin, agrotexnik tajribalarda ham chigitni unib chiqishi hisobga olinsa, olingan ma'lumotlarning qimmati yanada oshadi. Agrokimyoviy dala tajribalarida qo'llanilgan yuqori me'yordagi ma'danli, ayniqla azotli o'g'itlar chigitning unib chiqishiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Hamma azotli o'g'itlar tuproq namida o'ziga issiqlikni yutilishi evaziga (endotermik reaktsiya tuproq harorati birmuncha pasayadi. Ma'lumki, chigitni unib chiqishi uchun +84°С samarali harorat talab etadi. Bundan tashqari, tajriba maydonidagi chigitlarning qiyg'os tekkis unib chiqishi, keyingi agrotexnik tadbirlarni, shu bilan birga paxta hosili uchun ham ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dala tajribalarida chigitni unib chiqishi darajasini aniqlash usuli va soni tajribaning maqsadiga bog'lik. Agar tajribada o'rganilayotgan faktor to'g'ridan to'g'ri chigitning unib chiqishiga ta'sir etsa, u holda chigit unib chiqish boshlangan kundan boshlab, har kuni hisobga olinadi va chigitning unib chiqishi sur'ati aniqlanadi.

Dala tajribalarida o'rganilayotgan qisman ta'sir etish hisobga olinayotgan bo'lsa, ch'ni hamma agrotexnik tajribalarda chigitning unib chiqishini hisobga olish, olingan ma'lumotlarni to'ldirish yoki tasdiqlash maqsadida bo'lsa, u holda kuzatuv chigit unib chiqish boshlagandan boshlab kamida uch muddatda amalga oshiriladi.

1. Unib chiqish boshlanganda.
2. Qiyg'os unib chiqqan paytda.
3. Maysalar to'liq unib chiqqan paytda.

Har ikkala holda ham chigitni unib chiqishi darajasini hisobga olish uchun dastlabki hisobga olish qatorlarida mavjud bo'lgan nazariy uyalar soni hisoblab chiqiladi. Nazariy uyalar soni eni, chigitni ekish sxemasi asosida hisoblab chiqiladi. Agar chigitni ekish sxemasi  $90 \times 15 - 1$  bo'lsa, agatning uzunligi 50 m. bo'lsa va hisobga olish qatorlari soni 4 ta bo'lganda, u holda hisobga olish maydonidagi nazariy uyalar soni quyidagicha aniqlanadi: Uyalar orasidagi masofa 15 sm. (0,15 m.) bo'lganda 50 m.dagi uyalar soni aniqlanadi:

$$0,15 - 1$$

$$50 - X \quad X = \frac{50 \times 1}{0,15} = 333,3 \text{ дона}$$

Hisobga olish qatorlari soni 4 ta bo'lganligi uchun, bitta qatordagi uyalar soni 333,3 ni 4 ga ko'paytirib, hisobga olish maydonidagi jami uyalar soni yoki nazariy uyalar sonini aniqlaymiz.  $333,3 \times 4 = 1333,2$  dona.

Tajriba maydoniga ekilgan chigit tuproqdagi namlik va harorat yetarlik bo'lganida, agronomik nuqtai nazardan unib chiqish kuni aniq bo'ladi. SHu kundan bir ikki kun oldin borib xabar olinadi va chigitni unib chiqishini hisobga olish uchun tayyorgarlik ko'rildi. Bunda variant va qaytariqlar bo'yicha hisobga olish qatorlari ajratib chiqiladi. Tajriba maydonida chigit 15 aprel kuni ekilgan bo'lsa, u holda agrotexnik tajribalarda chigit unib chiqishi quyidagicha hisoblab chiqiladi.

Dastlabki hisobga olish 1 variantda 23 aprel kuni amalgalashirilganda unib chiqqan uyalar soni 134 donani tashkil etadi, deb faraz qilaylik.

Keyingi hisobga olish 26 aprelda 715 ta uyadagi chigit unib chiqqan bo'lsa, oxirgi hisobga olish kunida esa, ya'ni 29 aprelda 1250 ta uyadagi chigit unib chiqsa, u holda unib chiqish darajasi quyidagicha aniqlanadi:

23 aprel, 1333,2 – 100 %

$$134 - X \quad X = \frac{134 \times 100}{133,2} = 10,1 \%$$

26 aprel, 1333,2 – 100 %

$$715 - X \quad X = \frac{715 \times 100}{1333,2} = 53,4\%$$

26 aprel, 1333,2 – 100%

$$1250 - X \quad X = \frac{1250 \times 100}{1333,2} = 93,1\%$$

Qolgan hamma variant va qaytariqlardagi chigitlarning unib chiqishi darajasi ham shu usul bilan aniqlanib chiqiladi. Olingan ma'lumotlar asosida variantlardagi farqlar solishtirilib, faktorning chigitni unib chiqishiga ta'sir etishi aniqlanadi.


CHigitni unib chiqish grafigidan ko'rinish turibdiki, samarali xarorat va unib chiqish darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni grafik asosida ko'rsatilsa, ta'siri yanada ravshan ko'rindi (14 rasm).

CHigitni unib chiqishi grafigidan ko'rinish turibdiki, unib chiqish kunlari ortib borishi bilan unib chiqqan uyalar soni to'g'ri proporsional holda ortib borar ekan, shu bilan birga unish sur'ati ham keskinlashar ekan.

Kuzgi g'alla don ekinlarini unib chiqishini va ko'chat qalinligini xisobga olish uchun hamma tomonlari  $0,5 \times 0,5 = 0,25 \text{ m}^2$  lik ramkalardan foydalaniladi.

Kuzgi g'alla don ekinlarini unib chiqishini hisobga olish uchun, avvalam bor  $1 \text{ m}^2$  chasi tushgan yoki tushishi kerak bo'lган о'rtacha don miqdori va uni unuvchanlik darajasi hisobga olingan xoldagi nazariy o'simliklar sonini aniqlash kerak. Buning uchun bir gektar maydonga rejalashtirilgan urug' miqdori ( $250 \text{ kg/ga}$ ), 1000 dona urug'ni massasi (45 gr) aniq bo'lгanda nazariy o'simliklar soni quyidagicha aniqlaniladi. 1000 dona urug' – 45 gr bo'lsa

$$X = 250000 \text{ gr} \quad X = \frac{1000 * 250000}{45} = 5555555,6 \text{ дона}$$



**14-chizma. Xarorat va unib chiqish o'rtaсидаги bog'liqlik**

Ko'rinib turibdiki bir ga maydonda 5555555,6 dona urug' mavjud bo'ladi. Bir gektar maydonda  $1 \text{ m}^2$  maydonda esa 556 dona bo'lshi biz uchun nazariy don keyinchalik esa nazariy o'simliklar sonini beradi.

Unib chiqishni aniqlashda unib chiqgan o'simliklar soni hisoblanib shu nazariy o'simliklar soniga nisbatan foyiz bilan aniqlaniladi. Agar aniqlanilganda  $1 \text{ m}^2$  da o'rtacha 60 dona o'simlik unib chiqgan bo'lsa u xolda unib chiqish darajasi quyidagicha aniqlaniladi.

$$\begin{array}{rcl} 556 - 100 & & X = \underline{60 \times 100} = 10,8 \% \text{ ga teng} \\ 60 - X & & 556 \end{array}$$

Unib chiqishni aniqlashga tajribaning xisobga olish maydonining xamda 10 – 15 joyidan na'muna oliniladi va o'rtacha qiymat chiqariladi.

Kuzgi g'alla don ekinlarini ko'chat qalinligi ham  $0,25\text{ m}^2$  lik yuzaga ega bo'lган ramkalardan foydalanilib aniqlaniladi. Unib chiqish to'liq bo'lgandan keyin tuplanish darajasini ham aniqlash mumkin. Bu esa tajriba mavzuining maqsadiga bog'liq.

Tajribada kuzgi g'alla don ekinlarini qishga chidamlilik, qurg'oqchilikga chidamlilik darajasi, yotib qolishga chidamliligi, donni sifati, tarkib, xamir bo'lism darajasi kabi ko'rsatkichlar aniqlanilsa olingan ma'lumotlar boy bo'lib to'g'ri va aniq xulosa chiqarishga yordam beradi. Mayda bo'laklarda olib boriladigan tajribalarda variantlar sonini 20 tagacha oshirishi mumkin. Ammo tajriba maydonining yuzasi shu maydondagi tajriba ishlarining hammasini bir vaqtda o'tkazishga imkon beradigan bo'lsin.

Variantlar soni 10 dan oshgandan keyin, har 5 ta variantdan keyin nazorat yoki solishtiriladigan variant joylashtirilishi kerak, qayta-riqdagi variantlar soni 5 tadan 8 taga qadar variantni o'z ichiga olgan tizim bo'yicha o'tkaziladigan to'rt qaytariqli oddiy tajribalarda variant-ning umumiyl maydoni 200 dan 500 kvadrat metrgacha bo'lism shart. Ishlab chiqarish tajribalaridan esa paykalning hajmi 0,1 getkardan bir necha gektargacha bo'lism mumkin.

**Kerakli jihozlar va asboblar:** Tarqatma materillar, kalkulyator, chizg'ich.

**Topshiriq:** G'o'za maysalarini unib chiqishini ani klash.

## **21-Мавзу: G'O'ZANING BO'YI, ShOXLARI, VA HOSIL ELEMENTLARINI HISOBGA OLISH.**

**Ishning maqsadi:Tajribalarda g'o'za o'simligi ustida fenologik kuzatuv olib boorish tartiblarini o'rganish.**

Barcha takrorlashda har qaysi variantda o'simliklarni kamida quyidagi miqdorda:

- a) shonalash, gullah tezligi, yetilish tezligi va boshqalarni hisobga olish uchun—25 tadan;
- b) hosil tugishini hisobga olish uchun—50 tadan;
- v) o'simliklarning bo'yini (balandligini) o'lchash, barglar, meva shoxlari sonini hisoblash, gullah, yetilish prosentini, shakllangan ko'raklar va boshqalarni aniqlash uchun—100 tadan o'simlik olish tavsiya etiladi.

Kuzatuvlar **birinchi marta** (bosh poya balandligini o'lchash va chinbarg (bo'g'in)lar sonini hisoblash) 1 iyunda;

**ikkinci marta** (hosil shoxlari, shona, gul va tugunchalarni sanash) 1 iyulda; **uchunchi marta** (bosh poyaning bo'yi, hosil shoxlari va ko'saklar sonini hisoblash) 1 avgustda o'tkaziladi. Ba'zi hollarda ish dasturiga binoan, bosh poya balandligini o'lchash va ko'saklarni sanash 1 sentyabrda, ayrim tajribalarda bu amallar tig'iz muddatlarda ham amalga oshiriladi.

Bosh poya balandligi urug'palla o'rnidan bosh poyaning o'sish nuqtasiga qadar bir santimetrgacha aniqlik bilan o'lchanadi.

Qayd etilgan barcha hisob va kuzatuvlar nihollarning unib chiqishi hamda shonalagan o'simliklarni sanashda ajratilgan bo'lakcha-maydonchalardagi g'o'zalarda amalga oshiriladi. Bu o'simliklarda shuningdek, gullah va ko'saklar ochilishi ham aniqlanadi.

G'o'zaning gullashini kuzatish orqali ma'lum sanada tajriba variantlaridagi o'simliklardan necha foizi gullagani aniqlanadi. Ko'pchilik tajribalarda kuzatishlar 95-100 % o'simlik gullaguncha davom ettiriladi.

Gullahni kuzatishda o'simliklardagi gullar soni emas, balki ushbu bosqichga kirgan o'simliklar hisobga olinadi. Bunda kuzatish kunida guli bo'lgan o'simliklar bilan birga gultoji bargi to'kilmagan yoki hosil bo'lgan tugunchalar ham sanaladi. Shunday hollar ham uchraydiki, o'simlikda goho hosil tugunchasi mavjud (gultoji bargi to'kilgan), lekin gullar yo'q bo'ladi.

Kuzatuvlar 3-5 kun oralatib, 3-4 marta o'tkaziladi. Ularning qaytarilishi tajriba xususiyatlariga ko'ra, ish dasturiga muvofiq belgilanadi.

Ko'saklar ochilishini kuzatish dastur asosida 3-4 marta o'tkaziladi. Bunda tajribaning xususiyatidan kelib chiqiladi. Dastlabki kuzatish o'simliklarning 10-15 % ida ko'sak ochilganda boshlanadi. Bu tadbir har 3-5 kunda o'tkazilib, o'simliklarning 50-75 yoki 100 %ida ko'saklar ochilguncha davom ettiriladi.

Tolasi chanoqdan chiqib turgan ko'sak **ochilgan** hisoblanadi va hisobga olinadi.

Ba'zi tajribalarda kuzatuvlar ko'sagi ochilgan o'simliklar bo'yicha emas, balki ochilgan ko'saklar bo'yicha olib boriladi. Bunday holda o'simlikda ma'lum sanaga ochilgan ko'saklar hisoblanadi va umumiy shakllangan ko'saklar soniga qarab foizi chiqariladi. Bu tarzda hisobga olish odatdagi kuzatuvlarga nisbatan ikki marta kam o'simlik ajratiladi.

## **22-Mavzu: Kuzgi bug'doyda ko'chat qalinligi (o'simlik tup soni)ni aniqlash uchun fenologik kuzatishlar o'tkazish**

**Ishning maqsadi** - Dalada bug'doyning ko'chat qalinligi tajribaning barcha variant va qaytariqlarida 1 va 3 takrorlanishlarida, barcha variantlarda aniqlanadi.

**Kerakli jixozlar:** 1m kv rom, kanob ip, qoziqchalar,qora qalam, dala daftari,kalkulyator.

**Tajriba joyi:** dala

Kuzgi bug'doyda ko'chat qalinligi amal-o'suv davri davomida ikki marta, amal-o'suv davri boshida va ohirida aniqlanadi. Ko'chat qalinligi o'suv davrining ohirida aniqlanishi o'rganilayotgan hamda dasturda belgilangan va tashqi omillarning ko'chat qalinligiga ta'sirini belgilaydi.

Dalada bug'doyning ko'chat qalinligi tajribaning barcha variant va qaytariqlarida 1 va 3 takrorlanishlarida, barcha variantlarda aniqlanadi.

Ko'chat qalinligini aniqlash uchun har bir variantda dioganallar bo'yicha  $1\text{ m}^2$  o'lchamda doimiy koziqlar qoqilgan uch nuqta belgilab olinadi (zinapoya shaklida). Bu nuqtalarda barcha fenologik kuzatuvlar bug'doyning amal-o'suv davri oxirigacha olib boriladi. Kuzgi bug'doyning amal-o'suv davri boshida ko'chat qalinligini aniqlash ishlari to'la maysalar hosil bo'lganda o'tkaziladi. Amal-o'suv davri oxirida esa qolgan fenologik kuzatuvlarni laboratoriya sharoitida davom ettirish uchun belgilab qo'yilgan joylardan o'simliklar extiyotlik bilan qazib olinadi, rivojlanish davrida bir-biriga qo'shilib ketgan tuplar ajratiladi va xaqiqiy ko'chat qalinligi aniqlanadi. Qazib olingen bug'doy tuplari nuqtalar bo'yicha aloxida  $(1\text{ m}^2 \text{ dagi})$  bog'lam qilinib, boshoqlari qog'oz bilan o'rav qo'yiladi.

Aloxida-aloxida bog'langan bog'lamlarda quyidagilar aniqlanadi:

- xaqiqiy ko'chat qalinligi, (tup soni),  $1\text{ m}^2$ , dona;
- tupdagi umumiy poyalar soni,  $1\text{ m}^2$ , dona,
- hosilli (boshoqli) poyalar soni  $1\text{ m}^2$ , dona;
- boshoqdagi don soni, dona;

Boshoqdagi don soni esa, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$D_s = \frac{ax100}{b} : c;$$

Bunda:  $D_s$ — boshoqdagi don soni, dona; a— $1\text{ m}^2$  dagi don og'irligi, g;

b—ming dona don og'irligi, g; s-boshoqli poyalar soni, dona.

Masalan: Biz taxlil qilayotgan nuqtalardan biridagi ( $1\text{ m}^2$ da) don og'irligi 360 g, 1000 dona don og'irligi esa 40 g, boshoqli poyalar soni 300 donani tashkil etsa,

$$D_s = \frac{360 \times 1000}{40} : 300 = \frac{360000}{40} : 300 = 9000 : 300 = 30 \text{ dona}$$

Demak, ushbu nuqtada bitta boshoqdagi donning o'rtacha soni 30 donani tashkil etadi;

-o'simlik asosiy poyasining balandligi va boshoq uzunligi, sm. O'simlik asosiy poyasining balandligi uning xolatiga qarab, mart, aprel, may, iyun oylarining birinchi kunida va oxirgi marta o'rimdan oldin belgilangan nuqtalarda amalga oshiriladi. Boshoq uzunligi esa, faqat bir marta-o'rimdan oldin aniqlanadi;

- qirqib olingen bog'lamning og'irligi, g. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun bog'lamdagи bug'doyning tuplanish bo'g'ini yuqorisidan 15 sm qoldirilib, qirqiladi va bog'lam tarozida tortiladi;

- bog'lam boshoqlaridagi don og'irligi, g. Belgilangan maydondan olingen bog'lamdagи boshoqlar yanchiladi, tozalanadi va tarozida tortiladi. Olingen natijani mahsuldor poyalar soniga

bo‘lib, bitta boshoqdagi don og’irligi aniqlanadi. Masalan;  $1\text{m}^2$  dagi don og’irligi 420 g ni, mahsuldor poyalar soni 310 donani tashkil etsa,

$$D_v = \frac{\dot{a}}{\tilde{n}};$$

Bunda:  $D_v$ - bitta boshoqdagi don og’irligi, g;

$a$ - $1\text{m}^2$  dagi don ogirligi, g;

$s$ —maxsuldor poyalar soni, dona.

$$D_v = \frac{420}{310} = 1,35 \text{ g}$$

Demak, bitta boshoqdagi don og’irligi 1,35 g;

— boshoqdagi qatorlar soni va har bir qatordagi don soni ham belgilangan o‘sha nuqtalardan olingan bog’lamlardagi boshoqlarda aniqlanadi. Bu amal, ayniqsa, bug’doyning nav sinoviga yo‘naltirilgan tajribalarda amalga oshirilishi muxim ahamiyatga ega;

— 1000 dona don og’irligini aniqlashda belgilangan har bir nuqtadan ( $1\text{m}^2$  dan) olingan hamda yanchilgan dondan sanab, ming dona ajratiladi va tarozida tortiladi;

— don va somon hosildorligi. Kuzgi bug’doyning don va somon hosildorligi barcha takrorlashlardagi har bir variantda aloxida belgilangan 3 nuqtadan olingan o‘simlik namunalarida aniqlanadi Buning uchun 3 nuktadan olingan va yanchilib, tarozida alohida tortilgan don og’irligi yig’indisi uchga bo‘linadi va  $1\text{m}^2$  dagi donning o‘rtacha og’irligi aniqlanadi:

$$Ay = \frac{a_1 + a_2 + a_3}{3}$$

Bunda:  $A_o$  -  $1\text{m}^2$  dagi donning o‘rtacha og’irligi, g;

$a_1$  - birinchi nuqtadagi don og’irligi, g;

$a_2$  — ikkinchi nuqtadagi don og’irligi, g;

$a_3$  — uchinchi nuqtadagi don og’irligi, g.

$1\text{ m}^2$  da aniqlangan o‘rtacha don og’irligi getkta hisobida aniqlanadi:

$$D_x = A_o \times 10000 \text{ m}^2 (1 \text{ ga});$$

Bunda:  $D_x$  - don xosildorligi:

$A_o$  —  $1\text{ m}^2$  dagi donning o‘rtacha og’irligi, g;

Masalan, donning nuqtalar bo‘yicha og’irliklari  $1\text{ m}^2$  da  $a_1$ -423,  $a_2$ -387,  $a_3$ -410 gramm bo‘lsa, unda o‘rtacha don og’irligi 406,6 grammni tashkil etadi.

Demak,  $A_o$  - 406,6 g. Bunda  $D_x = 406,6 \times 10000 = 4066000,0$  g. Buni tonnaga aylantirsak 4,066 t, ya’ni 40,06 sentnerni tashkil etadi.

Somon hosildorligi ham shu tarzda anikdanadi.

### ***jadval***

#### **Kuzgi bug'doyning don va somon hosildorligini aniqlash uchun namunaviy shakl**

| № | 1 m <sup>2</sup><br>dagi<br>tup<br>soni,<br>dona | Tupda-<br>gi umu-<br>miy<br>poya-<br>lar soni,<br>m <sup>2</sup> /dona | Mah-<br>suldor<br>poyalar<br>soni,<br>m <sup>2</sup> /dona | Bitta<br>boshoq-<br>dagi<br>don<br>soni,<br>dona | O'sim-<br>lik<br>bo'yil<br>sm<br>(oylar<br>bo'yicha) | Bog'lam<br>(snop)<br>og'irli-<br>gi, g. | Bitta<br>boshoq-<br>dagi<br>don<br>og'irli-<br>gi, g | Bo-<br>shoq<br>uzun-<br>ligi,<br>sm | 1000<br>dona<br>don<br>og'ir-<br>ligi,<br>g | Biologik<br>hosil, s/ga |       |
|---|--|--|--|--|--|---|--|-------------------------------------|---|-------------------------|-------|
|   |  |  |  |  |  |   |  |                                     |   | don                     | somon |
|   |  |  |  |  |  |   |  |                                     |   |                         |       |

Tajribadagi o'rim-yigim vaqtida yo'qotilgan don xosili quyidagicha aniqlanadi:

Tajriba dalasida o'rim-yig'im ishlari davomida takrorlanishlarning hamma variantlaridagi uch nuqtadan diagonal bo'yicha 1 m<sup>2</sup> hajmdagi maydon ajratib olinadi. Ajratib olingan maydondagi to'kilgan don, uzilib qolgan boshoqlar terib olinadi va tarozida o'lchanadi. Nuqtalardan yig'ib olingan don og'irliklarining o'rtacha hisobi chiqarilib, bir gektarda o'rim-yig'im vaqtida yo'qotilgan don xosili aniqlanadi.

Eslatib o'tish joizki, kuzgi bug'doyning ayrim navlari kuchli shamol ta'sirida yoki ildizlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli meyordan ortiq sug'orilganda «yotib» qolishi mumkin. Bunday xolatda dala bo'yicha bug'doy poyalari «yotib» qolgan joylar aniqlanadi va o'lchab chiqiladi. O'rim-yig'imni boshlashdan oldin esa, joylardagi bug'doy, arpa (agar kam bo'lsa) o'riladi, «yotib» qolgan bug'doylar bilan band maydon ko'p bo'lsa, maxsus jatkalar yordamida o'rib olinadi va keyinchalik kombaynlarda yanchiladi.

Ildiz va ang'iz qoldiqlarini hisoblash.

Kuzgi bug'doyda ildiz va ang'iz qoldiqlari tajribaning barcha takrorlanishlarida aniqlanishi kerak.

Buning uchun tajribaning har variantidan diagonal bo'yicha uch nuqta belgilab olib, 25x25 sm kenglikda tuproqning har 10 sm qatlamidan (0-10, 10-20, 20-30 va h.k.) 1 metrgacha tuproq olinadi. Olingan tuproq namunalari teshikchalari diametri 1 mm bo'lgan maxsus elaklarda yuviladi. Yuvib olingan ildizlar yaxshilab quritiladi va 0,1 g aniqlikkacha o'lchaydigan maxsus tarozilarda tortiladi, 1 m<sup>2</sup> hisobida hisoblanadi va tegishli tartibda xisobga olish maydoni yoki 1 gektardagi ildiz va ang'iz qoldiqlari aniqlanadi.

Masalan, har bir nuqtadan (50x50 sm.dan) tegishli ravishda 85,4; 92,6; 73,5 g bug'doy ildizi va ang'iz qoldiqlari aniqlansa, unda ularning o'rtachasi 83,8 g.ni tashkil etadi.

$$N_{\kappa} = \frac{K_1 + K_2 + K_3}{3} = \frac{85,4 + 92,6 + 73,5}{3} = \frac{251,5}{3} = 83,8 \varrho$$

Demak, olingan  $83,8 \text{ g} \cdot \text{ni } 1 \text{ m}^2$  maydonga hisoblaymiz.

$$O'q = I_q \times N_s = 83,8 \times 4 = 335,2 \text{ g.}$$

Ko‘rinib turibdiki,  $I \text{ m}^2$  da bug’doyning ildiz va ang’iz qoldig’i  $335,2 \text{ g.}$  Gektar bo‘yicha bug’doyni ildiz va ang’iz qoldig’i quyidagicha hisoblanadi:  $AI_q = U_q \times 10000 \text{ m}^2 = 335,2 \times 10000 \text{ m}^2 = 3352000 \text{ g}$  yoki  $3352 \text{ kg}$  yoki  $3 \text{ tonna}$   $352 \text{ kg}$  yoki  $33,5 \text{ s/ga.}$

Bu yerda:  $I_q - 25 \times 25 \text{ sm}$  dagi ildiz va ang’iz qoldig’i, g.

$K_1, K_2, K_3$  - belgilangan nuqtalardagi ildiz va ang’iz qoldiqlari, g.

$O'q$  - bug’doyning  $1 \text{ m}^2$  dagi o‘rtacha ildiz va ang’iz qoldig’i, g.

$AI_q$ , - bug’doyning bir gektardagi ildiz va ang’iz qoldig’i, g.

Kuzgi bug’doyning qishlash darajasini va nobud bo‘lgan o‘simliklar sonini aniqlash quydagicha amalga oshiriladi.

Kuzgi bug’doy o‘simliklarining variantlar bo‘yicha qishlashdan oldingi soni qishlashda va qishlashdan keyingi soni bilan taqqoslab o‘rganish ularni sovuqqa qay darajada chidamliligin va kelgusida olinadigan hosil salmog’ini belgilaydigan ko‘rsatkichlardan biridir.

Kuzgi bug’doyning sovuqqa chidamlilik darajasini aniqlash maqsadida sovuq tushgandan so‘ng har oyning uchinchi o‘n kunligida tajribaning ikkita takrorlanishidagi tipik va tipik bo‘lmagan joylardan tuproq bilan birga o‘simlik namunalari qazib olinadi.  $20 \text{ sm}$  chuqurlikda  $25 \text{ sm}$  li monolit yordamida maxsus qazish moslamalari bilan qazib olinganda bu namunalarning tuplanish bo‘g’ini va ildiz tizimiga zarari yetmasligi lozim.

Namunalarni taxlil qilishdan oldin o‘simlikning rivojlanish davri, tushgan qor qalinligi yoki muzlagan qatlam qalinligi va boshqa o‘simliklarning nobud bo‘lishiga ta’sir etgan omillar aniqlanadi. Qazib olingan namunalar extiyotlik bilan laboratoriyyaga olib kelinadi va usti namlangan qop yoki boshqa material bilan yopilib,  $5-6 \text{ }^{\circ}\text{S}$  xaroratda  $3-5 \text{ kun}$  saqlanadi. Namunadagi muzlagan qatlam erigandan so‘ng uning ustini ochib, harorati  $15-20 \text{ }^{\circ}\text{S}$  bo‘lgan yorug’ xonaga joylashtiriladi va shu holatda  $15-20 \text{ kun}$  saqlanadi. Keyinchalik namunalardagi bug’doy bargining rangi, nobud bo‘lgan o‘simliklar soni, tupda nobud bo‘lgan va bo‘lmagan poyalar soni, umuman zararlanmagan tup va undagi poyalar soni aniqlanadi. Xisoblashni boshlashdan oldin barcha o‘simlik tuplari tuproqdan tozalangan va ildizlari yuvilgan bo‘lishi kerak.

## Takrorlash uchun savollar

1. Agroximik omillar bilan bog'lik tajribalar turlari
2. O'g'it bilan bog'liq dala tajribalarda qaytariq va variantlarning maydonlari
3. Vegetatsion tajribalar uchun tizim asosida mineral o'g'itlar me'yorini aniqlash.
4. Dala tajribalarida o'g'itlar yillik me'yorini xisoblashning o'ziga xosligi
5. O'g'itlagich moslamalari , texnologiyalarini belgilangan me'yoriga sozlash.
6. Ma'danli o'g'itlarni tajriba tizimiga ko'ra g'o'zaningt o'suv davriga taqsimlash
7. Suvning o'simlik hayotidagi ahamiyati
8. Sug'orish bilan bog'liq dala tajribalarida maydon tanlashning o'ziga xos xususiyatlari

### **23-Mavzu: Begona o'tlarga qarshi kimyoviy kurash choralarining samaradorligini hisoblash.**

**Ishning maqsadi** - Begona o'tlarga gerbitsidlar va ularni qo'llash shart sharoitlari va me'yorlarini o'rganishdan iborat.

**Ishning mazmuni** – Dala, o'tloq va yaylovlardagi begona o'tlarni yo'qotishda kimyoviy moddalar gerbitsidlardan foydalilanadi.

**Kerakli jixozlar:** gerbisid lar, gerbisid sepadigan purkagich, o'lchov stakani, chelak, 0.25 sm kv rom, qora qalam, dala daftari, kalkulyator.

**Tajriba joyi:** dala


Begona o'tlarga qarshi kurashda qo'llaniladigan kimyoviy moddalar gerbitsidlar deb atalib, ularning begona o'tlarga ta'siri va samarasini ko'p jihatdan tuproqning turiga, mexanik tarkibiga hamda mavjud bo'lgan begona o'tlarning guruhiga bog'liqdir. Shuning uchun hamma tuproq sharoitlari uchun alohida dala tajribasi o'tkazish zarurdir.

Gerbitsidlar kimyoviy tarkibiga ko'ra agronomik va organik xususiyatga ega bo'lib, ta'siri bo'yicha esa tanlab ta'sir etuvchi va yoppasiga ta'sir etadigan turlarga bo'linadi. O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot institutida o'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha begona o'tlarga qarshi kurashda kimyoviy vositalarni qo'llash qo'lda o'toq qilishning o'rnini bosadi va mehnat sarfini 40 marotabagacha, pul harajatlarini esa 2-3 marotaba kamaytirishga imkon beradi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishni ta'minlaydi.

Madaniy o'simliklar biologik xususiyatlari bo'yicha bir va ikki pallalik xisoblanib, qullaniladigan gerbitsidlarning ta'siri ham o'simliklarning shu xususiyatlariga asoslanadi. qishloq xo'jaligida madaniy ekinlar ichida o'sadigan begona o'tlarning turi nihoyat darajada ko'p bo'lishi ularga kimyoviy usulda kurashish ishlarini ancha qiyinlashtiradi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirib, madaniy ekinlar ichida o'sadigan begona o'tlarning hammasini yo'q qilib yuborishga imkon beradigan gerbitsidlar va ularning aralashmalarini topish

kerak. Hozirgi kunda O'rta Osiyo sharoitida keng qo'lamda kotoran – 80, kotofor – 80, prometrin,



### **Gerbitsidlarni tarkibi va ta'sir etishiga ko'ra turkumlanishi**

treflan, gezagard, eradikan, agelon va 2,4 – D ni har xil efirlari va moylari yaxshi natija beradigan gerbitsidlar sifatida foydalanilmoxda.

Tajriba o'tkazish uchun begona o'tlar bir me'yorda tarqalgan maydonlar tanlanadi. Tajriba maydoni tuprog'ining mexanik tarkibi va agrokimyoviy ko'rsatkichlari hamda shu maydonning kamida ohirgi uch yillik tarixi o'rganiladi. Dala tajribaning oldiga qo'yilgan maqsadiga qarab bir necha xil masalalarni, ya'ni kelajagi bor bo'lgan yangi gerbitsidlarni tanlash, almashlab ekish dalalarda ularning me'yorini aniqlash, har xil omillar bilan birga ta'siri o'rganiladi.

Ba'zi gerbitsidlar (dalapon, treflan premetrin va boshqa) o'simliklar ildiz sistemasi va bargi orqali kirib xujayralarni va sekin-asta begona o'tni tupigacha nobud qiladi. Bu hollarda gerbitsidlarni begona o'tlar tanasiga o'tishini va o'simlik tanasida harakatini kuzatish shu bilan birga o'simliklarni kimyoviy analiz qilish kerak.

Gerbitsidlarni bilan dala tajribasi o'tkazishda, tajriba sxemasi kimyoviy moddalarni begona o'tlarga ta'siri va qayta ta'siri dalaning fitotsenozi o'zgarishi, gerbitsidlarni ekinlar hosildorligiga va hosilning ko'rsatkichlariga ta'siri; tuproq va o'simliklar tanasiga o'tish jadalligi, gerbitsidlarni atrof muhitga ta'siri, moddalarning iqtisodiy samaradorligi kabi savollarga javob beradigan holatda tuzishdan iboratdir.

O'rganilayotgan gerbitsidlar yangi ishlab chiqarilgan bo'lsa u holda ularning turlari bilan birga bir necha xil me'yordi va qo'llash usuli hamda muddatlari ham o'rganilishi kerak.

Gerbetsidlар та'siri о'рганилайотган hamma dala tajribalarida kимyовiy moddalarni begona o'tlarga ta'sir darajasini, uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun dastlabki variantni solishtiriladigan (kontrol) variant sifatida qoldirilib bu variantga kимyовiy moddalar qo'llanilmaydi, begona o'tlar jo'jalik usuli bilan yo'qotiladi.

Bu turdagи dala tajribalarida kимyовiy moddalarni me'yорини belgilashda qishloq xo'jalik ekiniga, uning mahsulot sifatiga hamda tashqi muhitga salbiy ta'sir qilmaydigan me'yорларни ishlab chiqish kerak.

Almashlab ekish dalalarida gerbitsidlarni ta'siri о'рганиладиган bo'lsa, qo'llanilayotgan gerbitsidlarning me'yori o'tmishdosh ekinning turiga mos hollarda to'liq rotatsiya davomida kuzatish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'p yillik dala tajribalarida har yili surunkasiga bir xil o'zgarishi mumkin. Ishlar hisobiga ham kимyовiy moddalarning samaradorligi kamayadi. Bunday hollarda gerbitsidlар turini o'zgartirib ko'rish evaziga, ularning samaradorligini oshirish mumkin.

Gerbetsidlар bilan bog'liq bo'lgan dala tajribalarida variantlarning maydoni tajribaning maqsadiga ham bog'liq bo'ladi. Tajribada yangi ishlab chiqilgan gerbitsidlarning ta'siri о'рганиладиган bo'lsa variantning maydoni 50-100 m/kv boshqa maqsadlarda o'tkaziladigan tajribalarda esa 100-400 m/kv gacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoitida olib boriladigan tajribalarda esa bu ko'rsatkich 1 gacha yetishi mumkin. Variantlarning maydonini belgilashda ishlov berishni va mashinaning qamrash kengliklarini hisobga olish kerak. Hamma hollarda ham ekish moslamasining yurish qatorlari soniga teng bo'lishi shart.

Olib borilayotgan tajribalarni va natijalarni aniqlik darajasini oshirish maqsadida, shu dalada variantlar tajribaning maqsadiga qarab bir necha marta qaytariladi. Kichik maydonlarda olib boriladigan dala tajribalarida qaytariqlar soni kamida 6-8 ta katta maydonagi tajribalarda esa 4 ta bo'lishi kerak.

Sug'orib dehqonchilik qilinadigan mintaqalarda hamma qaytariqlarni bitta yarusga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Gerbetsidlар shakli va formasiga qarab suvda eritib purkaladi yoki donador shaklda bo'lsa tuproqga solinadi. Kimyoviy moddalarning tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalarning miqdori har xil bo'lganligi uchun ularning me'yорини to'g'ri aniqlash kerak. Har gektar maydonga sarflanadigan gerbitsid me'yori quyidagi formula yordamida aniqlanadi. Qo'llaniladigan gerbitsidning me'yori

$$M = \frac{D \cdot 100}{T}$$

Bunda: M – gerbitsidning me'yori kg/ga hisobida,

D – ta'sir etuvchi modda miqdori 100% bo'lganligi

gerbitsidning dozasi kg/ga.

T – ta'sir etuvchi moddaning miqdori % hisobida.

Agar har gektar maydonga 1,5 kg dan katoran gerbitsid rejalahsgan bo'lsa, u holda uning me'yori quyidagicha aniqlanadi.

$$M = \frac{1,5 \cdot 100}{80} = 1,87 \text{ кг/га}$$

Diuron, monuron, fenuron va shu kabi boshqa gerbitsidlar suvgaga aralashtirilib solinadigan moylar suspenziya, suv eritmasi yoki amulsiya holida ishlataladi. Shuning uchun ekish turiga va tuproqqa urug' ekish sxemasiga qarab bir gektar maydonga sarf bo'ladigan yoki 1,87 kg/ga gerbitsidni eritish uchun talab qilinaligan suv miqdorini hisoblab chiqish kerak, bu esa quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$R = \frac{Q \cdot P \cdot 10 \cdot 60}{C \cdot III} : \text{bunda} - \text{bir gektar maydonga suyuqlik sarfi, L/ga} \quad Q - \text{bitta}$$

nakonechnik (ishchi apparat) dan bir minutda sarf bo'ladigan suyuqlik sarfi, L/min. P – nakonechniklar soni, Sh – qamrash kengligi, S – harakat tezligi, km/soat.

Ekish bilan birgan (qator orasi 60 sm.) katoran gerbetsididan 1 gektariga sarf qilinadigan suv sarfi quyidagicha aniqlanadi.

$$P = \frac{1,5 \times 4 \times 10 \times 60}{12} = 300 \text{ л/га}$$

Ekish vaqtida, traktorni harakat tezligi 5 km/soat bo'lganda bitta nakonechnikdan 1,5 ye/ml suyuqlik sarf bo'ladi. Demak, 1,87 kg katoran 80 ni 300 ye. suvda eritilib bir gektar maydonga sepish kerak. Bu holatdagi ishchi eritmaning konsentratsiyasini aniqlash mumkin.

$$K = \frac{M \cdot 100}{P} = \frac{1,87 \cdot 100}{300} = 0,623 \%$$

R-300 ishchi eritmaning konsentratsiyasi 0,623 % ni tashkil etdi.

Tajriba variantiga talab qilinadigan gerbitsidning miqdori esa quyidagicha aniqlanadi. Agarda variantning bo'yi 100 m, qator orasi 0,6 m bo'lib, bitta variantda 8 ta qator bo'lsa, umumiyligi maydoni  $480 \text{ m}^2 \text{ km}$ . ga teng bo'ladi. U holda variantning umumiyligi maydoniga talab qiladigan gerbetsid miqdori esa 10000 m.kv – 1,87 kg.

$$X = \frac{480 \cdot 1,87}{10000} = 0,090 \text{ кг} = 90$$

Dala tajribasida variantlardagi qatorlarning sonlari, ishlov berish texnikasining turiga ham bog'liq. Agar qo'lda yoki ekish bilan gerbitsid qo'llanilsa, variantlar o'rtasidagi qatorlari 2-3 ta bo'lsa kifoya. Traktor moslamalarida va har xil mexanizmlarda qo'llanilsa, u holda ta'sirini hisobga olinib variantdagи qatorlar soni ham ortib boradi.

Gerbitsidlarning ta'sirchanligini aniqlash maqsadida, tajriba variantlaridagi va ularning qaytariqlaridagi begona o'tlar hisobga olinadi. Hisobga olish ishlari doimiy qilib biriktirilgan yoki zarur vaqtida tanlanadigan hisobot maydonlarida o'tkaziladi. Zarur vaqtdagina tanlanadigan maydonchalar begona o'tlarning gerbetsidlar yoki o'suv davrida purkalgan gerbitsid moylar ta'sirlar bilan halok bo'lishini hisobga olish uchun bu o'tlarni ko'payishi, jadaligini va quruq massasini belgilash zarurati tug'ilgan vaqtda ajratiladi.

Doimiy hisobot maydonchalarida o'simlik ildizlarini va ildiz bachkilarini hisobga olish uchun zarur.

Gerbitsid purkalgandan keyin begona o'tlardan birinchi marta hisobga olish, dalalarning ifloslanish darajasiga qarab taxminan 25-30 kundan keyin o'tkaziladi. Keyinchalik dalada qolgan begona o'tlar har safargi kultivatsiya qili va hosilni yig'ishtirish oldidan hisobga olinadi.

Bir yillik begona o'tlar ko'p tarqalgan dalalarda hisobga olish maydonchalari 2,4 m/kv kattalikda bo'lib, xar qaysi variant maydonchalar begona o'tlar hisobiga olinadigan 4 yoki 6 qatorni o'z ichiga oladi.

Ko'p yillik begona o'tlar olinadigan maydonlarning soni kichik maydonlardagi tajriba va ularning solishtiriladigan variantlarida 4-5 tadan, ishlab chiqarish tajribalarida esa maydon katta bo'lganligi uchun 10-15 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Zaruratga qarab tanlanadigan hisobot maydonchalaridagi begona o'tlar bir marotaba hisobla olinadi. Begona o'tlarni ikkinchi marotaba hisobga olish uchun daslabki maydoncha yonida ikkinchi maydoncha tanlanadi. Begona o'tlarni hisobga olishda, ularning turiga va biologik belgilariga asoslanib bo'lib hisobga olinadi.

Gerbetsid moylar (dizel yoqilg'isi) ilatilganda – begona o'tlar to'rtinchi, beshinchi kunda hisobga olinadi. Hisobga olinadigan begona o'tlar zararlanish darajasiga qarab: halok bo'lgan, zararlangan va zararlanmagan kabi guruhlarga ajratilib o'r ganiladi.

Yer usti qismlari qurigan o'tlar, halok bo'lgan yer usti qismi ba'zan esa uning bir bo'lagi qurigan, ammo ildizlari tirik holida saqlangan o'simliklar zararlangan va gerbetsidni ta'siri sezilmasa zararlanmagan deb bo'lmaydi va hisobga olinadi. Begona o'tlarning ko'philigi ko'p yillik o'simliklardan iborat bo'lman variantlarda, bu o'simliklarning holatini tashqi qurinishiga qarab belgilash va tuproqni ildizlar joylashgan qatlampacha kovlab ko'riladi. Agar ildiz bo'laklari ko'karib o'sa boshlasa o'simlik gerbetsidlardan zararlanmagan

hisoblanadi. Ildizlarning sirtqi tomonining holati uni ko‘zdan kechirish va kesib ko‘rish yo‘li bilan aniqlanadi.

Gerbetsidlarni o‘rganish vaqtida kimiyoiy moddalar qo‘llanilgan ekinlardan bo‘sagan yerga ekilgan ekinlarga gerbetsidlarning ayrim turlari (simazin, atrazin) keyinchalik qanday ta’sir etishini aniqlash ham g’oyat muhimdir.

Gerbetsidlarning qoldiq ta’sirini belgilash va tuproqga qanday chuqurligicha kirib borishini aniqlash uchun o‘suv davrining oxirida tuproqning 0 – 3, 3 – 5, 5 – 10, 10 – 15 va hakozo sm chuqurlikdagi qatlamlardan namunalar olinadi. Bu namunalar bir litrli idishlarga joylanib bahorgacha saqlanadi va bahorda tuproq **namunalari idishlardan olinib, ularga har xil gerbetsidlarning ta’siriga chidamsiz ekinlar** (**g’o‘za**, suli, bedalar) ekiladi.

Bir oy atrofida va undan ham ko‘proq vaqt o‘tgandan keyin shu tuproqlarda o‘savotgan o‘simliklarning ahvoliga qarab, gerbetsidlarning ta’siri qancha vaqt davom etganligi hamda ular tuproqqa qanday chuqurlikda kirib borganligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish tajribalari o‘tkazish uchun tuproq qatlami va begona o‘tlarning turli jihatdan hamma joyi bir xil bo‘lgan maydonlar tanlanadi. Gerbetsidlar maydonning hamma joyiga sepiladi, 1 – 2 hektar maydon solishtirish maqsadida ajratilib, kimiyoiy modda qo‘llanilmaydi.

Dala tajriba tuprog’ida begona o‘tlarni urug’ini hisobga olish ham, gerbetsidlar bilan o‘tkaziladagan ilmiy ishlarga aniqlik kiritadi va boyitadi. Begona o‘tlarni urug’larini hisobga olish uchun tuproq qatlamlaridan burgu bilan tuproq namunasi olinadi va 0,25 mm. Elaklarda suv bilan yuvish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Elakda qolgan qum va toshlar og’ir suyuqliklar (potosh, rux xlorid) tushirib begona o‘t urug’idan ajratiladi. Termostatda quritilib begona o‘t urug’lari hisoblab chiqiladi. Ko‘p yillik ildiz poyalik va ildiz bachkilik begona o‘tlarning ildizlarini tuproq qatlamlarida ham joylashishini aniqlash mumkin. Buning uchun 1 m qatlamdagи tuproq har 10 sm dan qatlamdagи ildizlar hisoblab chiqiladi. Bundan taqari ildizlarni joylashishi miqdorini aniqlan uchun 1 m tuproq qatlami kovlab olinib suv bilan yuvib aniqlanadi. Begona o‘t urug’larini shamol va suv bilan tarqalishini ham har xil uslubiyatlar bilan aniqlash mumkin.

G’alla don ekinlarida ham begona o‘tlarni o‘rganish bo‘yicha tajriba o‘tazilganda, variantning xisobga olish maydonidagi begona o‘tlarni biologiyasi, turlari va qarshi kurash usuli xisobga olingan xolda amalga oshiriladi.

Dala tajriba o‘tkazilayotganda o‘rganilayotgan gerbitsidlarni turi, zarari, ta’sir mexanizmi va uni me’yori yaxshilab o‘rganilib keyingina amalga oshiriladi. Begona o‘tlarni soni va ta’sir darajasi, kimiyoiy moddaning samaradorligi g’o‘zada o‘tkazilgan tajribalar singari bir xil bo‘ladi.

## **24-Mavzu: Paykaldan olingen xosilni gektariga aylantirib xisoblash.**

**Mashg’ulotning maqsadi:** G’o’za maysalarini unib chiqishini uch muddatda hisoblash, shonalashni kuzatish, bosh poya balandligini o’lchash, bosh poya bo’yi, bo’g’inlar soni va hosil elementlarini hisoblash, hosil tugish hamda shona va tugunchalarning to’kilishini kuzatish, paykaldan olingen hosilni gektarga aylantirib hisoblash.

Hamma turdag'i kuzatish usullarida, shu jumladan dala tajribalarida o’rganilayotgan omillarning ta’sirini o’rganilayotganda yoki biror omil bilan solishtirilayotganda asosiy ko’rsatkich bu, shu qishloq xo’jalik ekinlarining hosildorligi bo’lib yoki tugallovchi davr bo’lib hisoblanadi. Olingen hosildorlik ma’lumotlarini aniqlash darajasi to’laligicha hosilni to’g’ri yig’ib olishga va aniq ishlab chiqishga bog’liq. Mana shu eng mas’uliyatli davrda tajriba ishlarini bajaruvchi kishining – kuzatuvchini diqqat e’tibori tajriba maydonini yig’im-terimiga yaxshilab tayyorlash va hosilni o’z vaqtida yig’ishtirib, saranjomlab olishga qaratilgan bo’lishi zarur.

Tajriba maydonidagi hosilni yig’ib-terib olishga tayyorlash, maydonning hamma joyini tekshirib ko’rish va agarda qoziqlar yo’qolgan bo’lsa, u holda yangitdan qoziqlarni qoqib chiqishdan boshlash zarur. SHundan keyin agarda tajribada paxta hosili qo’l bilan terib olinadigan bo’lsa, u holda himoya maydonlari va qatorlari to’laligicha ajratib chiqiladi.

Himoya maydonlari tajriba maydonining boshi va oxiri hamda ikkala yon tomonlarida ham bo’ladi. Himoya qatorlari yoki maydonlari ajratilganda, tajribaning hisobga olish qatorlari va maydonlari yana bir bor tekshirib chiqiladi hamda mavjud g’o’zalar har ikki tomonga bosib, yorib qo’yiladi. Buning uchun tajriba variantlarini to’g’ri burchak shaklida joylashishi yana bir bor nazorat qilib qo’yiladi, ya’ni burchaklariga qoziq qoqilib ko’ndalangiga ip tortib ajratib chiqiladi va odam yuradigan qilib to’g’ri chiziq shaklida yo’laklar bilan ajratiladi.

Agarda tajriba qaytariqlari ikki yarusda joylashgan bo’lsa, u holda qaytariqlar o’rtasidagi yo’lak ham alohida qilib ajratiladi. Tajriba maydonini ajratib bo’linganidan keyin qaytariq va variantlar oralaridagi himoya qatorlarini ajratishga kirishiladi. Bu ishni tajriba joylashtirilgandan keyin himoya va hisobga olish maydonlarining qanday joylashtirilganligiga, variant navidagi qatorlar soniga mos holda bajarish shart. Agarda ilgarigi mavzudagi to’xtalib o’tilganidek, variantlarda o’rganilgan omil bir-biridan keskin farq qiladigan bo’lsa, u holda shu ta’sirlarining hosildorlikka ta’siri bo’lmasligi uchun himoya qarorlari ham ko’p bo’lishi kerak.

Har qaysi variant himoya va hisob qatorlariga ajratilib, ularni tekshirishdan o’tkazib, hisobga olinadigan va himoya qatorlari har qaysi variantning yuqori, hamda quyi chegarasiga to’g’ri kelganligini tekshirib bo’lgandan keyin, o’simliklarning holati ko’zdan kechiriladi. Agar variantdagi o’simliklarning qalinligi hamda o’sish va rivojlanishi bir tekisda bo’lsa bunday holda

hamma hisobga olish maydonlaridagi hosil yig'ib-terib olinadi. Bordiyu o'simliklarning ko'chat qalnligi hamda o'sish va rivojlanishi bir teksda bo'lmasa, bunday holda hisobga olish maydonini o'simliklarning o'sish va rivojlanishi bir xil bo'lgan qismidan o'simliklar ajratilib, paxta hosili terib olinadi.

Variantdagagi o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi bir tekisda bo'lmasa yoki farqi katta bo'lsa, mutasaddi tashkilotlar tomonidan tuzilgan komissiyaning qarori bilan shu variant bekor qilinadi. Ba'zi hollarda to'liq tajribaning o'zi ham bekor qilinishi mumkin.

Dala tajribalarida qo'l bilan paxta hosilini terishda o'rtacha ko'sak massasini aniqlash uchun namunalar terib olinadi. Har bir variantdan terib olingan paxta hosilini hosildorligiga aylantirishda qo'shib hisoblanishi uchun namunaning umumiyligini og'irligi ham aniqlab qo'yiladi.

Paxta hosilini hisobga olish uchun terimchilar maxsus tushuntiruv insotuktajdan o'tkazilib, dala tajribasining mohiyati, ahamiyati, olingan mahsulotning aniqlik darajasi va uni ishlab chiqarishda ahamiyati hamda terishda bajariladigan ishlar haqida batatsil aytib o'tiladi. Har bir variant uchun alohida nomerlangan qog'ozchalar tarqatiladi. Variant yoki qaytariqlardagi paxtani terib bo'lib toroziga olib kelganda shu nomerlangan qog'oz orqali variant yoki qaytariq aniqlanib, paxtaning massasi shu variantdan terib olingan paxta hosiliga qo'shib qo'yiladi. Bu vazifalar ilmiy xodim yoki diplomatlar tomonidan bajariladi va nazorat qilinadi.

Terib olingan paxtaning miqdorini yozish uchun alohida dala daftari oldindan tayyorlab qo'yiladi. Bu daftar quyidagi jadval ko'rinishida to'ldiriladi. Paxta hosilini hisobga olish jadvali, terim kuni – 20.09.93 terim soni – 1.

### **12-jadval**

Paxta xosilini xisobga olish.

| qaytariq I: | variant I: | terimchini I: | terimchining I.F.O. | ekan og'ir yuk. | paxta etak b-n og'ir | sof og'ir kg | o'rtal ko'sak mass. aniq | paxta jami og'irligini gr | aylantirish koeffitsi yenti | hosidorlik ts/ga |
|-------------|------------|---------------|---------------------|-----------------|----------------------|--------------|--------------------------|---------------------------|-----------------------------|------------------|
| 1           | 1          | 1             | Ahmedova Z.         | 0,5             | 24,0                 | 23,5         | 0,5                      | 24,0                      | 41,7                        | 10,0             |

Har terimdan keyin terib olingan paxta hosilini hosildorlikga aylantirishda asosan ikki usuldan foydalaniladi.

1. Proportsiya yo'li bilan.
2. Aylantirish koeffitsiyentini topish yo'li bilan.

Har ikkala usul bilan ham hosildorlikni topishda, variantning hisobga olish maydoni aniq bo'lib, shu asosiy ko'rsatkich asosida topiladi. SHuning uchun ham yuqoridagi jadvalni yuqori tomoniga nechanchi terimligi va terim kuni yozib qo'yiladi.

Agar variantning uzunligi 100 metr bo'lib, g'o'za qator orasi 60 sm. dan bo'lsa va hisobga olish qatorlari to'rt qator bo'lganda, bu holatda hisobga olish maydoni  $240 \text{ m}^2$  bo'ladi. Proportsiya yo'li bilan amalga oshiriladi.

$$\frac{240 \text{ m}^2}{10000 \text{ m}^2} = \frac{24 \text{ kg}}{X}$$

$$X = \frac{24/10000}{240} = 1000 \text{ кг}$$

yoki 10 ts/ga teng. Xuddi shu ma'lumotlarni aylantirish koeffitsentining bir gektar maydon yuzasini, variantining hisobga olish maydoni yuzasiga nisbati bilan topiladi.

$$K = \frac{X}{G} \quad K = \frac{10000}{240} = 41,66$$

bunda, K – hosildorligiga aylantirish koeffitsenti;

G – 1ga maydonning yuzasi 10000 m/kv;

X – hisobiga olish maydoni

Hosildorligini aniqlash uchun aylantirish koeffitsiyentini terib olgan paxta hosili miqdoriga ko'paytiriladi.  $41,66 \times 24 = 10$  ts/ga. Hamma terimlar bo'yicha shu usullar bilan paxta hosildorligi, ya'ni har gektardan olingan hosil tsentneri aniqlanib variant va qaytariqlar bo'yicha o'rtacha hosildorlik hamda o'rganilayotgan omil hisobiga olingan qo'shimcha hosildorlik aniqlandi va bu jadvalga yoziladi.

### *13-jadval*

#### **Paxta hosildorligi, ts/ga**

| qaytariq I: | variant I: | terimlar bo'yicha |   |   |   | jam'i hosildorlik | qaytariqlar bo'yicha |   |   |   | o'rtacha hosildorlik | qo'shimcha hosildorlik |
|-------------|------------|-------------------|---|---|---|-------------------|----------------------|---|---|---|----------------------|------------------------|
|             |            | 1                 | 2 | 3 | 4 |                   | 1                    | 2 | 3 | 4 |                      |                        |
|             |            |                   |   |   |   |                   |                      |   |   |   |                      |                        |

Variantlardagi paxta hosilini terib olish paytida, paxtadagi barg va burlarini tozalab, namlik me'yori bo'yicha quritilib keyingina aniq og'irlilik aniqlaniladi va hosildorligiga aylantiriladi.

Tajriba varianti ish rejasida paxta tolasining texnologik sifati ko'rsatkichlari va paxta tolasining chiqishini hamda 1000 dona chigitning absalyut massalarini aniqlash ham ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda o'rtacha ko'sak massasini aniqlash uchun olingan paxta namunalaridan

foydalaniadi. Paxta tolasining chiqimi tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlari, ya'ni metrik nomeri, (mikrometr) pishiqligi, buraluvchanligi va hakozo ko'rsatkichlar hamda 1000 dona chigitning massasini aniqlash uchun alohida mavjud bo'lgan uslubiyatlarga asoslanib aniqlanadi.

Paxta tolasining chiqimini va 1000 dona chigitning massasini aniqlash uchun olinadigan paxta namunalari 20 kg. dan kam bo'lmasligi kerak.

Dala tajribalarida uning maqsadiga qarab paxta hosilini mashinada ham terish mumkin. Buning uchun g'o'za kimyoviy modda (defoliant) lar bilan ishlanib, o'simlikning bargi yaxshilab to'kilib, keyingina paxta mashinada teriladi.

Tajribadagi g'o'zadan o'simlik o'suv vegetatsiya davrining oxirida hamma variantdagi g'o'zalardan 1-5 tup olib quritib, bir tup o'simlikning massasini va agrokimyoviy analizlar hisobiga o'simlik tarkibidagi ozuqa moddalar miqdori aniqlanadi.

Ushbu o'simliklar ham g'o'za bargi sun'iy holda to'kilishidan oldin olinadi.

Paxtani terishdan oldin g'o'za bargi sun'iy holda to'ktirib bo'lingandan keyin oradan 8-10 kun o'tgach paxta terimi mashinasining burilishi uchun zarur bo'lgan joylar tayyorlanadi. Buning uchun uvatdagi g'o'zalar paxtalari terib o'rib olinadi. Bu joyning kengligi 5 m dan kam bo'lmasligi kerak. Burilish joylari yaxshilab tekislab, o'rilgan g'o'zalar yana bir marotaba ochilgan ko'saklar terilib, terim mashinasi ishiga xalaqit bermaydigan joyga chiqarib qo'yiladi.



*Terimga tayyormas dala*

*Terimga tayyor dala*

#### **6-rasm. Terishga tayyor xoldagi paxta maydoni**

Paxtani mashinada terishdan oldin, qo'lda tergandagidek har qaysi variantning hisobga olinadigan maydondan o'rtacha ko'sak massasini aniqlash uchun namunalar terib olinadi. YAlpi hosil esa 60-70% ko'saklar ochilganda, mashina bilan paxta hosili terib olinadi. Dastlab hamma variantlarning hisobga olinadigan qatorlaridagi paxtalari teriladi. Hisobga olish qatordagi terilgan

paxtalar tozalanib, quritilib tortiladi va hosildorlikka aylantiriladi. Sof holdagi paxtani miqdorini aniqlash uchun 2 kg paxta torttirib olinadi va har xil xashklardan tozalaniladi, me'yorigacha quritilib foiz hisobida tozaligi va miqdori aniqlanadi.

Boshqa turdag'i qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligi esa o'ziga xos bo'lgan uslublarda yig'ishtiriladi.

G'alla – don ekinlari bilan dala tajribasi o'tkazilganda hisobiga olish maydonlaridagi o'simliklar hosillarini qo'lida yoki hosil yig'ishtiruvchi mashina (kombain) larda yig'ishtirish mumkin.

Kichik maydonlarda dala tajribalari o'tkaziladigan bo'lsa, g'alla don ekinlar hosilini hisobga olish maydonlaridagi hamma hosil qo'lida o'rib, keyin doni somondan ajratilib, hosildorligiga aylantiriladi. Katta maydonlarda, ya'ni hisobga olish maydoni 200-300 m/kv dan katta bo'lgan dala tajribalarida esa hisobga olish maydonidan chekkadan 5-10 metr ichkariga diagonal usulida 1 m/kv yuzaga ega bo'lgan ramkalardan foydalanib, shu maydondagi hosil yig'ishtirib olinadi. Har bir variantdagi 10-12 dona namunadagi (1 m/kv) o'simlik o'rib, doni ajratiladi va tortilib, namuna soniga bo'linadi va 1 m/kv ga to'g'ri kelgan don miqdori aniqlanadi. Dastlab 1 m/kv ga to'g'ri kelgan don miqdorini hisobga olish maydoniga va 1gektardagi tsentner hisobidagi hosildorlikga aylantiriladi. Hosildorliklar bo'yicha barcha o'r ganilayotgan variantlar solishtirilib baholanadi.

Tor qator ekiladigan sabzavot ekinlaridan ham hosildorlikni aniqlashda shu yuqoridagi usuldan foydalaniladi.

Keng qatorlab ekiladigan sabzovot ekinlarida esa hisobga olish qatorlari va maydonlarga nisbatan terimlar bo'yicha hosildorlik aniqlanadi.

**Kerakli jihozlar va asboblar:** Tarqatma materillar, kalkulyator, chizg'ich.

## **25-Mavzu: Vegetatsion tajriba natijalarini dispertsional taxlil qilish.**

Vegetatsion kuzatish usuli ilmiy agronomiyaning kuzatish usullari ichida, kuzatish usullari aniq bajariladigan va dala tajribasini o'tkazishda asos bo'lib hisoblanadi.

O'simliklarni mineral moddalar bilan oziqlanishi, suv va yorug'lik sharoitlari, o'sishini jadallashtiradigan moddalarning ta'sirini hamda o'simliklarni o'sish va rivojlanishiga ta'sir etadigan boshqa omillarni o'r ganishda vegetatsion kuzatish uslubi katta ahamiyatga ega bo'lib, bir qator amaliy tekshirish ishlarida keng qo'llaniladi.

Vegetatsion tajriba sharoitida o'simliklarning oziqlanishi va suv bilan ta'minlanishini, ularning o'sish dinamikasini, meva tugishi va hosil to'planishini puxtalik bilan nazorat qilib turish mumkin, hamda yorug'lik rejimini va mikroiqlimni o'zgartirish ham daladagiga qaraganda bir oz yengillik tug'diradi.

O'simliklarni vegetatsion tajriba sharoitda o'stirish usullari ularni dalada o'stirish sharoitidan keskin farq qiladi.

SHu sababli tabiiy sharoit xususiyatlarini hisobga olmasdan turib tajriba natijalarini dala sharoitiga ko'chirish mumkin emas. SHunday bo'lsa ham ko'pgina nazariy va ba'zi bir amaliy masalalar vegetatsion metod yordamida hal etilishi mumkin.

Vegetatsion tajriba sharoitida o'simliklar tuproqda, qumda va suvda o'stiriladi, maxsus tekshirishda suv muhiti va tuproq bilan birga ishlataladi, ya'ni o'simlik suv – qum muhitida g'o'za o'stirish uchun qulay sharoit yaratish ustida maxsus ish olib borishga to'g'ri keladi. SHunga ko'ra g'o'za o'stirishga doir vegetatsion tajribalar asosida tuproq muhitida va ba'zan qum muhitida o'tkaziladi.

Tajribani tashkil qilish va uni o'tkazish uchun kerakli tuproq tekshirish tadqiqot ishlarida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarga qarab tayyorlanadi. Tajriba uchun olingan joy, maydonning tarixi va holati batafsil yozib quyiladi va shu maydonda uchraydigan tuproq turlari ta'riflanadi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda ekiladigan asosiy qishloq xo'jalik ekinlarning biologik xususiyatlarini , ildiz tizimini tuzilishi shunga ko'ra oziqlanishini hisobga olgan holda vegetatsion tajribalarda quyidagi o'lchamdag'i vegetatsion idishlar (sosud) tavsiya qilish mumkin.



**7-rasm . Maxsus tajriba tuvaklari**

**14-jadval**

**Tuproqning qishloq xo'jalik ekinlari uchun vegetatsion sosudlar idish o'lchamlari.**

| № | O'simliklar turi | Sosudlar (idish) o'lchamlari                     |   |  |
|---|------------------|--|---|--|
|   |                  | Tuproqqa<br>ekiladigan<br>ekinlar uchun<br>sm da | Qumga<br>ekiladigan<br>ekinlar uchun<br>sm da | Suvga<br>ekiladigan<br>ekinlar uchun<br>metrda |
|   |                  |  |   |  |

|    |                    |                |                |     |
|----|--------------------|----------------|----------------|-----|
| 1  | G'o'za             | 40x25<br>30x30 | 30x25<br>30x20 | 6-8 |
| 2  | Donli ekinlar      | 20x20<br>15x30 | 20x20<br>15x20 | 3-5 |
| 3  | Dukakli ekinlar    | 30x15<br>20x20 | 20x20<br>15x20 | 4-5 |
| 4  | Ko'p yillik o'tlar | 20x20<br>30x15 | 20x20<br>20x15 | 3-5 |
| 5  | Karam              | 30x25<br>35x30 | 30x30<br>25x30 | 6-8 |
| 6  | Tamaki             | 20x30<br>25x25 | 20x25<br>20x20 | 5-6 |
| 7  | Qand lavlagi       | 25x30<br>30x35 | 25x30<br>30x35 | 6-8 |
| 8  | Kartoshka          | 25x30          | 35x30          | 7-8 |
| 9  | Sabzi              | 25x20          | 20x20          | 5-6 |
| 10 | Piyoz              | 25x20          | 20x20          | 4-5 |
| 11 | Bodring            | 25x30          | 25x25          | 5-6 |
| 12 | Baqalajon          | 25x30          | 35x25          | 6-8 |
| 13 | Rediska            | 25x20          | 20x20          | 4-5 |

**Izoh:** Birinchi berilgan son idishning (sosud) diametrini, ikkinchisi esa uning balandligini ko'rsatadi. Agarda vegetatsion sosud 20x20 bo'lsa 6-8 kg, 30x30 unda 22-26 kg va 25x25 bo'lganda esa 15-20 kg tuproq sig'adi.

Tajriba idishlariga (vegetatsion sosudlar) to'ldirish uchun odatda haydalma qatlam tuprog'i olinadi. Tuproqni tajriba idishlariga to'ldirishdan oldin, ular yaxshilab ildiz qoldiqlari – tosh va boshqa narsalardan tozalash maqsadida ko'zlari ikki santimetр bo'lgan elaklardan o'tkaziladi.

G'uza bilan vegetatsion tajriba olib borish uchun 20 kg chamasi tuproq sig'adigan, balandligi 32 sm va diametri 29 sm keladigan idishlardan foydalaniladi.

Idishlar ruh yogurtirilgan, zanglamaydigan tunukadan tayyorlanadi. Idishning tashqi tomoni och rangli bo'yoq bilan bo'yaladi, ichki tomoni ham bo'yalib tepasidan domir laki yoki bitum surkaladi. Har safar tuproq to'ldirishdan oldin idish yaxshilab yuvilib, ichki tomoni laklanadi.

O'simliklarni sug'orish uchun har qaysi idishda diametri taxminan 2 sm. li, nay idish devoriga qiya holda qilib payvandlanadi yoki tuproq to'ldirish vaqtida idish ichiga quyib qo'yiladi.

Nayning yuqori tomoni idishdan 3-5 sm. chiqib tursa, pastki ikkinchi tomoni esa idishning pastiga teskari qilib yopib qo'yilgan teshikchalaridan iborat bo'lgan tunuka tarnovchaga tekkazilib qo'yiladi. Tarnovlarni pastki tomonida esa 2-3 kg. og'irlilikda yaxshilab

yuvilgan, yirik qum yoki mayda tosh solinadi. Bu toshlar qo'yilgan suvlarni yuqoridagi tuproqlarga teng taqsimlanishini ta'minlaganligi uchun drenaj deb ataladi.

Tuproq to'ldirishdan oldin hamma idishlar tortib chiqiladi va bir xil vaznga keltiriladi. Har qaysi idishning vazni ichiga qancha mayda shag'al yoki yirik qum solinganligiga qarab drenaj va nay bilan birgalikda 4-5 kg. bo'lishi kerak. Tuproq bilan qum yoki shag'al aralashib ketmasligi uchun drenaj bilan tuproq o'rtasiga ikki qavat qog'oz yoki doka yoyib qo'yiladi. Tajribada amalga oshiriladigan hisob-kitobni yengillashtirish maqsadida hamma idishlarini og'irligi bir xil bo'lishi kerak, bu esa torozida tortib ko'rish yo'li bilan aniqlanadi. Tuproq nami oshganda uning vazni ham oshadi. SHu sababali har bir idishga to'ldiriladigan tuproq miqdori uning absalyut quruq vazni asosida belgilanadi. Bitta idishga to'ldiriladigan tuproqning quruq holatidagi vazni 20 kg. dan oshmasligi kerak. Idishlarga tuproq to'ldirish oldidan tuproq namligini belgilash va tuproqni agrokimyoviy analiz qilish uchun tayyorlangan tuproqdan namuna olinadi. Tuproq tarkibidagi namlik miqdori keskin o'zgarib ketmasligi uchun idishlarga tuproq to'ldirishni qisqa vaqt ichida amalga oshirish kerak.

Har qaysi idish uchun belgilangan tuproqni tog'oraga solib, uni o'g'it bilan yaxshilab aralashtiriladi va bu tuproq bir necha qismga bo'linib, drenaj tepasida ochiq joy qolmaganligiga ishonch hosil qilinganligidan keyin solinadi. Bu qatlama yaxshilab zichlanadi.

Idishdagi tuproqning yuzi idish tepasidan 3-4 sm. pastda turishi kerak. Vegetatsion tajribalarda ma'danli o'g'itlarni me'yorini tuproqga solish idishdagi tuproqqa og'irligi asos qilib olinadi. Agar har gektar maydonga 50 kg. dan sof holda azot berish kerak bo'lsa, quyidagicha hisoblanadi.

Bizda ammiakli selitra (34%) mavjud bo'lsa, uning miqdori hisoblanib, har gektar maydonga solinishi kerak bo'lga o'g'it quyidagicha chiqariladi.

$$\begin{array}{r} 100 - 34 \\ \hline X - 50 \end{array} \quad X = \frac{50 \times 100}{34} = 147 \text{ кг}$$

Olingan tuproqning hajm massasi 1,33 kv/sm. kub bo'lga 0,3 m. qatlamidagi tuprog'ini og'irligi 4000000 kg bo'lishligini bilib, idishdagi tuproqqa beriladigan o'g'it miqdori aniqlanadi.

$$\begin{array}{r} 4000000 \text{ кг} - 147 \\ \hline 20 \text{ кг} - X \end{array} \quad X = \frac{20 \times 147}{4000000} = 0,735 \text{ кг}$$

Tuproq to'ldirilib bo'lgandan keyin idishlar ochiq joydagisi tekis maydonga variant va qaytariqlar bo'yicha terib qo'yiladi. Vegetatsion tajribalarda qaytariqlar soni kamida 4 ta imkonib olinadi. Bu turdagisi tajribalar dalada olib borilgan tajribalardan keskin farq qiladi. Agar dala sharoitida tuproqning turiga va sizot suv joylashish chuqurligiga qarab g'o'zaning vegetatsiyasi

davomida 4-10 marotabagacha sug'orilsa vegetatsion tajribalarda esa havoning harorati ko'tarilib ketganda har kuni 2 marotabadan sug'orilishi kerak. Har bir idishga berilishi kerak bo'lган suvning miqdorini bilish uchun tuproq to'ldirilgan tajriba idishning to'liq dala nam sig'imidiagi namlik bilan birga o'zgarmas og'irligini ham bilish kerak. Idishning o'zgarmas og'irligiga idishning drenaj, idish va dala sig'imidiagi namlikdagi tuproqning og'irligi kiradi. Masalan, tuproqning dala nam sig'imi 25% ga teng bo'lganda, sug'orishdan oldingi tuproq namligi 12% bo'lsa hamda sug'orish rejimi bo'yicha dala nam sig'imiga nisbatan 70% da sug'orish kerak bo'lsa, sof 20 kg tuproqqa dala nam sig'imiga yetkazish uchun qancha suv quyishligini aniqlaymiz.

20 – 100

X – 25

$$X = \frac{25 * 20}{100} = 5\kappa\varepsilon$$

Tuproqni dala nam sig'imiga teng bo'lgan namlikda ushlab turish uchun 5 kg suv qo'yish kerak.  $20+5=25$  kg. Agar idishning o'zgarmas og'irligi  $25+5=30$  kg teng bo'ladi. Demak, har kuni idish tarozida tortiladi, o'zgarmas og'irligida kamaygan og'irligi suv bilan to'ldiriladi. Idishni tarozida tortganimizda 28,5 kg kelgan bo'lsa  $30-28,5=1,5$  kg suv quyib o'zgarmas og'irligiga keltiriladi va undan keyin suv sarfi yoziladi.

Ekish oldidan tajriba idishlariga nay orqali suv quyib, idishdagi tuproq pastidan namiqtiriladi. Hamma idishlarga o'zgarmas og'irlikgacha suv quyib chiqiladi.

Tajriba idishlariga o'rugi ekish may oyining bиринчи o'n kunligida, dalada ekish ishlari tugagandan keyin o'tkaziladi. Ekishdan oldin chigitlar suvda bir kun oldin ivitiladi. CHigit idishlarning o'rtasiga 3-4 sm chuqurlikda ekiladi. Har bir idishga 6-8 ta gacha chigit ekiladi. Unib chiqqan maysalar ko'pincha chigit po'stini tashlamagan bo'ladi. Bunday maysalar tagi chigit po'stining ustiga xo'llangan paxta, doka yoki suzish qog'ozi qo'yilishi kerak. Bir qancha vaqtdan keyin nami kam po'st tushib ketadi yoki oxista olib tashlash kerak.

Maysalar ketma-ket bir necha marta yangilanadi. Avvalo har qaysi idishda beshta maysa, keyin 4 so'ngra 3,2 va nihoyat 1 tup maysa qoldiriladi. Bu holatda o'simliklar yayrab o'sadi va yaxshi rivojlanadi. G'o'zalar ixcham bo'lishi va bir xilda bo'lib yetilishi uchun o'sish davrining boshlarida o'suv shoxlarining paydo bo'lishi bilan o'larning hammasini yulib tashlash tavsiya etiladi. YAganalash vaqtida hamma o'simliklarni puxtalik bilan ko'zdan kechirib, faqat zaif, nimjon va hashoratlar zararlantirgan maysalarinigina yulib olish kerak.

Maysalarga hashorat tushish xafi bo'lsa, ularga qarshi ishlov berish yoki oldini olish kerak. Havo isiy boshlashi bilan tajriba idishlariga paxtachilik yoki gazlamadan tikilgan jilt kiygiziladi. Bitta tajribaga qarashli idishlarning hammasi bir xilda o'ralishi kerak. Bu tadbir

o'simliklarning ildizini ortiqcha qazishdan saqlaydi. Jiltining vazni idishning umumiyligi og'irligiga qo'shib qo'yiladi. Tajribadagi o'sayotgan g'o'zalarni sug'orish o'suv davrining oxirigacha davom etadi. Idishdagi namlarga har kuni 2-3 martagacha suv quyiladi. Meva tugish davrida idishlarning tuprog'i bosilib zichlanadi. SHuni kuzda ko'rib idishlarning tuprog'ini qattiq quritib yo'yishga va uni keyin serob qilib sug'orishga yo'l qo'yilmaydi. G'o'zalarning o'sishiga mos holda idishlarning doimiy og'rilibi oshirib borish mumkin. Vegetatsion tajribalarda g'o'zaning o'sish va rivojlanishi kuzatilishi dalada o'sayotgan o'simliklarni kuzatishga qaraganda osonroqdir. Har qaysi o'simliklarning hosildorligini meva hosil qiladigan organlarini tashlashini va hosil tugishini to'la va aniq hisobga olish uchun o'simliklarni holati to'la ta'riflab yozib boriladi, zarur deb topilganda esa gullariga yorliqlar (qog'ozdan) yozib qo'yiladi. To'kilgan meva elementlari har 3 yoki 5 kundan sanab yozib qo'yiladi.

Hisobot (daftар) natijalari ostida meva elementlarining to'kilish xarakteriga va ayrim omillar qanday ta'sir qilishini belgilash va bu ta'sir g'o'zaning yoshi bilan bog'liq holatga va shona hamda tugunlarining yoshiga qarab qanday o'zgarishini aniqlash mumkin bo'ladi. Har bir tup g'o'zaning hosili alohida ravishda hisobga olinadi. Hosilni strukturasi muffassal o'rganiladigan bo'lsa, u holda har qaysi ko'sak alohida xaltachaga joylanib, g'o'za tupidagi hosil shoxi aniq ko'rsatiladi va vazni alohida o'rganiladi. O'simliklarning quruq massasi hisobga olinadigan bo'lsa, o'suv davri davomida to'kilgan hamma qismlari (barg, meva va tugunchalari) har qaysi idish bo'yicha yoki butun variant bo'yicha alohida xaltachaga yig'ib boriladi va vazni aniqlanadi.

Vegetatsion tajribalarda fenologik kuzatishlar yoki boshqa omillarni ta'siri o'rganiladi, shonalash, gullah, meva tugish va pishish jadalligi dala tajribalarida qanday bajarilsa shu uslubiyat asosida bajariladi. Lekin o'simliklar sonidan farq qiladi.

## 26-tajriba mashg'uloti:

### Bir omilli dala tajribasi natijalarini dispersion tahlil qilish ishlariga baho berish

Oddiy, biron bir masala alohida o'rganiladi. Masalan tup sonning bir qancha variantlari o'rganiladi.

Hosildorlik ma'lumotlari o'zgarishlarni tuzatib, umumlashtirish metodi bilan ham ishlab chiqiladi.

Hosildorlik ma'lumotlarini alohida-alohida (har qaysi variant uchun alohida) ishlab chiqish ko'p hollarda maqsadga muvofiqdir (A. A. Sapegin metodi, 1935 y.). Ko'pincha takrorlashlar bo'yicha bir-biridan katta farq qiladigan ma'lumotlar olinsa, bunga zarurat tug'iladi. Bu o'zgarishlar o'rtachadan mumkin bo'lgan chegaradan chetga chiqib ketmasligiga ishonch hosil qilish kerak. Bundan tashqari, hosildorlik ma'lumotlarini alohida-alohida ishlab chiqish metodi

nav sinash tajribalarida ham zarur, bunda sinalayotgan navlar standart bilan alohida-alohida taqqoslanadi.

Biroq ko'p variantli agrotexnika tajribalarida bunday ishlab chiqish usuli qiyin ko'rindi, chunki taqqoslanayotgan ikkita o'rtacha arifmetik farqning ishonchlilagini aniqlash uchun uni har qanday ayrim holda hisoblash zarur. Shuning uchun takrorlashlar bo'yicha hosilda katta farq bo'lmasa, ma'lumotlarni umumlashtiruvchi metod bilan ishlab chiqish birmuncha qulay bo'ladi.

Ma'lumotlarni ishlab chiqishning umumlashtiruvchi metodida hisoblash prinsipi va ayrim elementlar ( $t$ ,  $dt$ ,  $t$ ) ning ahamiyati, har qaysi variantni alohida-alohida ishlab chiqqandagi kabi bo'ladi. Farqi shundan iboratki, umumlashtiruvchi metod bu elementlar ayrim variantlar uchun emas, balki butun tajriba uchun to'liq hisoblanadi. So'nggi yillarda B. A. Dospexov, V. Peregudov va A. Ye. Sokolovlar metodi keng qo'llanilmoqda.

Ma'lumotlarni V. Peregudov metodi bo'yicha ishlab chiqish oddiy va qulaydir

#### Matematik tahlil hosildorlik ko'rsatkichlari (Dospexov bo'yicha)

jadval-1

| Variantlar | Takrorlanishlar |       |       |       | O'rtacha<br>hosildor-lik | Variantlar<br>yig'indisi |
|------------|-----------------|-------|-------|-------|--------------------------|--------------------------|
|            | I               | II    | III   | IV    |                          |                          |
| 1          | 38,2            | 37,4  | 36,3  | 36,9  | 37,2                     | 148,8                    |
